

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

1918-yil dekabrdan chiqa boshlagan

Jurnal O'zMAA tomonidan
2013-yil 4-martda qaytadan
ro'yxatga olinib, 0104-raqamli
guvohnoma berilgan.

Bosh muharrir:

Sarvar MAHMUDOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Aliyor ORIPOV

Mas'ul kotib:

Nurbek TASHXANOV

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV
Dilshod KENJAYEV
Risboy JO'RAYEV
Hikmatilla RASHIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Sharifjon ERGASHEV
Fayzulla AHMEDOV
Shavkat SHARIPOV
Maqsudjon YULDASHEV
Islom ZOKIROV
Alisher ZOKIROV
Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV
Ulug'bek ABRUYEV
Erkin ISKANDAROV
Bahodir SHAMSIYEV
Norbek TAYLAQOV
Abdusamat RAHIMOV
Muhammadjon QURONOV

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2015.

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

5-son (sentabr-oktabr)

2015

**Badiiy muharrir:**

Akbarali MAMASOLIYEV

Sahifalovchi: Muqaddas XAFIZOVA

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan parchalar "Xalq ta'limi" jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart. Maqolalarda keltirilgan ma'lumot va annotatsiyalarning to'g'riligiga mualliflar javobgardir.

Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"PRINT LINE GROUP" xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 44-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 15.09.2015-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 12,0. Adadi 20022 nusxa. - buyurtma.

TAHRIRIYAT

O'quvchi-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish – jamiyat rivojining asosiy omili 4

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Odil QO'YSINOV, Dilmurod MAMATOV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini rivojlantirish istiqbollari 6

Nargiz NISHONOVA, Zulfizar YULCHIYEVA. Uzluksiz ta'limda insonparvarlik yondoshuvining ilmiy-pedagogik xususiyatlari 11

Laziz HOSHIMOV. "Barkamol avlod" bolalar markazlarida ta'lim va tarbiya uyg'unligi 16

Muxayyo UMARALIYEVA. O'qituvchilarning kasbiy mahorati va kompetentligini rivojlantirish jarayonida motivlashtirish shakllari 22

Manzura NORQO'ZIYEVA. Xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. 27

Venera XAMDAMOVA, Firdavsxon YUSUFXODJAYEVA. Texnik ijodkorlik jarayonida mantiqiy va intuitiv tafakkurning ahamiyati 31

Shaxnoza TAYLAQOVA. O'quvchi-yoshlarning g'oyaviy dunyoqarashini takomillashtirishda ta'lim-tarbiyaning shakllari 36

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

Ziyoda ALIYEVA. Pedagogik kasb-hunar kollejarida chet tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari 40

Nigora ERGASHEVA. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga chet tillarni o'qitish imkoniyatlari 43

Gulbahor ABDUJABBOROVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jarayoniga tayyorlashning fiziologik jihatlarini 48

Nasiba SOBIROVA. Dostonlarda badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi 52

Risolat RUSTAMOVA. Oilada bolalar ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari 56

TA'LIMDA MENEJMENT

Dilshod TEMIROV. Pedagogik jamoani rivojlantirishning bosqichlari va darajalari 61

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Shuxrat NE'MATOV. Ajdodlar merosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari 65

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Zoxid JUMAQULOV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida belbog'lik kurash mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda aqliy va estetik sifatlarni shakllantirish 70

TA'LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIYALASHTIRISH

Shaylovbek SAIPNAZAROV, Malika ORTIQOVA. Matematik masalalar orqali o'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish usullari 75

MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

Sarvar SOBIROV. O'quvchilarning ijodiy jarayonini tashkil etishda to'garaklarning o'rni 79

MAKTABGACHA TA'LIM

Muzaffar SHIRINOV. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat 83

ЕКОЛОГИК ТА'ЛИМ

Abdurahmon NORBOYEV. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish: tarixiy tahlil va rivojlanish istiqbollari 88

ТА'ЛИМДА АХБОРОТ РЕСУРСЛАРИ

Bekzod Xodjayev, Aziz XUJAMKULOV. O'quvchi-yoshlarni axborot xurujlaridan muhofaza qilishda axborot iste'moli madaniyatining ahamiyati 92

MASOFAVIY TA'LIM

Abror ASQAROV. Ta'lim tizimida pedagog kadrlarning masofaviy malaka oshirishini joriy etishning ijtimoiy jihatlari 96

ПСИХОЛОГИЯ

Ella SULETBAYEVA, Tumaris AYMUXAMMEDOVA. Iqtidorli bolalarni aniqlash va ularning psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish yo'llari 101

KORREKSION PEDAGOGIKA

Karimboy NAZARQOSIMOV, Dildora MUSTAFAQULOVA. Imkoniyati cheklangan bolalarni uy sharoitida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari 105

ТА'ЛИМ ТАРИХИ

Saida UMAROVA. Pedagogik kadrlar tayyorlashda Alisher Navoiyning tarbiyaviy merosi... 108

ТАЈРИБА МАКТАБИ

Zamira BILOLOVA, Sog'lom avlod tarbiyasida oila va mahallaning hamkorligi 113

MEDIA TA'LIM

Ozoda ABDULLAYEVA, Saida BEKNAZAROVA. Mediata'limning konseptual modelini shakllantirish bosqichlari 118

АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ

Ravshan OMONOV. Muharrirlik faoliyatida matn bilan ishlash usullari 124

МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Зиёда ХОДЖАЕВА. Методика проведения уроков с использованием ИКТ на основе лично-ориентированного подхода 127

ДОШКОЛЬНОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Ирина ГРОШЕВА. Группа кратковременного пребывания как инновационная форма дошкольного образования 132

ПСИХОЛОГИЯ

Комил АБАЗОВ. Психологические факторы самостоятельного выбора профессии.... 137

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Сосорбарам Эрдэнэмаам, Цэндсүрэн Сэрээнэн. Страноведческий подход в изучении иностранного языка 141

O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH – JAMIYAT RIVOJINING ASOSIY OMILI

Mamlakatimizda mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq yoshlar tarbiyasi, xususan, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayni paytda biz uchun hamma vaqt dolzarb bo'lib kelayotgan yana bir muhim yo'nalish borki, u bevosita insonning qalbi va ongini o'zgartirish bilan bog'liq. Bu – ma'naviyatdir.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida yoshlarning ma'naviy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ularini mustahkam qaror toptirish, milliy an'ana va qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ularning ma'no-mazmunini keng targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Har bir xalq, mamlakatning istiqboli, uning taraqqiyoti, tinch va osoyishta hayot kechirishi, ezgu va buyuk maqsad-muddaolarni amalga oshirish uchun intilib yashashi o'sha mamlakatdagi erkin fikrlash muhiti, ma'naviy yuksalish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq yoshlarimizni hech kimdan kam bo'lmagan insonlar etib tarbiyalash, ularni jahon tamadduni, ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizga munosib insonlar etib kamolga yetkazish, qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat tuyg'ularini chuqur singdirishga jiddiy yondashilayotir.

Mamlakatimizda ilm-fan, madaniyat va san'atni izchil rivojlantirish, ta'lim sohasini isloh etish borasidagi ezgu intilishlar zamirida ham dunyoga yangicha, teran nigoh bilan nazar tashlaydigan, o'zining mustaqil fikriga ega avlodni kamol toptirish maqsadi mujassam. Vatanimizning boy tarixini asl holicha, xolisona o'rganish, buyuk ajdodlarimizning hayoti, ilmiy faoliyati, ma'naviy xazinasini chuqur tadqiq etish, madaniy merosimiz, o'ziga xos an'ana va qadriyatlarimiz, san'atning turli yo'nalishlarini puxta o'rganishga doir sa'y-harakatlar xalq ma'naviyatini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etishda muhim qo'llanmadir. Milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishga doir milliy qonunchilik tizimi natijasida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, uning joylardagi hududiy bo'linmalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tuzildi va izchil faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirish deganda, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligida shakllantirish, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, jismonan baquvvat, ma'naviy jihatdan

barkamol qilib tarbiyalash masalalari muhim o'rin tutayotganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan farzandlarimiz aholining 40 foizini, 30 yoshgacha esa, 60 foizini tashkil etmoqda.

Aholining aksariyat qismini tashkil etayotgan yoshlarimizning hali yechilmagan muammolariga e'tiborni kuchaytirish, o'sib kelayotgan avlodni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalalari jamoatchilikning doimo diqqat markazida bo'lishi shart.

Ana shunday imkoniyatlar asnosida o'g'il-qizlarimiz ta'lim, ilm-fan, san'at va adabiyot, sport sohasida quvonchli natijalarni qo'lga kiritmoqda. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, barkamol inson tarbiyasida ko'p omil va mezonlar bo'lsa-da, ammo ma'naviy omillar o'ta muhim o'rin tutadi. Yurtboshimiz yosh avlod haqida gapirganda, ma'naviyat masalasini alohida tilga olishlari bejiz emas, albatta. Zero bugungi murakkab zamonda jamiyatda ma'naviy komil insonni tarbiyalamasdan, ezgu maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

O'tmishga nazar solsak, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, Ahmad Farg'oni, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiydek buyuk allomalarimizning o'g'itlari yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli bo'lishiga undayotganini ko'ramiz.

Darhaqiqat, ma'naviyat – bu inson qalbi hamda ongidagi tuyg'u va tushunchalar, uning dunyoqarashi va e'tiqodi, xalqi va Vataniga muhabbatidir. Yoshlarimizning qanday buyuk ajdodlar avlodi ekanini chuqur anglagan holda har qanday sharoitda ham otabobolari sha'nu shavkatiga munosib bo'lib yashashi demakdir. Binobarin, yoshlarimiz yuksak ma'naviyatli bo'lishi uchun ularni ezgulik ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Ma'naviyat qirralari ko'p bo'lgani kabi tarbiyaning ham shaklshamoyillari keng. Rang-barang tuyg'u va tushunchalar, har xil jozibador g'oya va mafkuralar olamida voyaga yetayotgan yoshlar turli salbiy ta'sirlar domiga tez tushishi mumkin. Ularning ma'naviyati ham shunga yarasha shakllanadi. Bunday vaziyat farzandlarimiz ma'naviy dunyosini har tomonlama chuqur o'rganish va shu asosda puxta ish olib borishni taqozo etadi.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizning safarbar etayotgan ekanimiz, bu borada ma'naviyat, tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni qat'iyat va mas'uliyatimizni yuqotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatlarimizdan tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibat o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin".

Oila va farzandlar tarbiyasi poklikka va soflikka, muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Farzandlarning dunyoqarashi, e'tiqodi asosan oilada shakllanadi. Zero, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i va qo'rg'oni, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir.

Farzand tarbiyasi o'ta nozik masaladir. Ularni millatimiz qadriyatlaridan kelib chiqib barkamol xislatga ega qilib tarbiyalash lozim. Bag'rikenglik, rahmdillik his-tuyg'ulari bilan kamol topishida inson sabr-toqatli bo'lishi kerak. Aynan bu xislatlar farzandning hayoti ma'nosini belgilaydi, uning e'tiqodi qanday yo'nalishda yuksalishini ko'rsatib turadi.

Odil QO'YSINOV,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
Dilmurod MAMATOV,
Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MEHNAT TA'LIMI FANINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnat ta'limi jarayonining modernizatsiyalashgan mazmuni asosida rivojlantirish istiqbollari, o'ziga xos xususiyatlari, yangilangan ta'lim mazmuni hamda amalga oshirish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Mehnat ta'limi, modernizatsiya, texnologiya, ko'nikma, malaka, jarayon, shakllantirish.

В данной статье рассматриваются перспективы развития трудового обучения на основе модернизации содержания учебного процесса, освещены особенности обновленного содержания и этапы реализации.

Ключевые слова. Трудовое обучение, модернизация, технология, навык, процесс, формирование.

This article discusses the prospects of development of labor on the basis of the content of the educational process of modernization, the original features updated content and implementation stages.

Key words. Employment training, modernization, technology, skill, process, development labor, formation.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim tizimini, jumladan, umumiy o'rta ta'lim mazmunini isloh qilish va rivojlantirishning yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida amalga oshirilmoqda.

Milliy dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash, ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlari yaratildi va amaliyotga joriy etilmoqda.

Bu borada ishlab chiqilgan umumiy o'rta ta'lim davlat standarti mehnat ta'limi jarayonida texnik obyekt va texnologik jarayonlarning mazmunini, ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining zarur va yetarli darajasini, o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Mehnat ta'limi fani boshqa o'quv fanlaridan o'zining qator xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Bunga:

- fanni o'qitishda amaliy mazmun, estetik tarbiya hamda kasb tanlashga yo'llash jarayonining ustuvorligi;
- ishlab chiqarish bilan bevosita uzviy va chambarchas bog'liqligi;
- iqtisodiy tejamkorlik;
- integrativ fan ekanligi, ya'ni uni o'qitishda o'ndan ziyod o'quv fanlari bilan aloqadorligi hamda bir necha mustaqil fanlarni qamrab olganligi;
- o'qitishda o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarining moddiy texnik jihatdan yetarli darajada ta'minlanganlik darajasiga bog'liqligi;
- mehnat ta'limi jarayonida hamda kasb-hunarga yo'naltirishda o'qituvchilar kasbiy mahoratining shakllanishi bilim, ko'nikma va malakalarining o'ziga xosligi;
- o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq kasblar olami bilan tanishtirish hamda yo'naltirish ishlari amalga oshirilishi;
- kasb tanlashga yo'llash ishlarini mehnat ta'limi darslarida 1–9-sinflarida uzviy va izchil ravishda olib borilishi;
- milliy qadriyatlar asosida xalq hunarmandchiligi bo'yicha buyum tayyorlash texnologiyalarining joriy qilinganligi;
- mehnat ta'limi fani o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichi o'rta maxsus, kasb-hunar kollejarida o'qishni samarali tarzda davom ettirishlariga zamin yaratadi.

Umumiy o'rta ta'limda mehnat ta'limi fanidan 1–9-sinflarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va agrar sohalarga oid kasb-hunarlar bilan tanishib, faoliyatini o'rganish bilan birga, ularning ish usullarini o'rganadilar. Bunda o'quvchilar metall, yog'och, metalmas va gazlama buyumlariga ishlov berish usullarini (chizma chizish, loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish, qirg'ish, birlashtirish, yelimplash, pardoqlash, dizaynerlik, bichish-tikish, to'qish va boshqalar) bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlanayotgan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga, ya'ni yangi texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika, elektronika, avtomatlashtirilgan sanoat ishlab chiqarish sohaslarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishmoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnik salohiyati muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich texnik ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat ta'limi darslarida shakllantiriladi.

Mehnat ta'limi darslari 5–9-sinflarda uchta "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" hamda "Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladi.

Ushbu har bir mehnat ta'limi yo'nalishlarida materialshunoslik, ishlov berish asbob-uskunolari va jihozlari, mashina va mexanizmlari, buyum tayyorlash texnologiyalari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ishlab chiqarish asoslari, ro'zg'orshunoslik asoslari, kasb tanlashga yo'naltirish bilan yakunlanadi.

Texnologiya va dizayn yo'nalishi. Bu yo'nalish bo'yicha tashkil qilingan ta'lim jarayonida o'quvchilar turli materiallar (yog'och, metall, plastmassa va boshqalar)ning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar: ularni rejalash, arralash, teshish, pardoqlash ishlari va ularda ishlatiladigan asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinashunoslik elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, elektronika, avtomatlashtirish, texnologik xaritalar, ularni tuzish, elektrotexnika ishlari, uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash, mehnat qonunchiligi va xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'ladilar.

Metall va metallmas buyumlar bilan ishlashni o'rganish jarayonida o'quvchilar turli asboblardan foydalanish, amaliy ko'nikmalarni, texnologik xaritalar bilan ishlash, ro'zg'orbop va xaridorgir buyumlarni ishlab chiqarishni o'rganish bo'yicha asosiy tushuncha, texnikaviy andozalar (shablonlar) hamda boshqa turdagi ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Servis xizmati yo'nalishi. Ushbu yo'nalish bo'yicha quyidagilarga ega bo'lish talab etiladi:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish oshpazchilik va qandolatchilik asoslari, oziq-ovqat mahsulotlarining inson hayotidagi roli, xususiyatlari, to'yimliliigi, turlari, ovqatlanish me'yorlari va tartibi, taomlar turlari, milliy taomlar, oshxonalarining jihozlanishi, oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena talablari hamda mehnat xavfsizligi qoidalari;

- tikuvchilik asoslari, gazlamalarga ishlov berish, kiyimlar turlari va ahamiyati, bichish-tikish, to'qish, buyumlarni ta'mirlash, dizaynerlik ishlari, tikuv mashinalari, yigiruv-tikuv mashinalarining turlari, umumiy tuzilishi va ishlashi;

- uy-ro'zg'or yuritish asoslari, uy-ro'zg'or jihozlari kabi qismlardan iborat bo'lib, quyidagi nazariy bilimlarni o'rgatishni nazarda tutadi: oziq-ovqat va yengil sanoat sohasida keng tarqalgan kasblar, ularning tavsiflari, oila jamg'armasi hamda ularni sarflash, qizlar bolalar gigiyenasi. O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarni egallaydilar: oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash hamda ularga dastlabki va asosiy ishlov berish, turli uy-ro'zg'or asboblari ishlatish, turli taomlar tayyorlash, zamonaviy maishiy uy-ro'zg'or texnika vositalarini ishlatish, kiyimlarni bichish, tikish, tuzatish, ta'mirlash.

- qishki mavsumga tuzlamalar tayyorlash. Interner dizayni, uy-ro'zg'or asboblari (lampochka, rozetka) tuzatish ishlarini issiqlik, elektr, suv ta'minoti va oqava suv quvurlari sistemasidan to'g'ri foydalanish qoidalari, zamonaviy kran, ventil va suv oqizish.

Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ahamiyati, o'ziga xos xususiyati va sohalar, dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari, qishloq xo'jalikda tadbirkorlik, madaniy ekinlarning kelib chiqishi, tarqalishi, o'sishi va rivojlanishi, tuproqning tuzilishi, unumdorligi, yerga ishlov berish va unda qo'llanadigan mashina va qurollar, moslamalar va ularning umumiy tuzilishi, texnologik ishlash jarayonlari va ularga qo'yiladigan agrotexnik talablardan iboratdir.

Mehnat ta'limi jarayonini tashkil etishda shuningdek, quyidagi sohalar bo'yicha ham bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishi taqazo etiladi.

Xalq hunarmandchiligi asoslari. O'quvchilarga yo'nalishlar bo'yicha xalq hunarmandchilik texnologiyalari, hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari, hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari, hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullari hamda xalq mahsulotlarni tayyorlash ish usullariga oid bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Elektrotexnika ishlari. O'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rini tashkil qilish, elektr o'tkazish simlarining turlari, elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlari, elektr asboblari, maishiy elektr asboblari elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'ligiga ta'siri, elektr energiyasini tejimli ishlatish usullari, kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rini tashkil qilish, kavshar, flyuslar turlari, kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari, elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash, elektrotexnik hamda elektron uskunalarini ishlab chiqarish,

ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash hamda shu sohaga oid kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Elektronika asoslari. Elektronika elementlari. Rezistor va kondensatorlarning turlari, tuzilishi va ishlash prinsipi, resistor va kondensatorlarni ketma-ket, parallel va aralash ulash, AVO metr yordamida umumiy sig'im va qarshilikni o'lchash. Yarim o'tkazgichli qurilmalar (diod, tranzistor, tiristor, fotodiod, svetodiod).

– yarim o'tkazgichli diod va uning qo'llanilishi. O'zgaruvchan tok to'g'rilagichini hamda harakatlanuvchi qurilmalar tayyorlash. Avtomatik asosiy tushuncha va atamalar. Avtomatik qurilmalarning asosiy elementlari. Sodda avtomatik qurilmalarni tayyorlashni o'rganishdan.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'limi. O'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari hamda kichik ta'mirlash, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari, xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari, yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri va jihozlanish dizayni, shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi, issiqlik ta'minoti tizimi hamda undan foydalanish qoidalari, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari, ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari, suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish, qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Ishlab chiqarish asoslari. O'quvchilar mamalakatimizdagi ishlab chiqarish turlari va tarkibi, ularning bir-biriga bog'liqligi, ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyalari, zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari, tabiatni muhofaza qilish, sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash.

Kasb-hunarga yo'naltirish asoslari. Kasblarni tanlash maqsadi, shart-sharoitlari, kasblar tasniflagichi. Kasb tanlash formulasi, kasbiy tavsifnoma, tiplari va bo'limlari xaqida ma'lumot. Kasbiy mahorat asoslari, kasb-hunarga yo'naltirishda qiziqish, moyillik, qobiliyat, kasbiy yaroqlilikning ahamiyati bilan bosqichma-bosqich tanishtirib borish.

O'quvchilarning hududiy, geografik, mahalliy sharoitlaridan kelib chiqib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'zlari qiziqqan sohalar yo'nalishini ixtiyoriy tanlashlariga yordam berib hamda, sog'ligini tanlagan kasbga mos kelish-kelmasligini hisobga olish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini o'qitishni tashkil qilishda zamonaviy talablardan kelib chiqib, ta'lim standartini ishlab chiqish, o'quv reja va dasturlarini, zarur darsliklarni yaratish, tarqatma va ko'rgazmali materiallar tuzish, texnologiyaning ilmiy-uslubiy asosini yaratish jarayoni, avvalo, yagona tizimga va tartibga solinishi, boshqarilishi hamda eng muhimi, o'quv-tarbiya tizimini mazmunan va shaklan takomillashtirilishi shu sohada keng ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish ishlarini jadallashtirishi ilmiy-metodik ta'minotning asosini tashkil etadi. Ilmiy-metodik ta'minot maktab uslubiy kengashlari, tuman, viloyat xalq ta'limi bo'limlari, tegishli vazirliklardagi ilmiy-uslubiy kengashlar faoliyatlari, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi oliy ta'lim muassasalari kafedralarida olib borilayotgan mazkur yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar, tadqiqot-tajriba ishlari bilan uyg'unlashtirilishi va muvofiqlashtirilishi lozim.

Ushbu fanni amalga oshirishning o'ziga xos asosiy shartlaridan biri – uning barcha bo'g'inlaridagi o'quv jarayonini moddiy-texnikaviy, uslubiy-didaktik jihatdan hozirgi zamon talablari asosida majmuaviy ta'minlanishidadir.

Mehnat ta'limi fanining moddiy-texnik ta'minoti: dastgohlar, maxsus binolar, yo'riqnomalar, huquqiy va ma'muriy hujjatlar majmualari, texnologik va xavfsizlik xaritalari, turli materiallar, asbob-uskunalar, moslamalar, energiya manbalari, ehtiyot qismlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu ta'minotni amalga oshirishda davlat tashkilotlari, xususiy, kichik, qo'shma korxonalar va mehnat jamoalari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik yordami jalb qilinsa maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ta'limi fanining istiqbol taraqqiyoti yangi pedagogik texnologiyalar va didaktik asoslarini yaratilishi hamda bevosita uzluksiz ta'lim amaliyotiga qo'llanishi bilan belgilanadi.

Yangi didaktik (o'qish va o'qitish) tizimlari mehnat ta'limida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ta'lim-tarbiyadagi pedagogik texnologiyalar, qo'llaniladigan mehnat vositalari, qurollari, qurilma va moslamalar, o'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini qo'llash;

- xorijiy rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari tajribalaridan respublikamiz xususiyatiga mos keladiganlarini takomillashtirib, qayta ishlab, ta'lim jarayonida qo'llash;

- davlat va xususiy ta'lim muassasalaridagi umumiy va kasb-hunar ta'limi tizimlaridan namunalar tanlab olinadi, o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini belgilashda test, reyting kabi baholash usullaridan foydalanish;

- o'quvchilarning ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kamol topishiga, jamiyatda ishlab chiqarish jarayonida avtomatika, elektronika, sohalarining rivojlanishiga, zamonaviy mutaxassislar guruhi shakllanishiga zamin yaratadi.

Mehnat ta'limi fanidagi yangi mazmun va modernizatsiyalashni amalga oshirishida, turli o'quv-tarbiyaviy, ishlab chiqarish tadbirlarini amalga oshirilishida vazirlik, maktab, oila, jamoatchilik xususiy va davlat tasarrufidagi muassasalar, firmalar, konsernlar, birlashmalar faol ishtirok etadilar.

Xulosa qilib aytganda mehnat ta'limi fanida innovatsion didaktik tizimlar o'qitilayotgan fanlarning mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini dasturli ta'lim asosida yangilanishi amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi darslarini modernizatsiyalashgan mazmun asosida ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini samararli qo'llash orqali tashkil etish o'quvchilarning umummehnat bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., SH.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov. *Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash*. –T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2014.

2. Tolipov O', Razzoqov D., Bobojonova Q. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limidan Davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish. Metodik qo'llanma. O'zPFITi ofset laboratoriyasi*. –T., 2000.

3. Sharipov Sh.S., Abzalova M. *Mehnat ta'limi ustaxonalari uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq ko'rgazmali qurollar ro'yhati*. –T.: RTM. 2002.

4. Sharipov Sh.S., Tolipov O'. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz mehnat ta'limi konsepsiyasi* 2005.

Nargiz NISHONOVA,

Abu Rahyon Beruniy nomidagi TDTU dotsenti,

Zulfizar YULCHIYEVA,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi TDTU katta o'qituvchisi

UZLUKSIZ TA'LIMDA INSONPARVARLIK YONDOSHUVINING ILMIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'limning yangi paradigmasi, ta'lim oluvchining shaxsini oliy qadriyat sifatida ilgari surib, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim-tarbiyaga insonparvarlik g'oyasi asosida qaralgan. Shuningdek, muallif ta'limga oid davlat hujjatlari va insonparvarlik pedagogikasining muhim xususiyatlarini yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Insonparvarlik pedagogikasi, shaxs, ta'limning milliy modeli, paradigma, konsepsiya.

Новая парадигма образования, обозначившая личность обучаемого как высшую ценность, опирается на идею гуманизации обучения и воспитания на всех этапах непрерывного образования. Авторами статьи предпринята попытка осветить основные особенности гуманитарной педагогики, основываясь на важных государственных документах по гуманизации образования в Республике Узбекистан.

Ключевые слова. Гуманитарная педагогика, личность, национальная модель образования, парадигма, концепция.

The new paradigm of education, which marked the identity of the student as the highest value, based on the idea of humanization of education and training at all stages of lifelong learning. The author of the article attempts to highlight the main features of the humanitarian pedagogy, based on important government documents on humanization of education in the Republic of Uzbekistan.

Key words. Humanitarian pedagogy, personality, the national education model, the paradigm, the concept.

Turli xil ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalashning hozirgi zamon jarayonlari har bir mamlakat milliy-madaniy xususiyatlarini jahon pedagogik tajribasining yetakchi tendensiyalari bilan qanday uyg'unlashtirilganligiga bog'liq.

Respublikamiz mustahkam ma'naviy-axloqiy va insonparvarlik asosida demokratik hamda iqtisodiy islohotlar o'tkazish yo'lidan bormoqda. Bu borada Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yaratilayotgan yangi jamiyat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi ularning rivojlanishiga katta e'tibor beradi. Bu jarayon milliy mustaqillik mafkurasiga asoslanadi.

XX asrning 80-yillarida g'arb pedagogikasida an'anaviy pedagogika bilan bir qatorda ta'limga insonparvarlik yondashuvi g'oyasi paydo bo'ldi. Agar an'anaviy peda-

gogika o'quvchiga moslashishni talab qilgan bo'lsa, insonparvarlik pedagogikasi esa uni (o'quvchini) maktab munosabatlari markaziga qo'yish hamda har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi. G'arbning bu boradagi ilg'or tizimi o'z ta'limini allaqachonlar insonparvarlik yo'nalishida rivojlantirmoqda.

Ta'limga insonparvarlik yondashuvi pedagogikada innovatsion yo'nalishga tayanadi. U pedagogik tizimni tashqaridan o'zgartirishni talab etmaydi. Bunda o'quv-tarbiya ta'sirining samarasiga sohani qayta qurish orqali erishiladi. Mazkur pedagogikaning mohiyati ham shunda.

Insonparvarlik (lotincha *humanus* – insoniylik) konsepsiyasining asosiy qoidasi dunyoda eng oliy qadriyat sifatida inson sha'nini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, o'z qobiliyatini rivojlantirish va namoyon etish, buning uchun qulay shart-sharoit (turmush, mehnat, o'qish va shu kabi) yaratishga bo'lgan haq-huquqlarini e'tirof etishdan iborat.

Insonparvarlik insonning, xususan, yaxlit va alohida shaxs sifatida mavjudligining universal ahamiyatini qaror toptiruvchi g'oyalar haqida qadriyatlar majmuidir. Insonparvarlik muhim qadriyat va ko'rsatma tizimi sifatida ijtimoiy ideal ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi.

Insonparvarlik pedagogikasi – tarbiyalanuvchini o'z imkoniyatlariga ko'ra rivojlanayotgan o'quv-tarbiya jarayonining faol, ongli, teng huquqli ishtirokchisi sifatida qaror toptiruvchi ilmiy-nazariy tizimdir.

Insoniy oliy qadriyat, deb bilgan O'zbekistonda insonparvarlik g'oyalarini ta'lim sohasiga kirib kelishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilingan va hayotga keng tatbiq etilgani buning yorqin dalilidir.

Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda – o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchli ekanini ta'kidlagan, demokratik jamiyatda tarbiyaning asosiy vazifasi va maqsadi erkin fikrlovchi shaxsni har tomonlama shakllantirishdan iboratdir, deb uqtirgan edi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'z ichiga jahonning ta'lim sohasidagi yutuqlarini qamrab olgan hamda o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda respublikamizning rivojlanish xususiyatlari, o'zbek xalqining mentaliteti, ajdodlarimizning ko'p asrlik tajribasiga asoslangan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibi quyidagilardan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan hamda ishlab chiqarish. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining asosiy subyekti va obyekti, ta'lim xizmatining iste'molchisi va ishlab chiqaruvchisidir.

Shaxs kadrlar tayyorlash milliy modelining tizim hosil qiluvchi tarkibi hisoblanadi. Davlatning kadrlar tayyorlash sohasidagi siyosati insonning intellektual, insonparvarlik ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan mustahkam bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan ijtimoiy faol shaxs – fuqaroni qaror toptirishni nazarda tutadi.

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan tarbiyaning pirovard maqsadi shundan iboratki, har bir tarbiyalanuvchi unga tabiatan berilgan iste'dod va qobiliyatni o'zi ro'yobga chiqara oladigan erkin faoliyatli shaxs, bo'lmog'i lozim. Hozirgi zamon G'arb pedagogikasida kimyoviy yo'nalish – insonparvarlik tarbiya vakili, Kolumb universitetning professori M.Grin quyidagi tavsiyalarni beradi: “Pedagoglar o'z tarbiyalanuvchilarini atrof-olam ko'zlari bilan ko'rmog'i, ular istiqbolini, ularning nuqtayi nazarini idrok etmog'i lozim. Bu

insonparvarlik maktabining asosiy maqsadi – shaxsning o‘z-o‘zini kashf etishiga erishish uchun yordam beradi”.

Insonparvarlik pedagogikasi shaxsga yo‘naltirilgan. Uning farqli belgilari: axborot hajmlariga ega bo‘lish bilan birga shaxsning psixik, jismoniy, intellektual, axloqiy sifatlarini rivojlantirishga e‘tiborni yo‘naltirish; kuchni erkin, mustaqil fikrlovchi, faol harakat qiluvchi shaxsni, xilma-xil o‘quv va hayotiy vaziyatlarda asosli tanlovlar qila bilishga qodir bo‘lgan insonparvar fuqaroni shakllantirishga qaratishdan iborat.

O‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni avtoritar pedagogikaga qarama-qarshi o‘laroq, ta‘lim oluvchi shaxsiga o‘tkaziladigan bosimni mutlaq rad etish, o‘quvchilarning shaxsiy erkinligi va faoliyatiga to‘liq e‘tibor qaratadigan insonparvarlik pedagogikasiga o‘tish deb bilmoq lozim.

Prezidentimiz inson o‘z imkoniyatlarini erkin tarzda o‘zi ro‘yobga chiqarishi zarurligini ham ko‘rsatib o‘tgan edi. Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy asoslariga to‘xtalar ekan, O‘zbekiston yangilash va rivojlantirishning to‘rtta asosiy negizga tayanishini ta‘kidlagan edi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga tayanish;
- xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- inson tomonidan o‘z imkoniyatlarini erkin ravishda ro‘yobga chiqarish;
- vatanparvarlik.

Shaxsning insonparvarlik tarbiyasi to‘g‘risidagi hozirgi zamon ilmiy tasavvurlari qator pedagogik g‘oyalarning uzoq muddatli kurashi natijasida vujudga kelgan.

Insonparvarlik tarbiyasi jahon nazariyasi va amaliyotida asrlar osha har tomonlama rivojlangan inson ideali umummaqsad bo‘lgan, hamon shunday bo‘lib qolmoqda. Ushbu nazariyaning yorqin vakillaridan biri Sharqning qomusiy olimi Abu Nasr Forobiy edi. Forobiy pedagogikani mustaqil fan deb ajratmaydi, uni axloq bilan birga siyosiy (fuqarolik) fani tarkibiga kiritadi. U o‘z asarlarida ta‘lim, tarbiya, rag‘bat, tanbeh, ishontirish, majburlash, baxt, bilim, malaka va ko‘nikma kabi pedagogik tushunchalarga ta‘rif beradi. Forobiya ko‘ra, o‘qitish bu nafaqat intellektual rivojlanish, balki umumiy ma‘naviy rivojlanish, jumladan, axloqiy rivojlanish uchun ham asosdir. O‘qishga alohida shaxslar ham va shaharlar aholisi hamda katta xalqlar qamrab olinishi mumkin. Masalan, shahar aholisi va xalqlarni o‘qitish bilan davlat boshlig‘i, uning yaqinlari, ya‘ni davlat arboblari shug‘ullanmog‘i lozim. Forobiyning pedagogik g‘oyalari yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan hokim (boshliq) rahbarligida ideal jamiyat qurish konsepsiyasidan kelib chiqadi.

Olim o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida yaxshi insonlar uchun mardlik, donolik, odillik, mehnatsevarlik, andishalik, do‘stparvarlik kabi qator fazilatlar zarurligini ta‘kidlaydi. Shahar aholisi yoxud jamiyatning umumiy baxtga erishuvi, Forobiyning fikriga ko‘ra, jamiyat ma‘naviyati va baxtining paydo bo‘lishiga hamda yuksalishiga olib keladi. Ta‘lim va tarbiya o‘zaro bog‘langan bo‘lib, u shaxsni turli yo‘llar bilan ma‘naviy kamolotga olib keladi. Olim mehnat faoliyati yaxshi fazilatlarni tarbiyalashning muhim vositasi ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

Forobiy insonlarning baxtli, saodatli bo‘lishi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa va har tomonlama kamolga yetgan rahbari bo‘lishi kerak, deydi. U fozil shaharni boshqaradigan hokim tabiatan sog‘lom bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi, nozik, farosatli, xotirasi mustahkam, zehni o‘tkir, o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq, bilim-ma‘rifatga havasli, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, o‘yinlardan zavq va huzur olishdan uzoq bo‘lishi, haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan yolg‘on va yolg‘onchilikni yomon ko‘radigan, mol-dunyo ketidan quvmaydigan, adolatparvar, qat‘iyatli, jur‘atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi.

Shaxsning yuqorida ta’kidlab o’tilgan fazilatlaridan ko’rinadiki, mavjud jamiyatning boshlig’i yuksak axloqiy, intellektual sifatlar va jismoniy qobiliyatlarga ega bo’lgan, ruhan va jismonan yetuk bo’lishi lozim. Forobiy o’zining pedagogik g’oyalarida komil inson tarbiyasiga qaratilgan ilk o’rta asr Sharqining eng yaxshi harakatlarini umumlashtirdi. Bu g’oyalar Forobiy zamoni uchun utopik tarzdaligiga qaramay, ular ilg’or g’oyalar bo’lib nafaqat Sharq (Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd) balki Yevropada (Rodjera Bekon, David Dinant, Spinoza va boshqalar) pedagogik fikrlar taraqqiyotiga samarali ta’sir etdi. Uning rahbarning axloqiy sifatlariga doir g’oyalari bugungi kunda ham muhim dolzarbdir.

O’zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli kitobida shaxsni har tomonlama kamol toptirish masalalariga katta e’tibor qaratadi. Avloniy insonlarni axloqiy fazilatlariga ko’ra ikki toifaga ajratadi: yaxshi va yomon xulqli insonlar. “Axloq haqidagi fan – bu insonlarni ikki guruhga ajratadi” deydi. Tarbiya haqida gapirar ekan olim: “Pedagogika bola tarbiyasi to’g’risidagi fandir” deydi.

Tarbiyaning asosiy vazifasini belgilab berar ekan, aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiyaning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi hamda o’qituvchining bu boradagi muhim vazifasini ko’rsatib beradi. Uning fikriga ko’ra, ta’lim va tarbiya ajralmas hamda o’zaro mustahkam bog’langan. Shaxsning turli fazilatlariga e’tibor qaratib, Avloniy qadimgi mutafakkirlar – Suqrot va Aflotunlarning fikrlariga tayanadi. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini pedagogika bo’yicha o’zbek tilida yozilgan birinchi darslik deyish mumkin. Undagi bola tarbiyasiga oid bayon etilgan fikrlar hozirgi zamon maktablari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Mustaqillikka erishilgandan keyin ta’limning an’anaviy paradigmalarini (pedagogik paradigma (grekcha, paradeigma – misol namuna) – ilmiy pedagogik jamiyat tomonidan pedagogik rivojlanishining har bir bosqichida qabul qilingan nazariy, metodologik yig’indilar. Undan pedagogik muammolarni yechishda model sifatida qo’llanilgan) bilish bilan bir qatorda ta’lim makoniga insonparvarlik paradigma kirib keldi. Mazkur paradigmanning negizi o’quvchiga insonparvarlik yondashuv, uni hayotga tayyorlash, jamiyatga ko’niktirish hisoblanadi. Paradigma markazida o’quvchining intellektual ehtiyoji “Erkin fikrlovchi shaxs”ni har tomonlama rivojlantirish turadi. Shaxsni insonparvarlik ta’limga yo’naltiruvchi paradigmanning isboti – bu umumta’lim maktablarining o’quv rejasiga insonparvarlik yo’nalishga ega bo’lgan: “Vatan tuyg’usi” (5 – 6-sinf); “Milliy istiqloq g’oyasi va ma’naviyat asoslari” (7-9-sinf); “Sog’lom avlod asoslari” (1– 9-sinf) kabi fanlarning kiritilishidir.

Masalan, 7-sinfda “Milliy istiqloq g’oyasi va ma’naviyat asoslari” fanini o’rganishda: “Ma’naviyat, bilimlilik (eruditsiya) mezonlari”, “Huquqiy madaniyat”, “Ekologik madaniyat”, “Hayotda san’at”, “Insoniy fazilatlar: insonparvarlik”, insoniylik, do’stega muhabbat, o’zgalarga yordam, “Sog’lom turmush tarzi” mavzulari, 9-sinfda esa “Komil inson g’oyasi”, “Muloqot madaniyati”, “Mehnat madaniyati” mavzularini o’rganilishi shaxsning rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu mavzularning o’rganilishi shaxsning har tomonlama kamol topishiga o’z hissasini qo’shadi, O’zbekistonning yangi mentalitetini shakllantiradi.

Mamlakat insonparvarlik istiqboli shaxsning jo’shqin, omilkor, intellektual rivojlangan, balki, madaniyatli, o’qimishli, bilimli, keng fikrlovchi, kasbiy layoqatli fazilatlar egasi bo’lishini ham ta’minlaydi. Yangi mentalitetni shakllantirish shaxsdan o’zini chuqur anglashni, o’z-o’ziga egalik qila bilish, o’z imkoniyatlari baralla ishga sola bilishni talab qiladi. Shuning uchun ham shaxsning yuqoridagi parametrlari insonparvarlik ta’limning istiqbolli yo’li bo’lib qolaveradi.

“Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari”ni mavzusi o‘rganilganda o‘qituvchilar quyidagi tarkibiy tushunchalarni yoritib beradi: Vatanning gullab-yashnashi mamlakatda tinchlik va osoyishtalik ijtimoiy birdamlik millatlararo totuvlik diniy bag‘rikenglik.

“Munosib shaxs” tezisini tavsiflaganda milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirishning asosiy vazifalaridan biri ma’naviy boy va axloqiy yetuk, har tomonlama rivojlangan, mustaqil dunyoqarash va mustaqil fikrlashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayangan shaxsni shakllantirish fikrga urg‘u beriladi. Har tomonlama rivojlangan shaxs tavsiflaganda biz doimiy ravishda “Shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish” tushunchasiga e’tibor qaratamiz. Insonparvarlik tarbiyaning maqsadi shaxsning o‘zida va jamiyatdagi uyg‘unligida o‘z-o‘zini rivojlantirishi va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish xususiyatlari ham shundan iboratdir.

Demak, insonparvarlik tarbiyaning bunday maqsadi quyidagi vazifalarni qo‘yish imkonini beradi:

- shaxsni hayotning mohiyatini, o‘zining dunyodagi o‘rni, noyoblighi bilishga yo‘naltirish;

- jismoniy, ma’naviy zehni va qobiliyati, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha shaxsiy rejalarini tuzishga yordam ko‘rsatish;

- shaxsning umuminsoniy boyliklar hamda milliy madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularga o‘z munosabatini tarkib toptirish;

- insonparvarlik axloqning umuminsoniy me‘yorlarini, ularning aniq mazmunini (yaxshilik, bir-birini tushunish, mehribonlik, hamdardlik va boshq.) ochib berishning ahamiyatli fazilati sifatida bilimlilikni tarbiyalash;

- shaxsning intellektual-axloqiy erkinligini rivojlantirish;

- umuminsoniy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tuyg‘usini vujudga keltirish;

- mamlakat qonunlariga va shaxsning fuqoralik huquqlarini hurmat qilishni, Vatan, sha‘ni va boyliklarini asrash hamda ko‘paytirishga bo‘lgan intilishini tarbiyalash;

- sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi ko‘rsatma va tasavvurlarni rivojlantirish;

- aytilgan vazifalarni hal etish shaxsning insonparvarlik madaniyatini shakllantirish uchun poydevor yaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta’limning barcha ishtirokchilari:

- o‘quvchilar, pedagoglar, ota-onalar, boshqarmalar va ta’lim faollarining iste’molchisi sifatida yaxlit jamiyat madaniy-tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o‘quv tarbiya jarayonida yanada faolroq bo‘lishi zarur. Vatanimizda ta’limni to‘la ma’noda insonparvarlashtirish mohiyatiga ko‘ra kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish paytidan boshlangan edi.

Ta’limni insonparvarlashtirishning dastlabki maqsadi yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Bu esa, kelajakda turli sohalarda insonparvarlik g‘oyalari va qadriyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi.* – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. 1997.

2. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.* – T.: “Ma’naviyat”, 2008.

3. Abu Nasr Farobiy. *Fozil odamlar shahri.* – T.: Xalq merosi. 1993.

4. Abdulla Avloniy. *Turkiy Guliston yoxud axloq.* – T.: “O‘qituvchi”, 1992.

Laziz HOSHIMOV,
“Barkamol avlod” Respublika bolalar
badiiy ijodiyot markazi guruh rahbari

“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MARKAZLARIDA TA'LIM VA TARBIYA UYG'UNLIGI

Annotatsiya

Maqolada muallif bolalar va yoshlarning texnik va aniq fanlarni, tabiatshunoslik va o'lkashunoslik asoslarini qo'shimcha ravishda o'rganishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yoshlar o'rtasida madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish hamda ushbu vazifalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim va tarbiya, qadriyat, uzluksiz ta'lim, mafkuraviy jamiyat, uslub, predmet, daraja, intellektual.

В статье автором представлены рекомендации по созданию необходимых условий для дополнительного изучения детьми и молодежью основ технических и точных наук, природоведения и краеведения, а также по проведению культурно – массовых мероприятий.

Ключевые слова. Обучение и воспитание, ценности, непрерывное образование, идеологическое общество, метод, предмет, уровень, интеллектуальный.

The article presents recommendations for the creation of necessary conditions for further study children and youth the basics of technical and exact Sciences, natural Sciences and local history, and also for holding cultural events.

Key words. Training and education, values, continuing education, ideological society, method, subject, level, intellectual.

Farzand – oila quvonchi, jamiyat tayanchi. Uning sog'lom, ilmiy va irodali bo'lib ulg'ayishi nafaqat ota-ona, balki davlatimiz siyosatining ezgu maqsadlaridan biridir. Shu bois, mamlakatimizda istiqlolni ilk kunlaridanoq navqiron avlodga yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda.

Mamlakatimiz yoshlari bugun hayotimizning turli jabhalarida shijoat bilan faoliyat yuritishmoqdalar. Ular bugun talaba va o'quvchi, ishchi va shifokor, pedagog va injener va tadbirkordir. Yoshlarimiz kompyuter, internet texnikasi, bir nechta chet tillarini mukammal egallab, rivojlangan davlatlarda tahsil olib, jahon maydoniga chiqmoqdalar.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni munosib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Bu esa, o'z o'rnida, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, yosh avlodning istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalanib, ulug' ajdodlarimizga munosib tarzda voyaga yetishlari,

eng avvalo, o'qituvchi berayotgan saboq, uning izlanish va intilishiga ham bevosita bog'liq. Jonkuyar, bilimdon, yuksak aql-zakovatli mutaxassislar esa soha rivojiga ulkan hissa qo'shishlari bejiz emas.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy qilinishi natijasida mustaqil fikrlovchi, o'z aqli, tafakkuri va salohiyatini to'la namoyon eta oluvchi, ma'suliyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, ozod va hur fikrli inson – Barkamol shaxsni tarbiyalash umummilliy maqsadga aylandi.

Bunda har bir boladagi intellektual salohiyatni, ichki quvvat va iste'dodni yuzaga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa, farzandlarimizni go'daklik davridan to voyaga yetguncha, aniq maqsadli dastur asosida jismonan, aqlan va ma'nan yuksaltirishga mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umum-milliy dasturi"ning hayotga tatbiq etilishi ta'lim sifati va mazmun-mohiyatini tubdan yaxshilash imkonini berdi. Mazkur qonun va dasturlarning asosiy vazifasi – uzluksiz ta'lim tizimi orqali insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mohiyatini yangilash bilan bog'liq vazifalarni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarurligi belgilab qo'yilgan:

- shaxsga ta'lim berish va uni kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;
- milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, shu jumladan, ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlari, bolalar sayyohligi, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, uning milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

Bugungi kunda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga, Respublikaning har bir tumani va shahrida ishlab turgan maktabdan tashqari muassasalari zamonaviy va zarur uskunalar bilan jihozlangan "Barkamol avlod" markazlari tashkil etilishiga, maktabdan tashqari texnik va gumanitar ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, muassasalarning zamonaviy moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va shakllantirish, bolalar va yoshlarning texnik va aniq fanlarni, tabiatshunoslik va o'lkashunoslik asoslarini qo'shimcha ravishda o'rganishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, bolalar va yoshlarning madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazishi va dam olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, badiiy havaskorlikni rivojlantirish, yuqori professional pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan to'ldirish kabi ulkan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy vazifalaridan biri ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini mustahkamlash, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish hisobiga mamlakatimiz

ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, o'qitishning zamonaviy vositalaridan foydalangan holda o'quv-ta'lim jarayonini yaxshilashdan iboratdir.

Bugun ilm fan, san'at, sport sohalarida dunyo bo'ylayotgan o'zbek farzandlari yurtimiz sha'nini yanada yuksaklarga ko'tarmoqda. Shu ma'noda yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini qurish va jihozlash, ularni yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash bo'yicha samarali ishlar ham amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz mustaqillika erishgan qisqa vaqt davomida mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar, xususan ta'lim tizimida olib borilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, hamda yurtimiz qiyofasi tubdan o'zgarib, shahar va qishloqlarimiz yanada obod bo'lib borayotganligi mustaqillik sharofati tufayli erishilganligini yorqin misollar orqali o'quvchi-yoshlarga yetkazish zarur.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlikdan, chetdan kirib keladigan turli ekstremistik g'oyalar hamda past saviyali “ommaviy madaniyat” illatlarining zararli ta'sirlari, tahdididan muhofaza qilish bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, har bir to'garak mashg'ulotlarida yoshlar ongiga yuqorida bayon etilgan fikrlarni aniq misollar orqali singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Hozirda bundan ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan, zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. 1991-yil 20-noyabrda mamlakatimizda “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun davlatimizning yoshlarga bo'lgan oliy g'amxo'rligi va e'tiborining yuksak ramzi bo'ldi.

Shubhasiz, u ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mehr-oqibat g'oyalariga tayanish barobarida yoshlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi asosiy tamoyillarni mustahkamlaydi.

Yoshlar ma'naviyatida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, eng avvalo, ular ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oqni qoradan, yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, do'stni dushmanidan ajratishni farqlay olishni, zararli buzg'unchi va axloqsizlikka asoslangan g'oyalarga qarshi xushyor va ogoh bo'lishga o'rgatmog'imiz lozim. Yoshlarning bilimiga, onglilik darajasiga, saviyasiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg'usining qanchalik darajada shakllanishiga, komillik darajasiga bog'liq.

Barkamol avlodni zamonaviy ruhda tarbiyalash texnologiyasi har tamonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi talablarga rioya qiladi:

- tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi yoshlar barcha vosita tadbirlarning muvofiqlashtirilishiga erishadi;

- tarbiyalanuvchilarga o'z yo'nalishi bo'yicha ta'sir etiladi (tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga);

- milliy g'oya yoshlar ma'naviyatining yuksalib borishida muhim omil bo'ladi. Tarbiya va uning uzviyligi tufayli ijobiy natijalarga erishiladi;

– yoshlar ma'naviyatining yuksalib borishini juda ko'p qirralari, jihatlari bo'lib, bular: g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy va axloqiy kabilardir;

– yoshlar chet tillarini o'rganishi, bilim olishida zamonaviy texnologiyalarni egallashda va millat taraqqiyotida o'ta muhim ro'l o'ynaydi.

Tarbiyaga har tamonlama yaxlit yondashuvda yuqoridagi omillar va sharoitlar uzviylashgan holda inobatga olinishi zarur. Shaxsning har tomonlama barkamol voyaga yetishini ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilar qalbiga mehnatsevarlik tuyg'ularini singdirish, shuningdek, ularni bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga yo'naltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-fevraldagi 50-sonli "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan har bir tuman va shaharda bittadan "Barkamol avlod" bolalar markazlari, shuningdek, qaror asosida har bir tuman va shaharda bittadan "Barkamol avlod" bolalar markazi, bittadan viloyat bolalar markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Respublika bolalar markazi va Toshkent shahrida texnik ijodkorlik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya yo'nalishlaridagi uchta "Barkamol avlod" Respublika bolalar markazlari tashkil etildi.

"Barkamol avlod" bolalar markazlari maktabdan tashqari ta'lim muassasasi bo'lib, ularning faoliyati o'quvchilarga qo'shimcha ta'lim berish, ularning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular ongida milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sadoqat, atrof muhitga ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini rivojlantirish, ajdodlarimizning boy tarixi, madaniy meroslari va milliy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish, o'quvchilarda boshlang'ich kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ularga yondashuv an'anaviy tarbiya uslubi hisoblangan ommaviy tadbirlar, masalan, sayohatlar, madaniyat yodgorliklari, muzeylar, teatrlar, ko'rgazmalar, mashhur allomalar bilan uchrashuvlar o'tkazish maqsadlaridan muayyan va aniq maqsadlarni shakllantirishga rivojlantiruvchi maqsadlarga yoshlarda ma'naviy, ma'rifiy, huquqiy, umuminsoniy, qadriyatlarga bo'lgan sadoqatini rivojlantiradi.

Hozirda "Barkamol avlod" bolalar markazlarida qo'shimcha kasb-hunar sirlarini o'rganayotgan o'quvchi-yoshlarning 70-80 foizini badiiy ijodiyot yo'nalishi tashkil etmoqda. Bu esa, o'z navbatida "Barkamol avlod" bolalar markazlarining badiiy ijodiyot yo'nalishidagi ta'lim mazmunini yanada boyitishni va rivojlantirishni talab qilmoqda. Bu borada uslubchilarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Uslubchilar "Barkamol avlod" bolalar markazlarining asosiy o'zagi hisoblanadi. U markaz to'garak rahbarlariga uslubiy yordam ko'rsatib, uslubiy tavsiya va qo'llanmalar ishlab chiqadi. Maktab va mahallalarda o'quvchi-yoshlarni bolalar markazlariga jalb qilishda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib boradi. Uslubchilarga ta'lim berishning zamonaviy usullari va shakllarini o'rgatish, o'z faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo'llashni o'rgatish bugungi kun talabidir.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimini uslubiy qo'llanma bilan taminlashga talab katta, chunki, uslubiy qurollanganlik ish samaradorligini oshiruvchi omil hamda uning sifati va natijasini yaxshilash vositasidir. Bunda birinchi o'ringa maktabdan tashqari

ta'lim muassasalaridagi umumiy pedagogik jarayonni dasturiy ta'minlash vazifasi kiritiladi.

Bu turli mualliflik loyihalarida, ta'lim uyushmalarida o'z natijasini ko'rsatadi. Uslubiy so'zini keng ma'noda maktabdan tashqari ta'lim tizimini me'yoriy, va shu bilan birga hududiy ta'minot bilan ta'minlanganlik deb qaralsa bo'ladi. Hududiy ko'lam, bu avvalo, belgilangan vazifalarni o'zida aks ettirgan hujjat bo'lib, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va ularning xodimlarini ish faoliyati jihatlarining tarkibiy va tashkiliy hujjatidir. Maktabdan tashqari ta'lim tizimining yetakchiligidan va belgilangan ishlarni o'zlashtirish davrida me'yoriy bazaning roli muhim hisoblanadi. U nafaqat belgilovchi, balki tartiblovchi, ya'ni ta'limni bir butun tarmoqqa aylantiruvchi kuchdir.

Shuni ta'kidlash joizki, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining pedagogik tizimi va faoliyatining ish jarayoni sifatli rivoji va taraqqiy etishida ilmiy-uslubiy jarayonni muhim deb hisoblash lozim.

Uslubchiga qo'yiladigan talablardan eng muhimi, bu uslubiy ta'minotni professional darajada bajarilishidir.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uslubchilari uchun professional tayyorgarlik tizimini yaratish zarurati tug'iladi. U avvalo, professional uslubchi ishlaydigan tashkiliy va hududiy xususiyatni hisobga olgan holda turli shakl va o'zgaruvchanlikka moyil bo'lgan uzluksiz ishlovchi tizim bilan ishlashi zarur.

Uslubiy ta'minot – bu uslubchining pedagogik kadrlar bilan o'zaro munosabatida ko'rinadi. Uslubiy ta'minlash (dasturlar, uslubiy ishlanmalar, didaktik yordam), tarkibiy qismlar ya'ni: uslubchi va pedagogoglarning (jamoas) hamkorlikdagi unumli ishi hisoblanadi. Samarali model, bu uslubiy texnologiyani sinovdan o'tkazish va amaliyotda qo'llash, kadrlarni o'qitish, ma'rifatlashtirish va ma'lumot yetkazish, Faoliyatning sifati va natijalarini birgalikda tahlil etishdir.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida uslubiy ta'minotning asosiy predmeti bu – pedagogik faoliyat bo'lib, ta'limiy va tarbiyaviy jarayonda pedagogik sistemaga katta ahamiyat berilishi shart.

Uslubiy ta'minotning yetakchi obyekti – maktabdan tashqari ta'lim muassasasining pedagogik jamoasi va uning aniq bo'limlari, pedagogik ishchilari hisoblanadi. Tashkilotda uslubiy ish faoliyat jarayonida o'z fikrini bir joyga jamlab, faoliyat yuritish tashkilotning obro'sini, qolaversa ishning samaradorligini yuqori pog'onalariga ko'tarishga kafolat bo'ladi.

Uslubiy ta'minot yuqori kasbiy maxorat darajasida bo'lishi talab etiladi. Bu yerda nafaqat uslubiy chuqur bilimga ega bo'lish balki, eng asosiysi ta'minlangan predmet bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lmog'i lozim (o'quv jarayonida pedagog o'zi avvalo tushuntirayotgan narsasi, mavzusi xaqida to'liq bilimga ega bo'lmas ekan ta'lim jarayonida o'z fikrini o'zgalarga ham tushuntira olmaydi bilim ham bera olmaydi). Birinchidan berayotgan narsasining uslubiy tomondan tekshirish (yoritib berishi) kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan uning kelib chiqishini, tashkillashtirilishini rejalashtirishi, ayniqsa umumiy va bosqichma-bosqich ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

Uslubchining o'z imkoniyat darajalarining barchasi ishlatib bo'linganiga qaramay, ish faoliyati har tamonlama yuqori darajadagi uslubiy materiallar (ta'minot)

bilan ta'minlangan bo'lishi lozim: birinchi navbatda uslubchi o'z tashkilotida o'z imkoniyatlarini ko'rsata bilgan bo'lishi kerak.

Uning uslubiy ta'minlanganligining yakuniy xulosalarini ikki bosqichda ko'rib chiqish mumkin:

Uslubchining o'zi (subyektning shu xarakterga yo'naltirilganligi) yakuniy xulosaga ko'ra uslubiy tomondan qurollanganligi bilan belgilanadi.

Predmet va obyekt: bu yerda ularning o'zgarganligi bilan belgilansa, xulosaning sifati, xususiyati (xarakter)ning o'zgarishi bilan xarakterlanadi (agarda uslubiy ta'minot "to'g'ri bo'lgan bo'lsa").

Predmetning yaxshi (yoki yomon) tomonga o'zgarishi uslubiy ta'minotning sifatli ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi (Bu yerda ta'minlab berishda asosiy bosh rolni ta'minotchi ya'ni uslubchi o'ynaydi chunki tajribali uslubchi "tashqaridan" hech qanday yordam kutmaydi. O'z bilimini ishga solgan holda vaziyatdan chiqib ketadi).

Agar uslubiy ta'minot aniq bir manzilga qaratilgan bo'lmay ikkinchi darajali bo'lganda edi unda uning yutug'ini boshqa tashkilotlar amaliyoti uchun foydali tomonlarini bosqichma-bosqich qo'llayotgan uslubiy materiallarga (maxsulotlarga) bog'lagan bo'lar edi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki uslubiy ta'minotning asosiy ko'rsatmasi uslubchining ish faoliyatida yuqori darajaga erishish uchun o'z imkoniyatlarini o'z vaqtida ishlata olishiga bog'liq.

Uslubiy faoliyatda quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi: ilmiy-uslubiy, xuquqiy, rejalashtirilgan uslubiy axborotlar bazasi bilan ta'minlash.

Bu yo'nalishlarning natijaviy bo'lishi uchun, butun bir bosqichli uslubiy faoliyat jarayonida ushbu yo'nalishlarni bir tizimga solish har bir uslubchining bilim darajasining yuqoriligiga bog'liq. Ko'p obyektivli ta'minlanganlik, ko'p predmetlilik, turli xil o'ziga ta'luqli bo'lgan vazifalarning yuklatilganligi va faoliyatning bir-biriga bog'lanmaganligi uslubchiga ko'p qiyinchiliklarni, to'siqlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik tahlil shuni taqazo etadiki tadqiqot natijalarida tasdiqlangan, asoslangan xulosalar bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch*. – T: "Ma'naviyat", 2008.

2. Karimov I.A. *"Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi*. "Xalq so'zi", 2012. 18-fevral № 35.

Muxayyo UMARALIYEVA,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITl mustaqil-izlanuvchisi

O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATI VA KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA MOTIVLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda ularda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif kasbiy kompetentlikni rivojlantirish motivlarining o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligini oshirish bo'yicha qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy kompetentlik, motivlashtirish jarayonlari, malaka oshirish tizimi, tarbiyaviy munosabatlar, xususiyat.

В статье освещены вопросы формирования у учителей положительной мотивации к совершенствованию процесса развития профессиональной компетентности и непрерывному повышению квалификации. Предложены рекомендации по повышению эффективности процесса развития профессиональной компетентности и воспитательных отношений на основе учета мотивов развития.

Ключевые слова. Профессиональная компетенция, процессы мотивации, система повышения квалификации, воспитательные отношения, особенность.

The article highlights the formation of teachers' positive motivation to improve the process of development of professional competence and continuous professional development. Proposed recommendations for improving the effectiveness of the process of development of professional competence and educational relations on the basis of the development of motives.

Key words. Professional competence, process of motivation, training system, educational relations, feature.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning innovatsion texnologiyalarini o'rganishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan o'z mohiyatiga ko'ra to'g'ri foydalanish zarur hisoblanadi, chunki kasbiy kompetentlikni rivojlantirish motivlarining o'ziga xos xususiyatlari kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni turli xil motivlar ta'lim muassasalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy muhitni o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limiy muhitni ta'lim muassasalarida shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda o'qituvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning kasbiy

kompetentligini takomillashtirish va rivojlantirish zarur bo'lib, mazkur jarayonda motivlashtirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida ham motivlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ular kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga bog'liq bo'lib, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari natijaviyligini ifodalaydi.

Ta'lim muassasalarida umumiy manfaatlar uyg'unlashuvida va ehtiyojlarni qondirish yo'nalishida belgilanadigan maqsadni tanlash va unga erishish jarayonida, ya'ni o'qituvchilarni o'z kasbiy mahoratini rivojlantirishga undovchi va harakatga keltiruvchi motivlarning ahamiyati va ta'siri ularning tasavvuri orqali sinovdan o'tadi. Motivlarni o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishida ularning ishonchligi, ta'sirchanligi va ahamiyatini asoslash orqali o'qituvchilarga ta'sir ko'rsatish motivlashtirishni ifodalaydi.

Psixologik adabiyotlarda motivlashtirish keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, va mohiyatining) murakkab, ko'p qirrali boshqaruvchisi deb keltiriladi. O'qituvchilar faoliyati turli motivlar yordamida boshqarilishi mumkin. Motivlar yordamida irodaviy xatti-harakatlarni vujudga keltiruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi ta'siri samarali hisoblanib, faoliyat natijalarining samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog'liq bo'ladi, bu o'z navbatida motivlashtirish jarayonining samaradorligini ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o'qituvchilarni umummilliy qadriyatlarini, milliy urf-odatlarini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga undashning ko'p darajali va murakkab tizimi bo'lib, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, vositalar, e'tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning komponentlari hisoblanadi. Tadqiqotlarda o'quv motivlari va o'quv samaradorligini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilganda, shaxsning intellektual darajasi va qobiliyatlari haqida fikr yuritiladi.

Ularda keltirilishicha, ta'lim oluvchilarda zaruriy qobiliyatlar yetarli bo'lmagan hollarda yoki bilim, ko'nikma va malakalar talab darajasida bo'lmagan vaziyatlarda ularning o'rnini ijobiy motivlashtirish bilan to'ldirishi mumkin. Aksincha, qobiliyatlarning har qanday yuksak darajasi ham motivlashtirishning o'rnini bosa olmaydi hamda o'quv faoliyatining samaradorligini yetarli darajada ta'minlay olmaydi.

Motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'qituvchilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida o'qituvchilarning ehtiyojlari yoki umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish ularda kelajakka ishonch, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikni qadrlash kabi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ta'lim muassasalarida nafaqat malaka oshirish kurslarida ta'lim olish, balki mustaqil ta'lim olish uchun ham shart-sharoitlar yaratilishi zarur bo'lib, bunda o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini ham nazorat qilish va

muvoqilashtirish o'ziga xos unda davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda motivlashtirish amalga oshiriladi.

Motivlashtirish o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishidagi xatti-harakatlariga turtki berib, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi. Motivlashtirish jarayonida o'qituvchilar ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki mazkur ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. Demak, ehtiyojlar o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, dam olish, bilim olish, hunar o'rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi.

O'qituvchilarning ehtiyojlari turli xil bo'lib, ularning psixologik xususiyatlariga, ya'ni odati, didi va kayfiyati, yoshi va sog'ligi, jinsi, oilaviy ahvoli, mehnat qilish va yashash sharoitlariga ham bog'liq. Masalan, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi bilan birinchi yil faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchining, oila qurgan o'qituvchi bilan oila qurmagan o'qituvchining ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi.

O'qituvchilarning ehtiyojlari o'zgaruvchan, yashash va ish sharoitlari o'zgarib, rivojlanib borgan sari ehtiyojlar ham ortib boradi. Hayotida mavjud bo'lgan xilma-xil ehtiyojlarni aniqlash, tahlil qilish va ularda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun turli tadbirlarni tashkil etish va mazkur tadbirlarda ularning ishtirokini ta'minlash, hamda o'quv faoliyatini muvoqilashtirishda motivlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivlashtirish jarayoni mavjud ehtiyojlarga qoniqish hosil qilish uchun, ya'ni ehtiyojlarning qondirilishi uchun maqsadni belgilash va unga erishish uchun harakat qilishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ehtiyojning qondirilish darajasi o'qituvchilarning muayyan faoliyatining holatini belgilaydi. Demak, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonini muvoqilashtirish asosida ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlash o'qituvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish, ya'ni motivlashtirishga bog'liq bo'lib, motivlashtirishning samaradorligi o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi bo'lib, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarda o'qituvchilarning umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va milliy tariximizni o'rganish asosida o'tmishimiz va kelajagimiz haqida boy tasavvurga ega bo'lishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi, dunyoqarashining kengayishi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasining o'sishini, ya'ni ularda kasbiy kompetentlikning rivojlanishini belgilaydi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligiga erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni belgilaydi.

Natijaviylik kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilar faoliyati natijalari bo'lib, belgilangan maqsadga erishish yo'nalishidagi xatti-harakatlar bilan qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatli natijalar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi deb

aytishimiz mumkin. Bunda natijaviylik motivlashtirish samaradorligining ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligiga erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashi, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida natijaviylikni ta'minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi hamda o'z faoliyati samaradorligi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;
- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish;
- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovatsion pedagogik tizim sifatida yondashish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarda o'z faoliyati samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash ko'nikmalarini shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Mazkur belgilangan shartlarga va yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosanib aytishimiz mumkinki, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligini rivojlantirish jarayonlarida ularda kasbiy kompetentlilikning rivojlanish dinamikasi yoki ijobiy motiv hisoblangan muvaffaqiyatga intilish motivlarining shakllanganlik darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligidir.

Motivlashtirish o'qituvchilarda yetarli darajada faollikni ta'minlash uchun zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, qanday motivlar o'qituvchilarni uzluksiz malaka oshirishga yo'naltirishi va qaysilari ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, ma'lumot olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashga imkoniyat yaratishini bilish, ularning bilim, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini oldindan aniqlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarda motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda, samaradorlikning o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, dunyoqarashi, tasavvuri, qiziqishi va imkoniyatlarining belgilangan maqsadlarga mos kelishini ifodalovchi xususiyatlar;
- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi omillar va vositalarning o'ziga xos xususiyatlari;

- o'qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari;
- davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanishi, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasi;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ilmiy-metodik ta'minoti darajasi;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda reflektiv yondashuv, tizimli yondashuv, innovatsion yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'sir va boshqa yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- axborotlarning ishonchliligi va yangiligi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligining o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ushbu ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, axborotlarning ishonchliligi va yangiligi ham asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida keltirilmoqda. Motivlashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash:

- o'qituvchilarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari bo'yicha tushunchalarini aniqlash;
- tasavvuri va dunyoqarashi, qiziqishi va imkoniyatlarini o'rganish;
- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- o'qituvchilarning ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasini aniqlash;
- o'qituvchilarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijodiy motivlarni shakllantirish va ularning o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi.

O'z navbatida, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida axborotlarning o'ziga xos ahamiyatini ifodalaydi, shuning uchun ham axborotlar yangi va ishonchli bo'lishi zarur hisoblanadi. Ularning yangiligi va ishonchliligi to'plangan axborotlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida aniqlaniladi. Ishonchli va yangi hisoblangan axborotlar asosida o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish, takomillashtirish, ya'ni ularning faolligini oshirish ishlari amalga oshiriladi. Yangi va ishonchli deb topilgan axborotlarga asoslangan holda, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug'iladi va ularga asosan kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish va motivlashtirish yo'nalishlaridagi vazifalar belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova T.M. *Boshqaruv muloqoti*. – T: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000.
2. Azizxo'jayeva N.N. *O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi*. – T., TDPU, 2000.
3. Turg'unov S.T. *Xalq pedagogikasining dolzarb muammolari*. – T.: "O'qituvchi", 1990.
4. Топоровский В.П. *Аналитическая деятельность руководителя образовательного учреждения*. – Санкт-Петербург, 2000.

Manzura NORQO'ZIYEVA,

O'zMTD partiyasi Jizzax viloyati Kengashi deputati

XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAViy-AXLOQIY TARBIYALASH

Annotatsiya

Maqolada bolalarni xalq og'zaki ijodi materiallari asosida tarbiyalashning shakl, usul va vositalari yoritilib, bunda oila tarbiyasining muhim o'rin tutishi ta'kidlangan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning aqliy faolligini oshirishda maqollardan foydalanish texnikasini ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar. Xalq og'zaki ijodi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiyachi, ota-ona, oila tarbiyasi, maktabgacha ta'lim muassasasi, didaktika.

В статье раскрываются формы, методы и средства воспитания учащихся на основе материалов устного народного творчества, где отводится значительная роль семейному воспитанию. Показывается значение изучения пословиц и раскрытия их скрытого смысла для развития умственной деятельности детей в дошкольных учреждениях. Автором разработана техника использования пословиц в дошкольных учреждениях.

Ключевые слова. Устное народное творчество, духовно-нравственное воспитание, воспитатель, родители, семейное воспитание, дошкольное образовательное учреждение, дидактика.

The article describes forms, methods and means of education on the basis of materials folk art, which is assigned the significant role of family upbringing. The importance of feedbacks between the family and educational institution. Have been determined principles and didactic aspects of the educational possibilities of folklore. The author developed the technique of proverbs using in preschool.

Key words. Folklore, spiritual and moral education, parents, family education, educational institution, educational event.

O'zbek xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan beri xalq orasida tarbiyaviy vosita sifatida qo'llanib kelmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash davr talabi hisoblanib, bunda xalq og'zaki ijodining o'rni va ahamiyati juda katta, binobarin, mazkur omilning ahamiyati ko'plab allomalar tomonidan qayd etilgan.

Xususan, hikmatlarning komil inson tarbiyasidagi ahamiyatini ta'kidlab, Kaykovus "Qobusnoma" asarida "Agar aqlli bo'lishni istasang, hikmat o'rgangilki, aql hikmat bilan kamol topadi" deb uqtiradi.

Suqrot esa folklor asarlarining ahamiyatini ta'kidlab, ularning inson tarbiyasidagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi: "Men qadimgi donishmandlarning bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko'zdan kechiraman, agarda biz ularda nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o'zgartirib olamiz va juda katta foyda orttirgan bo'lamiz", deydi u.

Hozirga qadar o'zbek tarbiyashunosligida xalq og'zaki ijodining turli janrlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda: xususan, xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan ishlar tadqiqotlar e'tiborga molikdir.

Bolalarni xalq og'zaki ijodi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosini o'rganish va tahlil etish bu boradagi qator omillarni o'rganishni talab etadi.

Ular quyidagilardan iborat:

- bolalarning yoshlariga mos xalq og'zaki ijodiga oid asarlar vositasida tarbiyalash bola nutqini zaxirasi va tafakkur darajasini yuksaltiradi;

- xalq og'zaki ijodi materiallari mazmunidan kelib chiqib, bolalarga “yaxshi” va “yomon” tushunchasini singdirish, shu asosda insonda muhabbat hissini tarbiyalash.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining aksariyat tarbiyachilari mashg'ulotlarda xalq og'zaki ijodi materiallaridan kam foydalanadilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa baxshilar bilan suhbatlar o'tkazish, xalq ertaklari va dostonlari asosida kechalar tashkil etish, munozara va adabiy kechalar o'tkazishga e'tibor berilmaydi.

Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganining yana bir sababi mazkur yo'nalishda tarbiyachi-o'qituvchilarning ota-onalar bilan aloqasi bir muncha sust yo'lga qo'yilganidir.

Biz oilada bolalarni xalq og'zaki ijodi materiallari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash holatini o'rganish natijasida shunday xulosaga keldik:

- 1) keksa otaxon va onaxonlari bor oilalarda xalq og'zaki ijodi materiallari, xususan, maqollardan ko'proq foydalaniladi;

- 2) umuminsoniy, diniy hamda oilaviy an'ana va qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlar sifatli yo'lga qo'yilgan oilalarda xalq og'zaki ijodi materiallaridan tarbiyaviy maqsadda foydalanishga katta e'tibor beriladi;

- 3) yosh oilalarda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlaridan tartibsiz va kamdan-kam foydalaniladi, ayrim yosh ota-onalar farzandlariga uchun ertak kitoblari xarid qilsalar-da, ertaklarni o'zlari mustaqil aytib bera olmaydilar. Bolalarga alla aytishda ham uning musiqasini qo'llasalarda, allaning sehrli so'zlarini qo'llamaydilar.

Oilalarda folklor asarlaridan foydalanishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ayrim ota-onalarning ma'naviy savodxonligini yuqori darajada emasligi;
- ular xalq og'zaki ijodiga doir adabiyotlardan bexabarlar;
- aksariyat ota-onalar xalq og'zaki ijodi materiallarining tarbiyaviy imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaydilar;
- ayrim oila boshliqlari farzandi tarbiyasiga birmuncha beparvo qaraydilar.

Oilada folklor asarlari vositasida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun tarbiyachi ota-onalar bilan suhbat o'tkazar ekan, ularni xalq og'zaki ijodi materiallarining mazmunini sharhlash mexanizmi bilan tanishtirishga ahamiyat berishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan folklor asarlari saralab olingach, ota-onalarning ulardan foydalanish, ular mazmunini anglash va bolalarga qiziqarli qilib yetkazishlariga erishish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratish zarur:

1. Ota-onalar bilan folklor asarlari mazmuni haqida suhbat tashkil etish.

2. Xalq og'zaki ijodi asarlari tanlovini tashkil etish.

Masalan, maqollar xalq og'zaki ijodi turlaridan biri sifatida o'zining qadimiyligi, milliyliigi, tarbiyaviy ta'sirchanligi bilan insoniyat barkamolligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

Maqollar mazmuni va mavzu doirasining nihoyatda serqirraligini nazarda tutib, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadida ota-onalar va tarbiyachilar o'z tarbiyaviy ishlar rejasiga muvofiq quyidagicha maqollar tizimini ishlab chiqishlari mumkin.

O'qituvchilar (tarbiyachilar) va ota-onalar uchun maqollar tizimi

№	Tarbiyaviy imkoniyati	Maqol mazmuni
1.	Vatanga muhabbat	<i>Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni. Vatanning vayronasi – umrning g'amxonasi. Yurti boyning – o'zi boy.</i>
2.	Insonparvarlik	<i>Inson qo'li cho'lni bo'ston qilar. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l. Ustoz otangdek ulug'.</i>
3.	Ilm va hunar	<i>Bilgan bilganini ishlar, Bilmagan barmog'ini tishlar. Bilim – kuchda, kuch – bilimda. Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar. Bilim baxt keltirar. Bilimsizga ish yo'q, ishsizga osh yo'q.</i>
4.	Hushyorlik va ehtiyotkorlik	<i>Dushman siringni o'g'irlaydi, do'st xatongni to'g'irlaydi. Dushmanga bo'yin egma. Ofat ko'rmay desang hushyor bo'l.</i>
5.	Yaxshi so'z	<i>Yaxshi so'z – jon ozig'i. Shirin so'z – shakardan shirin. Oz so'zla – soz so'zla.</i>
6.	Maqtanchoqlik va manmanlik	<i>Kamtarga – kamol, manmanga zavol. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. O'zlari xon, ko'lankalari maydon.</i>
7.	Ochko'zlik va baxillik	<i>Baxilning bog'i ko'karmas. Birovga bersam essiz oshim, uyda tursa sasir oshim. Saxiy bilan baxil bir quduqdan suv ichmas.</i>
8.	Pand-nasihatlar	<i>Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq. Aqlingga aql qo'sh, jahlingga-sabr. Bir kattani gapiga kir, bir kichikning. Gapni gapir uqqanga, jonni jondek suqqanga. Bolta tushguncha, kunda dam olar. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar.</i>

Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishning didaktik jihatlarini loyihalashda:

- maqsad aniqligi,
- zamonaviyligi,
- ilmiyligi,
- loyihalashtirilganligi,
- muayyan izchillikka egaligi kabi tamoyillar nazarda tutiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinfda xalq og'zaki ijodidan foydalanib, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl va usullari tarkibida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Sayr chog'ida suhbat.
2. “Maqolxonlik”, “G'aroyib sarguzashtlarga boy ertak”, “Topgan topaloq” ertaklarni tashkil etish.
3. Kundalik axborotlar tahlili, shu jarayonda maqollar, ertaklar, topishmoqlar, hikoya va rivoyatlarga murojaat etish.
4. Maqollar bilimdonini aniqlovchi “Zukkolar” musobaqasi.
5. Pedagog-tarbiyachi maslahati (davra suhbat).
6. Maktab – oila va bog'cha – oila hamkorligida ota-onalar va bolalar ishtirokida ertaklarni sahnalashtirib ko'rsatishga qaratilgan “Ona-bola, gulu lola” kechalarini tashkil etish.

“Zukkolar” musobaqasida ishtirokchilarga quyidagicha yarmi yashirilgan maqollar taqdim etiladi:

Obro' misqolab keladi (botmonlab ketadi)
Inson ko'ngli toshdan qattiq (guldan nozik)
Otalar so'zi (aqlning ko'zi)
O'zingda yo'q (olamda yo'q)

O'yin sharti: ishtirokchilar maqolning davomini aytib, o'zlarining maqol borasidagi bilimdonliklarini namoyish etadilar. Shu tariqa maqollarni to'g'ri qo'llashga o'rganadilar.

Pedagog-tarbiyachi maslahatiga asoslangan tarbiyaviy tadbirda ertak va masallarda qo'llanilgan maqollar yuzasidan suhbatlar o'tkaziladi. Bunda matn so'ngida qissadan-hissa tarzida qo'llanilgan maqollarning tarbiyaviy mazmuni haqida bolalar bilan suhbat-munozara o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz ravishda turli o'quv predmetlari hamda maktabdan tashqari tadbirlarda maqollardan oqilona foydalanish bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan maqolning sifati, bolalarning yoshiga mos bo'lishi, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligiga ko'ra, saralab olinganligi kabilar ushbu jarayonda o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova S. *Komil inson tarbiyasi*. – T.: “Sharq”, 2003.
2. Ravlova N. *Ilk yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish*. – T.: “O'qituvchi”, 2000.
3. *Donishmandlar odob-axloq to'g'risida*. – T.: “O'qituvchi” 1998.
4. Usmonov R. *Hayot-ustoz, Xalq – muallim*. – T.: “O'qituvchi”, 1992.
5. Abduljalolova Sh, Fitrat A. *Oila va bola tarbiyasiga oid qarashlar*. – T.: “Yozuvchi”, 2002.

Venera XAMDAMOVA,
Firdavsxon YUSUFXODJAYEVA,
Qo'qon DPI o'qituvchilari

TEXNIK IJODKORLIK JARAYONIDA MANTIQUIY VA INTUITIV TAFAKKURNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada texnik ijodkorlik jarayonida mantiqiy va intuitiv tafakkurining ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mualliflar bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari, o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatiga rahbarlik qilishga tayyorlanishining dolzarb masalalarini yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ijodkorlik, faoliyat, pedagogik kuzatish, to'garak, reproduktiv, qobiliyat, texnologiya.

В статье раскрыто значение логического и интуитивного мышления в процессе технического творчества. Авторами освещены актуальные вопросы подготовки учащихся к творческой деятельности.

Ключевые слова. Творчество, деятельность, педагогическое наблюдение, кружок, репродуктивный, способность, технология.

The article discusses the value of a logical-intuitive thinking in technical creativity. Also, the author highlights the main tasks of creative activity training.

Key words. Creativity, activity, pedagogical analysis, circle, reproductive, talent, technology.

Bugungi kunda yoshlarning to'g'ri kasb tanlashi, o'z shaxsiy sifatlariga mos keluvchi mehnat sharoitlarida faoliyat ko'rsatishiga erishishda har bir fan o'qituvchisi ma'sul hisoblanadi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitiladigan fan o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Shu sababli har bir darsda o'quvchilarni fanga oid kasblar olami va mehnat faoliyatining turlarini, tegishli kasb egalari va ular erishayotgan yutuqlari bilan qiziqarli ma'lumotlar asosida tanishtirish muhim hisoblanadi.

Ijodkorlik jarayonida mantiq va intuitsiyaning har xil ahamiyatga ega bo'lishini fransuz olimi A.Puankare ko'rsatib o'tgan edi. Xususan u "fanning o'zida intuitsiya agar bir qancha ustunliklarga ega bo'lganligi hisobga olinmasa, analiz isbotning yakkayu yagona qonuniy quroli bo'lishga intilib borayotgan bir davrda ham u ixtiro qilishda asosiy qurol bo'lib qolaveradi" deb yozadi.

Dalil va raqamlardan kelib chiqib ilmiy farazlar qurushga yoki topishga shuningdek, nazariy xulosalardan amaliy sinov ishlariga o'tishga ilmiy intuitsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Yoshlarning to'g'ri kasb tanlashi, o'z shaxsiy sifatlariga mos keluvchi mehnat sharoitlarida faoliyat ko'rsatishiga erishishda har bir fan o'qituvchisi ma'suldir.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitiladigan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda o'ziga hos o'rin tutadi. Shu sababli darsda o'quvchilarni fanga oid kasblar olami va mehnat faoliyatining turlarini, tegishli kasb egalari va ular erishayotgan yutuqlari bilan qiziqarli ma'lumotlar asosida tanishtirish muhim o'rin tutadi. Intuitsiya uning mantiq bilan bog'liqligi ixtirochilik g'oyalarining kelib chiqishida tutgan o'rni belgilashdagi muammolar murakkab bo'lib uning hozirgacha to'la hal qilinmagan deyish mumkin. “Qisqacha psixologik lug'at”da intuitsiya – “Paydo bo'lishi yo'llari va shartlari anglanmagan holda hosil bo'luvchi bilimlar sifatida yuzaga keladi shunga ko'ra subyekt unga bevosita yuzaga” kelgan natija sifatida ega bo'ladi” deb ta'riflanadi. Ushbu va boshqa adabiyotlarda keltirilgan ta'riflar intuitsiya bo'lmaydi. Intuitsiya – bu subyekt tomonidan o'ziga fikran qo'yiladigan savol va muammolarga anglanmagan holatda yuzaga keluvchi javoblar bo'lib, u to'plangan tajriba va bilimlar asosida amalga oshadi.

O'quvchilarni tanlagan kasbi va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviyati va kasbiy madaniyatini boyitish ko'p jihatdan o'qituvchida shakllangan kasbiy ijodkorlik sifatlariga bog'liq. Ayniqsa, kasbiy yo'nalishdagi ijodkorlikka rahbarlik qilish o'qituvchidan mukammal kasbiy bilim va malakalarni talab etadi.

Shaxs ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish hamda rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatdan ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, uning ro'yobga chiqishida nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada bo'lajak pedagog kadrlar kasbiy ijodkorligini tashkil etish ko'p qirraligini hamda murakkab kompleks tuzilmaga egaligi bilan o'ziga hos o'rin tutadi.

Pedagogik kuzatishlardan ma'lumki, endigina umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarga ishga borgan yosh mutaxassislar o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilar ijodkorlik faoliyatiga rahbarlik qilishga tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ikki tip ihtiyoriga A.Eynshteyn tomonidan aytilgan quyosh yaqinida yorug'likning chetlanishi kiradi. Bu inert va gravitatsion massaning proporsionalligi haqidagi muhim faktni sezish va M.Bornning ta'biricha “Tajriba natijalarining uzun zanjirdagi gigant sintez” deb atalgan yangi nazariyaning yaratilishini talab qiladi.

Dalil va raqamlardan kelib chiqib ilmiy farazlar qurushga yoki topishga o'tishda nazariy hulosalardan amaliy sinov ishlariga o'tishga ilmiy intuitsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Tabiatni uning hosil bo'luvchi asosini o'zida aks ettirmaydi va shu sababli uni to'liq deb intuitsiya uning mantiq bilan bog'liqligi ixtirochilik g'oyalarining kelib chiqishida tutgan o'rni belgilashdagi muammolar murakkab bo'lib uning hozirgacha to'la hal qilinmagan deyish mumkin.

Ijodkor shaxs turli sohalarga oid bilimlarni egallaganligi hamda ularni o'zaro yangi bog'lanishlarda qo'llay olishi bilan ajralib turadi. Bunday shaxslar bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llashda maqsadga erishishning nafaqat maqsadini, balki unga erishishning motivlari hamda usullarini ham to'la idrok qilgan holda yondashadilar.

O'quvchilar ongida ijodkorlik to'g'risida tushunchalarni, uning hayotda tutgan o'rni va kelgusidagi istiqbollari to'g'risida tasavvurni hosil qilish kerak. Bu vazifalarni

amalga oshirish maqsadida bo'lajak mutaxassislarda shakllantirishi lozim bo'lgan tushunchalar hamda bilim, ko'nikma, malakalar tizimini va ularni o'qitish usullarni ishlab chiqish lozimdir.

Yoshlarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda shunday sifatlar talab etiladiki, yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalar asosida ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila biladigan, yangi g'oyalarni ilgari sura oladigan, ratsional, zamonaviy talablarga javob beradigan metod va vositalarni, kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan, texnika dunyosiga jalb eta olishiga, hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydigan ijodkorlik, ixtirochilik quvonchini tarbiyalay olishiga bog'liqdir.

Mustaqil ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik faoliyati bilimlarni egallash jarayoni o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, ularni rivojlantirish uchun alohida e'tibor ko'rsatishni talab etadi. Ijodiyotga shijoat bilan kirib kelayotgan yoshlarning ishtiyoqini so'ndirmasdan ularni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash kerak.

Ishlab chiqarishda o'zlarining mehnatlariga ijodiy yondashuvchilar faqat ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslari hamda ilmiy texnika bilimlarini chuqur bilishdan tashqari kashfiyotchilik va ratsionalizatorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarni ham egallashlari zarurdir. Bunday bilimlarning asosi maktabdan boshlanib, oliy o'quv yurtida yuqori darajada shakllanmogi lozim. Shuning uchun fanning o'qitilish maqsadlari quyidagicha:

- jamiyat ishlab chiqarishdagi texnik ijodiyotga oid bilimlar sistemasi bilan tanishish;
- texnik ijodiyotning iqtisodiy asoslari va tashkil qilinishi bilan tanishish;
- patent asoslari haqidagi ma'lumotlarni olish;
- texnik masalalar ustidagi ijodiyot obyektlarini va ijodiyot mahsuliga texnik hujjatlarni to'ldirishni o'rganish;
- texnika to'garaklarida o'quvchilar bilan ijodiy faoliyatlarni tashkil etish natijasida texnik obyektlarni o'quvchilarga loyihalash ishlarini o'rgatish;
- o'qish va o'qishdan tashqari mashg'ulotlar uchun kichik o'lchamli dastgohlar, ish quroli hamda qurilmalarni loyihalash ishlarini o'rganish;
- Respublika miqyosida talabalar texnik ijodiyoti hozirgi holatlari va rivojlanish yo'nalishlari bilan tanishish;
- talabalarga qidiruv loyihalash faoliyati asoslari va ishlab chiqarish tajribalari usullarini o'rgatish;
- texnika to'garaklari dasturi amalga oshiradigan ishlar va texnik obyektlarni tanlash;
- to'garak ishlarini moddiy texnika ba'zasi bilan tanishish;
- o'qish va o'qishdan tashqari mashg'ulotlarda texnikaga oid ishlardagi texnik ijodkorlik uslubi bilan tanishish.

Mehnat mazmuni faqatgina uning rivojlanish darajasi bilangina emas, balki uning ijodiylik darajasi bilan ham o'lchanadi. Shaxsiy ijodiyot va umuman ijodiyot masalalariga o'zlarining diqqat markazlarini faylasuflar, sotsiologlar, pedagoglar, psixologlar ham qaratib kelganlar.

Psixologlarni aytishlaricha har qanday inson normal holatda ijod qila olar ekan. Ijodkorlik xususiyati yoshlardan, ya'ni bolalarda yaxshi rivojlanadi.

Psixologiya va pedagogika fanlarining xulosalariga ko'ra ijodkorlik xususiyatini insonda bolalik chog'laridan boshlab shakllantirish zarur ekan, agar bolalarni yoshligidan ijodkorlik faoliyatiga o'rgatilsa, u holda katta hatoga yo'l qo'yiladi deyish mumkin.

Barchaga ma'lumki, o'quvchilarning eng asosiy mehnati o'qishdir. Shuning uchun o'quvchilarda ijodkorlik shaxsini tarbiyalashga jiddiy yondoshmoq zarur.

Maktablarda reproduktiv ta'lim keng tarqalgan. O'quv jarayoni esa o'qituvchining o'quvchiga axborot berishi bilan olib boriladi. Bunda o'qituvchi tayyor ma'lumotni uzatuvchi sifatida, o'quvchilar esa passiv talab qiluvchi sifatida ishtirok etishadi.

Jamiatimizning ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, maktab ta'limini tubdan o'zgartirmoq kerak, ya'ni eng avval ijodiy dastur yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish lozim.

Psixologiya, pedagogika fanlarining yutuqlaridan foydalanib, maktablarda ta'lim va tarbiyaning ijodiy usullarini joriy qilib, o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarini qabul qilish aktivligini oshirish zarur.

Texnik ijodkorlik tushunchasida ikki xil fikr mavjud:

1. Pedagoglarning qarashlaricha o'quvchilar texnik ijodkorligi nafaqat faoliyat turi, balki o'quvchilarning turli xil texnika dunyosi bilan tanishtirishga qaratilgan, ular qobiliyatning rivojlanishiga, politexnik ma'lumotiga va mehnatga bo'lgan tarbiyaning samara beruvchi turidir.

2. Psixologlarning diqqat markazida talabalar texnik ijodkorligida talabalar ijodining bir turiga bo'lgan qobiliyatini o'z vaqtida paydo bo'lishiga, rivojlanish ketma-ketligiga va shakllanish darajasining o'rnatilishi turadi.

Shunday qilib, bolalar texnik ijodkorligi pedagogika va psixologiya nuqtayi nazarida samara beruvchi tarbiya vositasidir, hamda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlanishini maqsad qilib olgan ta'lim jarayonidir.

Pedagogika va psixologiya ilmiy tadqiqot ishlarini tahlili va tajribasi quyidagi xulosaga kelishga imkon berdi, ya'ni texnikaviy ijodiyot avvalambor, texnik fikrlashning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib beradi. Texnik fikrlashdan boshqa oddiy fikrlash ham mavjud. Texnik fikrlash oddiy fikrlash bilan murakkab aloqadorlikda bog'langan.

Birinchidan: texnik fikrlash oddiy fikrlash asosida rivojlanadi, ya'ni oddiy fikrlashning barcha tashkil etuvchilari texnik fikrlashga oid.

Ikkinchidan: oddiy fikrlashning rivojlanishi uchun psixofiziologik yo'nalishini tashkil qiladi. Oddiy fikrlash natijasida bolalarni eslab qolish qobiliyati, fikrlashning tezkorligi va uning ongi rivojlanadi.

Ijodkorlikka intilish mehnatga bo'lgan munosabatning faqat moddiy mukofot olish vositasiga emas, balki hayotning mazmuniga, o'zligini namoyon qilish usuliga aylanishining bir ko'rinishi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlardan qaysi mutaxassislik egasi bo'lishidan qat'iy nazar eng zamonaviy bilimlarga ega bo'lishni aqliy va jismoniy barkamollikni, ishlab chiqarishning ilmiy-texnik va iqtisodiy bilimlarni chuqur va mukammal egallashni, mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalashda ta'lim muassasalarining roli tobora oshib bormoqda. Endilikda umumiy o'rta ta'lim

maktablari oldida turgan vazifalardan biri yosh avlodni ular yashaydigan va ishlaydigan jamiyat sharoitlarini hisobga olgan holda o'stirish, tarbiyalash va o'qitishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib o'quv materiallari tanlanadi, ta'limning yoshlarda qiziquvchanlik, mantiqiy fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan shakl, uslub va vositalari belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda fanlarning asoslari bilan tanishtirishdan tashqari, ularni o'z bilimlarini muayyan vaziyatlarda mustaqil qo'llay olish qobiliyatini ham barcha vositalar orqali shakllantirishi va rivojlantirishi lozim.

Har bir yangi avlod o'quvchilari ta'lim olishga shunday tayyorlanishlari kerakki, ular faqat hozirgi mavjud texnika va texnologiyani emas, balki kelajakda vujudga keladigan va bunda o'zlari ham bevosita qatnashadigan texnika va texnologiyani qisqa muddatda, shu bilan bir qatorda samarali o'zlashtira olishlari lozim. Zero, har qachongidan ko'ra hozir yosh avlodga ta'lim va tarbiyani kelajakka, ijodiy kuchlarni rivojlantirishga, fan va texnika taraqqiyotining istiqboliga muvofiqlashtirish zarurati oshib bormoqda. Bu esa, bunyod etilayotgan avtomobilsozlik, xalq hunarmandchiligi, yengil, og'ir va boshqa ko'plab sanoat korxonalarining ishga tushirilayotganligi, eng zamonaviy texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan kirib kelayotganligi ham turtki bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi*. – T.: "Yangiyo'l poligraf servis".

2. *Davlatov K., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi*. – T.: "O'qituvchi", 1992.

3. *Хутороской А.В. "Дидактическая эвристика" теория и технология креативного обучения*. – Издательство Московского университета, 2003.

Shaxnoza TAYLAQOVA,

A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI katta o'qituvchisi

O'QUVCHI-YOSHLARNING G'OYAVIY DUNYOQARASHINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING SHAKLLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy dunyoqarashini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan. Shuningdek, muallif ta'lim-tarbiyani olib borishda va rivojlantirishda uni usullar orqali amalga oshirishni ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. G'oyaviy dunyoqarash, asosiy yo'nalishlar, shakllar, ta'lim-tarbiya.

В статье рассмотрены основные направления совершенствования идейного мировоззрения учащейся молодежи. Автором даны практические рекомендации по использованию различных форм воспитания и развития молодежи.

Ключевые слова. Идея, мировоззрение, основные направления, формы обучения и воспитания.

In article the main trend an improvement idea pupil youth and their forms of the education and training.

Key words. The idea, the main trends, pupil, the forms of the education, youth training.

Bugungi kunda XXI asrning barqarorligiga xavf solayotgan, o'tgan asrdan keraksiz meros bo'lib qolgan muammolardan biri – bu turli nosog'lom fikr va qarashlarning paydo bo'lishi shuningdek, yoshlarning muayyan qismi ana shunday qarashlar ta'siriga tushib qolishidir. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan dahshatliroqdir.

Ma'lumki, har qanday kurashdan, ma'lum bir maqsad ko'zda tutiladi. G'oyaviy kurashdan ko'zlangan maqsad esa – insonlarning, avvalambor, yoshlarning qalbi va ongini egallash, ma'lum bir mamlakat yoki mintaqadagi millatlarning an'anaviy tuyg'ulariga keskin ta'sir o'tkazish, ularni o'z ta'siriga tortish va tobe qilishdir.

Yurtboshimiz aytganidek – “Bugungi kunda odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarining manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimo sezib yashamoqda”. Bugun katta hayotga endi tetapoya qilayotgan o'quvchi-yoshlarimizning iqtidorlarini yoshlikdanoq aniqlash, ularni o'z qiziqish va iqtidorlariga qarab biror kasbga yo'naltirish, intilishlarini rag'batlantirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni bilan bir qatorda tarbiya jarayonini ham munosib tarzda olib borish talab etiladi.

Bugunning nuqtayi nazari bilan ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti unga tizim sifatida qarash va

shunga muvofiq munosabat belgilashdir. Ma'lumki, har qanday barqaror tizim qismlar, unsurlarning muayyan strukturaviy tuzilmasidan tarkib topadi. Binobarin, undagi har bir qism, unsur o'z o'rnida turganda va har qaysisi o'z vazifasini mukammal tarzda bajargandagina tizim tashqi ta'sirlarsiz o'z-o'zini boshqarish tomon yo'nalish oladi. Bu holda ta'lim-tarbiya tizimining uzluksiz harakati, uzluksiz takomillashuvi uning maromli faoliyatining zarur sharti bo'lib qoladi.

Ta'lim-tarbiyaga uzluksiz tizim sifatida qaralishining o'zi yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligining amalda namoyon bo'lishidir. Ayni chog'da, davlat siyosatining ta'lim-tarbiya borasidagi ustuvor yo'nalishlari ta'lim-tarbiyaning uzluksiz va izchil bo'lishini taqozo etadi. Zero, bundan kuzatilgan asosiy maqsad muayyan kasbni mukammal egallab olgan va ayni chog'da sog'lom, barkamol inson shaxsini vujudga keltirish, uni hozirgi zamon fan-texnikasi yutuqlaridan bahramand etish, axborot asri bo'lmish XXI asrning yuksak talablariga muvofiq ishchi xodim bo'lib yetishishiga erishishdir. O'quvchi-yoshlar chuqur va keng bilimsiz, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishishi mumkin emas.

Har qanday daraxtdan mo'l hosil olish uchun ko'chat o'tqazishning o'zi yetarli bo'lmaganidek, zamonaviy tarzda bunyod etilayotgan ta'lim muassasalarimizda berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifati masalasiga ham alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Inson hamisha moddiy va ma'naviy himoyaga ehtiyoj sezadi. Biz moddiy boylikdan tashqari, o'quvchi-yoshlarimizning aql-idrokini, ongini tashqi nosog'lom axborot va taassurot xurujlaridan asrashimiz kerak. Chunki har xil noxush holatlar: axloqsizlik, o'g'rilik, giyohvandlik kabi illatlar mavjud ekan, yoshlar ongini ana shu holatlardan asrash ehtiyoji tug'ilaveradi. Negaki, o'quvchi-yoshlarimiz ana shu noxush holatlarga hayot yo'lida duch keladi va ta'sirlanadi. Ularni ko'rib turgach, mazkur narsalarga o'z-o'zidan qiziqish tug'iladi. Bu holatda bizning vazifamiz o'sha nomaqbul qiziqishni so'ndirish, tushunchalar berishimiz, ularda sog'lom fikr va dunyoqarashni paydo qilishimiz lozim. Nosog'lom qarash va tasavvurlarga qarshi sog'lom tafakkur bilan kurashuvchanlikni, bunday illatlarga qarshi ularning qalbida kuchli nafratni uyg'ota olishimiz zarur bo'ladi. Shularga erisha olsagina, o'quvchi-yoshlarimiz nazoratsiz qolgan vaqtlarda ham yomonlikdan o'zini chetga tortadi, ya'ni o'zini o'zi himoya qila oladigan qudratga, mafkuraviy immunitetga erishadi.

Keyingi yillarda ayrim murabbiylarimizda paydo bo'lgan loqaydlik illati bois, o'quvchi-yoshlarimiz tarbiyasida nuqsonlar kuzatilmoqda. Dars jarayonlarida ko'p ezgu fikrlardan misollar keltiramiz, ibratli, tarbiyaga monand so'zlarni aytamiz, biroq ana shu aytganlarimizga o'zimiz ba'zida amal qilmaymiz. Natijada, – "Nega yoshlar kattalarga quloq solmaydigan bo'lib ketyapti?", deya noliymiz. Eng yaxshi, ta'sirli tashviqot – o'rnak bo'lishdir, deb bejiz aytilmaganini esa eslamaymiz.

Qilayotgan har bir harakatimiz bolalar uchun saboq bo'lar ekan, demak xato qilishdan saqlanish pedagoglar oldida turgan yana bir vazifa hisoblanadi. Avvalo o'z so'zimizga o'zimiz amal qilib, shaxsiy namuna ko'rsatishimiz shart. Yana bir salbiy holat – o'quvchi-yoshlarimizning bekamu ko'st o'sib-ulg'ayishi uchun moddiy jihatdan yaxshiroq ta'minlashga intilamiz. Ba'zan me'yorni unutib, o'zimizni qiynab bo'lsa ham ular uchun hamma narsani muhayyo qilamiz. Natijada, mehnat qilishga ehtiyoj sezmay ulg'aygan bola boqimandalikka ko'nikib qoladi.

Yoshlar ongida g'oyaviy-huquqiy tarbiyani shakllantirish, shubhasiz, “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish”, “Milliy g'oya”, “Ma'naviyat asoslari” kabi o'quv kurslarini ta'limning barcha turlarida to'g'ri tashkil qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Quvonarlisi shuki, bugun bu boradagi ishlar ancha jonlantirildi, ya'ni barcha ta'lim turlari, xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning alohida yosh xususiyatlari, intellektual salohiyatlarini hisobga olgan holda mazkur o'quv kurslari o'qitilmoqda hamda ularni o'rganishga oid darsliklar va maxsus adabiyotlar chop etilyapti.

Ushbu muhim ishda fuqarolar, xususan, mamlakatning aksariyat qismini tashkil etuvchi yoshlar ongi va tafakkurida qonunlar, qarorlar va huquqiy normalarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, har qanday huquqiy-an'anaviy me'yorlar o'quvchi-yoshlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi, ro'yobga chiqadi.

O'quvchi yoshlarning huquqiy barkamolligini, g'oyaviy dunyoqarashini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Bu esa, ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Bulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

- Ta'lim dargohlarida o'quvchi yoshlar va talabalarning yoshiga qarab g'oyaviy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy savodxonlikni yuksaltirishning pedagogik-psixologik dasturlarini yaratish, o'quvchi-yoshlarda ezgu fikr, yetuk g'oyalarni shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish, o'quv dasturlari, darslik qo'llanmalarda va ko'rgazmali qurollarda ezgulik g'oyalarni teran aks ettirish, o'qituvchi-pedagoglarning ham bu boradagi bilimlarini muntazam chuqurlashtirib borish zarur.

- Adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, guruh axborot soatlarida adabiyot va san'at sohasidagi yangiliklar, adabiyotshunoslarimiz, tanqidchilarimizning tahriridan o'tgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan yangi asarlar bilan doimo o'quvchilarni tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

- Jamoatchilik fikrini shakllantirish, qonunlarni xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining o'zni beqiyosdir. Shuning uchun matbuot sahifalarida yoshlarni ezgu g'oyalarga da'vat eta oladigan hayotiy mavzulardagi materiallarni chop etib borish, turli xil fikr qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berish zarur. Ommaviy axborot vositalari hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga o'quvchi-yoshlarning ongli munosabatini uyg'otishlari, xolislik va haqqoniy tamoyilga tayanib faoliyat olib borishlari lozim.

- Eng nozik va murakkab bo'lgan din sohasi, o'z mohiyatiga ko'ra, poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular targ'iboti bilan ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri bo'lib kelgan. Shunday ekan, o'quvchi-yoshlarni turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishlarining oldini olish maqsadida ular o'rtasida, o'zlarining faol ishtirokida “Din va jamiyat”, “Islom dinida ma'naviyat talqini”, “Diniy ekstremizmning zararli oqibatlari”, “Dinlar tarixi”, “Islom – tinchlik va ezgulik dini”, “Sektalar va ularning maqsadlari”, “Diniy ekstremizm va terrorizm – tinchlik va taraqqiyot dushmani” kabi mavzularda davra suhbatlari va uchrashuvlarni ko'proq tashkil etib bu boradagi ishlarimizning samaradorligini oshiradi.

- Jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e'tibor qaratish, uni har bir yoshning kundalik ehtiyojiga aylantirish, o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va jismonan baquvvat qilib tarbiyalash maqsadida jismoniy tarbiya va sport to'garaklari faoliyatini keng yo'lga qo'yish lozim.

• Oila va mahallaga katta e'tibor qaratish, "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" tamoyilining mazmun-mohiyatini yoshlarga tushuntirib borish, ichki ishlar idoralari xodimlari, tuman xotin-qizlar qo'mitalari, mahalla faollari hamda oilalar bilan uzviy aloqada bo'lish, shu bilan bir qatorda, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi, "Sog'lom avlod", "Mahalla" jamg'armalarining imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarur.

• O'quvchi yoshlarimiz ishlatayotgan uyali aloqa vositalari ustidan davlatimiz tomonidan me'yoriy hujjatlar asosida belgilab nazoratni yanada kuchaytirish zarur. Bu vositalar orqali axloqsizlikni namoyish va targ'ib qiluvchi materiallarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalaridandir.

• Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish orqali biz chinakam ma'noda ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-huquqiy barkamollikka erishish borasida kutilgan natijalarga ega bo'lamiz. Ularni amalga oshirishda turli usul va vositalardan foydalanish mumkin, ya'ni turli tadbirlar, anjumanlar, avlodlar uchrashuvini tashkil etish, oila va mahallalarda sog'lom muhitni qaror toptirish, ommaviy axborot vositalaridan imkon qadar ta'lim tizimida kengroq foydalanish va hokazolar.

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash to'g'risida gap borar ekan, muammo zamonaviy yoshlarning ma'naviy immunitetiga, globallashuv sharoitida axborot xuruji, yoshlarning ongiga buzg'unchi g'oyalarni singdirishga bo'layotgan harakatlarga borib taqaladi. Jamiyat ongini "ommaviy madaniyat" mahsulotlari bilan to'ldirish kabi g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar avj olgan sharoitda yoshlar bilan qanday ish olib borish, bu xurujlarga qarshi turishda milliy g'oya talablaridan kelib chiqib nima ishlar qilinishi masalalari barcha singari biz pedagoglarning ham kundalik tashvishimizdir. Bunday tahdidlarning oldini olish, yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash uchun, bizning nazarimizda, ko'proq ota-bobolardan qolgan udumlar, tajribada sinalgan haqiqatlarga suyanish ta'lim-tarbiya masalasida yaxshi samara beradi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, ta'lim-tarbiyaning targ'iboti nafaqat shu tizim faoliyatiga, balki u haqda ommaga informatsiya yetkazuvchi, biz har kuni yuzma-yuz keladigan mediamakon, ya'ni, OAV zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: "Sharq".
3. Ochildiyev A. Milliy g'oya, inson va zamon (savollar va javoblar). –T.: "Yangi asr avlodi", 2001.
4. Sultonmurod Olim. "Milliy mafkura – xalq tayanadigan kuch". –T.: "Ma'naviyat", 2000.
5. Saifnazarov I. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari: Uslubiy-ko'rgazmali qo'llanma. – T., 2001.
6. Fozilov J., Sultonov R., Saidov X.. "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish". Umum-ta'lim maktablari direktorlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, sinf rahbarlari va tarbiyachilar uchun qo'llanma. –T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati.
7. Змеева Т. А. Чтение англоязычных текстов СМИ фактор повышения мотивации обучения Электронный ресурс. / Т. А. Змеева. – Режим доступа: <http://ofap.ru/portal/innovat/n2 2008/n2st2.html>, свободный.

Ziyoda ALIYEVA,
Andijon sanoat-pedagogika
kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

PEDAGOGIK KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA CHET TILINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik kasb-hunar kollejlari misolida chet tili (ingliz tili)ni o'qitishda talabalarning mustaqil ta'limini yo'lga qo'yish metodikasi yoritilgan. Shuningdek, muallif chet tillarini o'qitishning xususiyatlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Ingliz tili, mustaqil ta'lim, metodika, intellektual, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, tahlil.

В статье описана методика преподавания иностранного (английского) языка в процессе организации самостоятельного образования учащихся педагогических профессиональных колледжей, раскрыты особенности обучения иностранному языку.

Ключевые слова. Английский язык, самостоятельное образование, методика, интеллектуальный, информационно-коммуникационные технологии, анализ.

In this article the technique of teaching of foreign (English) language by independent education organization of students in pedagogical professional colleges is described.

Key words. English, self-education, methods, intellectual, information and communication technologies, analysis.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan mehnat bozorida yuqori sifatlarga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlargina o'z o'rnini topishi mumkin. Buning uchun o'rta maxsus ta'lim muassasasini tamomlagan yosh kadr o'z oldiga qo'yilgan kasbiy masalani yechish uchun zaruriy ma'lumotlarni qidirish, tahlil etish va baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, o'zining kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantira olishi, buning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi va o'z ustida ishlay olishi talab etiladi. Darhaqiqat kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, "O'rta maxsus ta'lim maussasasi o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi".

Bunday vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun talabalarning mustaqil ta'limiga e'tibor kuchayib bormoqda. O'rta maxsus ta'lim dasturi talabalarning bilish va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasiga qo'yilgan talablaridan kelib chiqadi,

o'qituvchi esa talabalarning amaldagi bilim va ko'nikmalariga tayanadi. O'qituvchi ijodiy yondashish orqali ikki vazifani birgalikda yechishi mumkin:

1. Ixtiyorimizdagi barcha imkoniyatlardan foydalanish orqali talabalarning bilishga intilishlarini yangi yuqori darajaga ko'tarish.

2. Fundamental bilimlarga tayangan materialni tushunarli holda ularga yetkazish.

Buning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishdan samarali foydalanishlari mumkin. Ushbu maqolada ana shunday metodikaning mazmuni ochib beriladi. Metodikaning mazmuni shundan iboratki, talabalarning mustaqil ishlashlari uchun mantiqan aniq maqsadga yo'naltirilgan va tizimlashtirilgan topshiriqlar va mashqlar ishlab chiqilgan. Bunda talabalar oldiga ongli va faol ravishda bilimlarni o'zlashtirishga hamda ularni yangi sharoitda ijodiy qo'llay olishga o'rgatadigan topshiriqlar ketma-ketligi qo'yiladi. Berilgan topshiriqlarni bajarish uchun o'quv algoritmi tarzida tayyorlangan talabalarni to'g'ri yechim tomon yo'naltirib boruvchi yozma "Yo'riqnoma" talab etiladi.

Chet tili (ingliz) fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishini tashkillash bo'yicha "Yo'riqnoma" o'rnida yangi "Talabalar uchun metodik tavsiyalar" qo'llanma shaklida taklif etildi va u talabalarning terminlar zahirasini kengaytirishga, yozma va og'zaki nutqini o'stirib borishga qaratilgan.

Talabalar uchun metodik tavsiyanoma 3 qismdan iborat bo'lib, uning tarkibiga aosiyl topshiriqlar, o'quv dasturiga to'la mos keladigan ketma-ket 12 ta mustaqil ishlar, o'quvchilar o'zlarini baholay olishiga imkon beruvchi baholash mezonlari kiritilgan.

Qo'llanmaga kiritilgan topshiriqlarni shartli tarzda ikkiga bo'lish mumkin: reproduktiv va ijodiy topshiriqlar:

1. Reprodukativ xarakterdagi topshiriqlarga o'qilgan matn bo'yicha nazorat savollariga yozma javoblar berish, og'zaki bayon qilish rejasini tuzish misol bo'la oladi.

2. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlarga esa o'qilgan yoki dialog bo'yicha yozma bayonnoma tuzish, chet tilidagi ma'lumotlarni qidirish va og'zaki ma'lumotnoma yoki referat tayyorlash kabilar misol bo'la oladi.

Mustaqil ish uchun berilgan topshiriqqa qo'yilgan maqsad, ish hajmi, mavzu va murakkabligiga qarab individual yoki guruh tomonidan bajarilishi mumkin.

"Talabalar uchun metodik tavsiyanoma" qo'llanmasiga kiritilgan aksariyat topshiriqlarning individual tarzda bajarilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, ular orasida guruh tomonidan bajariladigan topshiriqlar ham bor. Guruh topshiriqlarga juft-juft bo'lib berilgan kasbiy matn bo'yicha intervyu berishda, suhbatda va sahnalashtirishda uni qayta tuzish misol bo'la oladi.

Qo'llanmaga kiritilgan topshiriqlar amaliy hayotda uchraydigan turli sohalarga doir qilib tanlangan. Ular orasida ommabop texnika va transport, maishiy xizmat va savdo-sotiq, hattoki ingliz tilida ish yuritishga doir topshiriqlar mavjud.

Har bir mustaqil ishni bajarish uchun kamida 2 akademik soat vaqt ajratiladi, ularni bajarish va rasmiylashtirishga alohida yo'riqnoma keltirilgan. Matnlar qisqa va lo'nda qilib berilgan. Matn mazmunini tushunishga, tahlil etishga va mustaqil ishni bajarishga ko'maklashuvchi rasm va ko'rgazmali materiallar ilova qilingan.

Talabalar uchun metodik tavsiyanomaning 2-qismida mustaqil ish uchun berilgan matn, leksik va grammatik material bilan ishlash uchun umumiy tavsiyalar berilgan. Talabalar uchun chet tilini o'rganish bo'yicha zaruriy mehnat tartiblari o'rgatiladi. Og'zaki nutqni o'stirish va topshiriqlarni bajarishning tashkiliy shakllarini o'rgatadi. Yo'riqnomalar talabalarning ongli ravishda o'zlarining emotsional holatlarini boshqara olishlariga mo'ljallangan va shu bilan bir vaqtda bunday xarakterni tarbiyalaydi.

Qo'llanmaning 3-qismida kasbiy yo'naltirilgan 20 ta matn berilgan va ular ko'plab mustaqil topshiriqlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilari bilan ta'lim tajribasi natijalari, qo'llanmaga talabalar, o'qituvchilar va ota-onalarning bergan ijobiy baholari, ayniqsa, uning tarkibiga kiritilgan qiziqarli matnlar, ko'rgazmali materiallar chet tilini katta qiziqish bilan samarali o'zlashtirishlariga xizmat qilgan.

Shuningdek, pedagogik prinsiplar nuqtayi-nazaridan ta'kidlash mumkinki, metodik tavsiyanomalar o'qituvchining ko'proq vaqtini o'quvchilarning mustaqil qarashlariga, fikrlay olishiga, to'g'ri yechim topishiga, o'z qarashlarini himoya qilishiga doir muhim ijrochilik faoliyatiga rahbarlik qilishga sarflashiga imkoniyat yaratadi. Bunda talaba o'zining faoliyatini nazorat qilish, baholash va aniq qo'yilgan vazifani yechish bo'yicha o'zgartira olish orqali boshqarishni o'rganadi. Aks holda ko'zlangan maqsadga yetish yo'lida to'sqinlik qiluvchi jiddiy hatoliklar kuzatilishi mumkin.

Shunday qilib, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalarida mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirish mehnat bozori talablariga mos kompetentlikni shakllantirishning muhim yo'lidir. Yosh kadrlar uchun zaruriy bunday sifatlar ta'limga tizimli tarzda muammoli izlanish xarakteriga ega bo'lgan mustaqil ta'limni kiritish orqaligina shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. –T., 2013.*

2. *Т.Г.Сальникова. Методические рекомендации по организации и методическому сопровождению самостоятельной работы студентов. 2011. // http://metod._rekomend._po_samostoyat._rabote.doc. - 12.12.12.*

Nigora ERGASHEVA,
Farg'ona DU o'qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARGA CHET TILLARNI O'QITISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga chet tillarini o'rgatishning ta'limiy va didaktik o'yinlardan hamda o'qitishning samarali yo'llaridan unumli foydalanish haqida fikr yuritgan. Shuningdek, muallif chet tillarini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Chet tili, innovatsion texnologiya, ta'lim imkoniyatlari, multimedia o'yin metodi, nutq faoliyati, dars, pedagogik mahorat.

В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с изучением учащимися иностранного языка на начальном этапе образования с эффективным использованием образовательных и дидактических игр. Автор предлагает ряд рекомендаций по использованию дидактических игр при изучении иностранного языка.

Ключевые слова. Иностранный язык, инновационная технология, возможности образования, мультимедийное образование, метод игры, речевая деятельность, урок, педагогическое мастерство.

This article deals with issues related to the study of foreign language students in the initial stage of formation of productive use of educational and didactic games, there is provided the quality methodology.

Key words. Foreign language, innovative technology, the possibilities of education, multimedia education, method of play, speech activity, lesson, teaching skills.

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga chet tilini o'rgatishni yo'lga qo'yish jahon andozalariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarni o'rganish jarayonida mukammal o'qitish, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, faol o'qitish, o'yin texnologiyalari kabi pedagogik texnologiyalar ta'limni, shu jumladan, chet tillarni samarali o'zlashtirishni kafolatlaydi. Chet tillar o'quv predmeti xususiyatidan kelib chiqib, bir qancha fanlar bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Chet tillar o'quv predmetining asosini bu fanlar bilan o'zaro munosabat tashkil qiladi. Lingvistika, psixologiya, psixolingvistika va pedagogika ushbu fanlar jumlasidandir. Bugungi kunda zamonaviy chet tili o'qitish metodikasida lingvokulturologiya, kontseptologiya fan tarmoqlari rivojlanib bormoqda.

Chet tillar o'qitish mazmunini psixologiya fanisiz tavsiflab bo'lmaydi. Aynan psixologiya inson faoliyati va uning shakllanishi bilan shug'ullanadi. Boshlang'ich

sinflarga o'qishga qabul qilinuvchi bolaning 6-7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davri kichik maktab yoshi hisoblanadi. Quyidagi dars jarayonida egallanadigan yangi bilimlar kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun xosdir:

- xulq va faoliyatning ixtiyoriy tartibga olinishi rivojlanishining sifatli yangi darajasi;
- refleksiya, tahlil, harakatning ichki rejasi;
- voqelikni yangi bilish munosabatining rivojlanishi;
- tengdoshlari guruhiga moslashish.

Birinchi sinfdan boshlab chet tillarni o'rganish barcha bolalarga, ularning boshlang'ich qobiliyatlaridan qat'iy nazar, foydalidir, chunki u:

- bolaning psixologik funksiyalari rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, ya'ni xotira, diqqat, fikrlash, anglash, tasavvur va boshqalar;

- bolaning kommunikativ madaniyatini shakllanishi, dunyoqarashining kengayishi, his-tuyg'ularini tarbiyalanishiga, hamda umumiy nutq qobiliyatlarini rivojlanishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida, ona tilidagi muloqotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- chet tilini o'rganish orqali kichik yoshdagi o'quvchilar oddiy kommunikativ kompetentsiyani, ya'ni imkoniyat va talab darajasida til sohiblari bilan muloqot qilishni o'rganadilar;

- chet tillarni erta o'rgatish yuqori sinflarda uni davom ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga, kelajakda egallash muqarrar bo'lib kelayotgan, qo'shimcha chet tillarni o'rganish ishtiyoqini tug'diradi;

- o'zi uchun yangi bo'lgan tilda muloqot qilish orqali bolaning kichik yoshda umuminsoniy madaniyatga kirib kelishi chet tillarni erta o'qitishning tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatini asoslaydi; shu bilan birga, bola o'z tajribasiga qarab ish tutishi, o'z mentalitetini hisobga olishi va haqiqatni anglashi, o'rganilayotgan til madaniyatiga nisbatan o'z milliy madaniyatini yaxshiroq bilib olishiga sabab bo'ladi;

- chet tillarning boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar qatoriga kiritilishi, shubhasiz, amaliy yutuqlarga ega, chunki u bu bo'g'inda o'rganiladigan gumanitar fanlar doirasini kengaytiradi va boshlang'ich ta'lim bolalar uchun yanada quvonchli va jozibador bo'ladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda o'quvchilarni chet til darslariga qiziqtirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berilishi lozim:

- avvalo, har bir o'quvchini mustaqil bilim olishga o'rgatish, bilim olishning eng muhim talablarini egallash, aniq, xatosiz o'zlashtirib olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- darsning ta'limiy maqsadlarini belgilashda bilim, ko'nikma, malakalarning qay darajada o'zlashtirilishini rejalashtirish;

- tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar biri ikkinchisiga uzviy bog'langan holda belgilanishi;

- o'quvchini darsga, shu jumladan, fanga bo'lgan qiziqishining ortishida mavzularning uzviyligi va uzluksizligiga ahamiyat berish;

- darsda o'quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlari doirasini inobatga olgan holda bilimlarni o'zlashtirilishida qiziqarli tarixiy ma'lumotlar va muhim sanalar bilan bog'liq materiallar, mavzu doirasida amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirilishiga imkon beruvchi zamonaviy vositalardan, internet imkoniyatlaridan foydalanish.

Ta'limning asosiy maqsadi va metodlari bugungi kunda yangilanib bormoqda.

Bunda yaratilayotgan va joriy qilinayotgan dasturlar va darslarni jamiyatning muayyan talablari bilan bir qatorda o'quvchilarning barcha imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. 2013-2014 – o'quv yilidan boshlab 1-sinflarda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rgatish didaktik o'yinlar hamda og'zaki nutqni rivojlantirish darslari vositasida tashkil qilinmoqda. Boshlang'ich sinflar uchun "Kid's English" nomli 1-sinflar uchun darslik majmuasi yaratildi. Mazkur kompleks darslik, "O'qituvchi kitobi" (*Teacher's book*) multimediali o'quv resurs ilova, "O'quvchi kitobi" (*Pupil's book*) va ota-onalar uchun metodik tavsiyanomalardan iborat.

Boshlang'ich sinf chet til darsliklariga ilova tarzida taqdim etilgan multimedia ilovasi o'quvchilar fikrlash doirasini kengaytiradi, darsda taqdim etilgan materiallar o'quvchi tomonidan oson o'zlashtiriladi. Proektor ekranida diqqat bilan ko'rganlari ta'siri ostida chet tillarni o'rganish jarayonida o'quvchining:

- sensor tarbiyasi (rang, shakl, kattaroq, kichikroq, keng, baland va h.k.),
- nutqi (so'zlar, turli xil iboralar-ma'nolar),
- xotirasi (qisqa muddatli, uzoq muddatli),
- emotsiyalari (yoqtirish, kulish, ranjish, hamdardlik bildirish va h.k.),
- adekvat tarzda rolga kirib (masalan, qatta yoshli bobo, o'rta yoshli ayol, yosh qiz, turli xil hayvonlarning obrazlarini yaratish) mahorat bilan ijro etishini ko'rish – yangi texnologiyalarning ta'sirli dalilidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida chet tillarini o'rganishda darsliklardan tashqari, turli mamlakatlarda chet tillarni o'rgatishga qaratilgan, bola tomonidan tilning nazariy o'zlashtirilishiga asoslangan pedagogik-psixologik konsepsiyani yodda tutish lozim. Ushbu nazariyaga muvofiq, maqsadga yo'naltirilgan ta'limsiz, taqlid yo'li bilan bolalar chet tilni katta yoshdagilar nutqiga taqlid qilish bilan o'rganadilar. Bu so'zlar bilan bolaga ko'plab til birliklarini taqdim qilinmaydi, nutq namunalarini bilan uni chalg'itmaydi, yaxshi rivojlanayotgan 6-7 yoshdagi bola mustaqil ravishda fikrini bayon eta olishini, 7-8 yoshdagi bola nutqida qiyin gaplar paydo bo'lishini hisobga olgan holda unga grammatik qoidalarni tushuntirish shart emas. Ikkinchi tilni esa ushbu nazariyaga muvofiq, bola birinchi til kabi o'zlashtiradi. O'quvchilar til materialini yaxshi va puxta o'zlashtirishlari uchun darsni qiziqarli o'tkazish lozim.

O'quv faoliyatni tashkil etishda o'quv usullarni tahlil eta turib, rolli o'yinlardan foydalanish, ayniqsa, ta'limning boshlang'ich bosqichida ayrim noan'anaviy usullarini qo'llash hamda she'rlar, topishmoqlar, yuqori sinflarda qo'llaniluvchi rebuslar, krossvordlar, testlardan foydalanish mumkin.

O'yinlar yordamida talaffuz qayta ishlanadi, leksik va grammatik material faollashadi, tinglab tushunish ko'nikmalari, og'zaki nutq rivojlanadi. O'yin jarayonida bolaning ijodiy, fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ushbu jarayonda qanday harakat qilishga, gapirishga, g'olib bo'lishga o'rgatadi. Darsdagi har qanday faoliyatni o'yin elementlariga aylantirish mumkin, zerikarli mashg'ulotni ham zavqli o'tkazish mumkin. Aynan o'yin chet tillarni o'rganishga kuchli xohishni paydo qila oladi. Barcha o'qituvchilar uchun chet til darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'yinlar juda ko'p, ular ta'limning boshlang'ich bosqichida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun qiziqarlidir.

O'yinlarni bir necha turlarga ajratish mumkin:

1. Harflar o'yini.
2. So'zlar o'yini.
3. Sintaktik o'yinlar.
4. Matnlar bilan ishlash o'yini.
5. Grammatik o'yinlar.
6. Poetik o'yinlar.
7. Korrektirovka o'yinlar.
8. Topishmoqlar, rebuslar.

Bu tasniflash quyidagicha kengaytirilishi mumkin: so'zlar, gaplar va matnlar ham leksik va grammatik, stilistik, orfografik hamda fonetik o'yinlar darajasida bajarilishi mumkin. Darslarda o'yinlarni qo'llash jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'yinlar shaklini tanlash pedagogik va didaktik asoslangan bo'lishi;
- ko'p sonli o'quvchilarni qamrab olinishiga e'tibor berish;
- o'yin o'quvchilarning til imkoniyatlariga muvofiq kelishi;
- til o'yinlari chet tilda olib borilishi kerak;
- o'yinlar tizimli ta'limni va intensiv mashg'ulotlarni o'rnini bosa olmasligini unutmash kerak.

Ular o'rganilgan bilimlarga asoslanadi, ularni me'yorda, maqsadli va rejali qo'llanilishi lozim.

AVS–games. Koptokni o'quvchilar bir-birlariga otish orqali alfavitni takrorlaydilar:

- koptokni ulotqiruvchi birinchi o'quvchi alfavitdagi xohlagan harfini aytadi, keyingi o'quvchi uni davom ettiradi;
- “telegrammani qabul qiling!” – tez sur'atda matnni harf bo'yicha berish;
- “sirli xat” – shifrlangan matn mavjud bo'lgan kartochkalar “xatlar” bilan beriladi (har bir harf ma'lum songa muvofiq keladi – A-1 V-2 va hok.).

Word games:

- “Shainword” – har bir so'zning oxirgi harfi keyingi so'zning birinchi harfi hisoblanadi;
- “Crossword” – doskada, vertikal bo'yicha krossvordda gorizontaal bo'yicha yoziladigan so'zning birinchi harfini o'z ichiga oluvchi qiyin so'zlar yoziladi (so'zlar bitta mavzuga mos kelishi kerak).

Grammar games:

- “The Gate” – ikkita kuchli o'quvchi qo'llarini xuddi “darvoza” kabi tutgan holda sinfga yuzlanishadi, qolgan o'quvchilar esa ular oldiga kelib ma'lum tizim bo'yicha savollar (nutq namunasi, mavzu) beradi. Savolning to'g'ri berilishiga muvofiq “The gate 15 open” javobi beriladi.
- “Guess it” – rang, predmet, joylashuv va umumiy savollar berish orqali aniqlash mumkin.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida ta'limiy va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirib, taqdim etilgan til materialini oson o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Umumta'lim maktablarida, 2-sinf dan o'quvchilar chet tilni harflarni, nutq faoliyati turlari yordamida o'rganishni boshlaydilar. Ushbu davrga kelib, o'quvchining abstrakt tafakkuri tez rivojlanadi. Har bir sinfda o'rgangan fanlari va o'quv materiallari vositasida induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish maktab o'quvchilari xususiyati

hisoblanadi. Biror bir o'rganayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqarish dastlab idrok qilish jarayonida amalga oshadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchisining tafakkurida asosiy o'rin egallaydi. An'anaviy usulda o'quvchilarga chet til o'rgatilganda, grammatik qoidalar bilan o'rgatish amalga oshirilgan. Mavzuni mustahkamlovchi mashqlar ham aynan o'tilgan grammatik mavzuni mustahkamlashga qaratilgan. Hozirgi kunda o'quvchilar psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda dars jarayonini olib borish chet til o'qitish metodikasida dolzarb vazifaligini hisobga olgan holda quyidagilarni taklif etish mumkin:

- o'quv rejasini optimallashtirish;
- ta'lim mazmuni tarkibiga chet tillarining kiritilishi bilan bog'liq tarzda ona tili, rus tili hamda chet tilidagi o'quv materiallarini ilmiy tadqiqot natijalariga tayangan holda o'zaro muvofiqlashtirish;

- ona tili, rus tili va chet tili darslarida o'quvchilarning yozuv ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida imlo qoidalarini qiyosiy o'rganishga qaratilgan tavsiyalar va ishlanmalar ishlab chiqish;

- taqdim etilgan o'quv yuklamalarini o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini tashxislash natijalariga tayangan holda pedagogik-psixologik umimlashtirish va xulosalarini lingvodidaktik jihatdan asoslash;

Chet tillarni o'qitish jarayonida ta'limiy maqsadga erishishda, usullarni tanlashda o'quvchilar ijodiy faolligi, tashabbuskorligi, chet tilidan egallagan bilimlarini hisobga olgan holda metodlarni to'g'ri tanlash o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Dars jarayonida o'quvchilar oldiga qo'yilgan muammoni hal etishda o'quvchilarni faol, mustaqil faoliyat yuritishga yo'naltirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. *Psixologiya*. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1994.
2. Nosirov A. *Zamonaviy bilim va intellektual salohiyat. Mamlakatimizda yoshlarning xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.* // *Xalq so'zi*. – № 80 (62-63). 2015-yil 23-aprel.
3. Jalolov J. *Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik*. – T.: O'qituvchi, 2012.
4. Hayes D. *Factors influencing success in teaching English in state primary schools.* // *British council*. – 2014. – P. 32.

Gulbahor ABDUJABBOROVA,
Bekobod tumani Pedagogika kasb-hunar
kolleji o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TA'LIM JARAYONIGA TAYYORLASHNING FIZIOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini bilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif birinchi sinf o'quvchisini fiziologik jihatdan zo'rqiqtirmay ta'lim jarayoniga moslashtirib olishda ota-onalarga ham bir qancha tavsiyalarni berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Pedagog, o'quvchi, ota-ona, moslashuv jarayoni, sinf mashg'ulotlari, didaktik qobiliyat, uy vazifasi.

В данной статье изложены вопросы изучения и учета индивидуальных особенностей учащихся начальных классов. Приведены рекомендации по совместной деятельности педагога и родителей в целях недопущения физиологических перегрузок учащихся первого класса.

Ключевые слова. Педагог, ученик, адаптация, классные занятия, дидактические способности, задача.

This article describes the study and taking into account individual peculiarities of pupils of initial classes. recommendations for the joint activity of teacher and parents in order to prevent physiological overload of pupils starting grade.

Key words. Teacher, student, adaptation, classroom activities, teaching ability, task.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi-yoshlarining barkamol shaxs sifatida yetishishi, jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan isloxo'tlar ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yimoqda. Bu albatta pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu maqsadda ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq etilayotgan dasturlar natijasida farzanlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli dono va albatta, baxtli bo'lishiga zamin yaratilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq".

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatish lozim.

Ta'lim jarayonida o'quvchini mustaqil bilim olish jarayoni shakllanib borishi bugungi kunning talabidir.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'rni beqiyos bo'lib, bunda ayniqsa uning bir qator fazilatlarini, hislatlari, pedagogik qobiliyatlari ahamiyatlidir.

Bola maktabgacha bo'lgan davrda qanchalik shug'ullangan bo'lmasin, baribir mashg'ulotlar 4 – 5 ta uzluksiz darsning o'rnini bosa olmaydi. Chunki endi dars paytida har kuni emotsional jihatdan jadal, intellektual va jismoniy yuklamalar (qimirlamasdan uzoq vaqt o'tirish) bola uchun qiyinchilikni talab etadi. Organizm bir paytning o'zida yuz beradigan ko'plab o'zgarishlarga moslashishi shu darajada mushkulki, bu davrni fiziologlar "fiziologik bo'ron" deb ham atashadi.

Ota-onalar birinchi sinfga qadam ko'ygan farzandining kunlik rejimiga rioya qilsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi bular: 10 soat uyqu, 2,5 soat sayr, 5 soat maktab, 1,5 soat ovqatlanish va gigiyena taomili, hech bo'lmaganda 0,5 soat o'yin, 2 soat uy vazifasini bajarishga, qo'shimcha mashg'ulotlar va ularga borish hamda qolgan hayotga 3,5 ajratiladi. Bu yerda televizor ko'rish, kitob o'qish, qarindoshlar va oila a'zolari bilan o'tkaziladigan muloqot hisobga olinmagan.

Bolalar bog'chasida g'urur bilan "Hammasini o'zim qila olaman" shiori ostida vazifalarni mustaqil uddalay olgan bola ham birinchi sinfga borganida yordamga muhtoj bo'ladi. Buning hayron bo'ladigan joyi yo'q, chunki endi uni o'qituvchisi – ya'ni mutlaqo begona bo'lgan kishi birinchi marta uni baholaydi-da. Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'qituvchisiga hamda o'z farzandini ishonib, uni jamiyatga kerakli inson qilib voyaga yetishishini chin dildan xohlagan ota-onalar oldiga ham katta ma'suliyat yuklaydi.

Birinchi sinf o'quvchisini ilm olish jarayoniga moslashtirishda ota-onalarning o'rni beqiyosdir. Ular o'z farzandlariga o'qituvchisining ijobiy fazilatlarini aytib o'tish bilan bir qatorda faktlar asosida ko'rsata bilishlari ham o'ta muhimdir masalan: o'qituvchisi yaxshi inson ekanligi, o'qitgan o'quvchilari jamiyatda o'z o'rnini topib, biri olim, biri sportchi, biri yaxshi davlat arbobi bo'lganligini ko'rsatib berishlari mumkin. Bu o'z navbatida bola ruhiyatida o'qituvchisiga nisbatan ishonchi yanada oshadi. Olib borilgan tushintiruv ishlari bilan bir qatorda bolaga, o'z o'qituvchisidan doim maslahat so'rab unga suyanish mumkin ekanligini aytib o'tmoq maqsadga muvofiqdir.

Dars tayyorlash jarayonida qiyin masalalar yechimini topishda bolaga ota-onasi yordamlashsa uning ongida ota-onasi hamma muammoni yecha olishi mumkinligi tushunchalari paydo bo'ladi, ularni hurmat qilishga o'rganadi. Farzandingizga u hammasini mustaqil ravishda bajara oladigan darajada qobiliyatli ekanini tushuntiring. Ammo "Agar mutlaqo uddalay olmasang, mendan so'rashing mumkin", deb ogohlantirib ham qo'ying.

Past baho olgan kunlari esa unga kelasi safar darsni yaxshi o'zlashtirib olishi kerakligini tushintirib, a'lo baho olishga undash lozim. Buning natijasida bola darslarini o'zlashtirib, ota-onasini quvontirishga harakat qiladi.

Maktabga qadam qo'ygan bolakayning o'quv yilini ilk kunlaridan qo'lidan yetaklab iliq tabassumi bilan sinf xonasiga olib kirgan o'qituvchisiga nisbatan mehr tuyg'ulari shakllana boshlaydi. Endi bola o'quv maskanida mehnatning yangi turi o'qish va bilim olish bilan shug'ullanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan, tashqi ta'sirga beriluvchan bo'ladi. Ularda ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirishda butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bola bu davrda o'qituvchisining har bir gapi, har bir xatti-harakati, ta'sir ko'rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi, chunki o'quvchilar bu paytda ularga qattiq ishonib, uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, talablariga hamisha amal qiladilar.

Albatta bu davrda bolaning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi yuqori bo'ladi, shuning uchun birinchi sinf o'quvchisini bilim olishga qaratilgan o'tkir nigohini susaytirmaslik pedagog oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Buyoshda bolaning tabiatijuda o'zgaruvchan bo'lib, o'quv yilining oxirida maktabga borish ishtiyoqi yo'qolib, bog'chaga borgan vaqtlaridek o'ynagisi va hatto tushlik paytida uxlashga ham tayyor bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga o'z ustida ishlash, izlanish, jahon ta'lim standartlariga mos zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars bera olish mahorati rivojlangan bo'lishi o'ta muhim masaladir. Boshlang'ich sinfda o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta'lim jarayonida o'quv mavzularining ko'p qismini eslab qoladi. Buning natijasida o'quvchi xotirasi takomillashadi.

N.S. Leypesning fikricha, yosh kattalashgani sari aqliy rivojlanish darajasi yuqorilani o'qitish samaradorligi pasayib boradi. O'qitishning eng yuqori ko'rsatkichlarini odatda maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda kuzatish mumkin. Ayrim hollarda kichik maktab yoshidagi bolalarning fanlarni o'zlashtirishda past ko'rsatkichlari kuzatiladi. Buni bolalarning o'quv mavzularini to'liq esda saqlolmasligini xotirasining kuchsizligi bilan izohlash mumkin. Bunday vaziyatlarda ayniqsa dastlabki 1–2-sinflarda bolalarga esda saqlashning samarador usullarini o'rgatish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ham o'qituvchi faoliyatiga bir qator talablar qo'yiladi. Mazkur talablarning bajarilishi natijasida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan faoliyati hamda umumiy o'rta ta'lim muassasiga moslashish jarayoni samarali rivojlanadi.

Boshlang'ich sinfda dars beradigan pedagogning didaktik qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi kerak. Ushbu qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi bolaga o'quv mavzusini osonroq va tushunarliroq qilib yetkazib bera oladi. Chunki bolaning o'qish jarayonida uning uchun qiyin va murakkab hisoblangan yozish, harflarni talaffuz qilish, takrorlash, bo'g'inlarni qo'shib o'qish kabi vazifalarini aniq va soddaga yetkazib berish eng birinchi masalalardandir.

Pedagog o'z ish rejasida o'quvchilarga bilim olish faoliyatining usullari, tamoyillari, interfaol metodlar orqali o'qitish yo'llarini o'z oldiga maqsad qilib olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi. Ushbu jarayon bolaning faolligini oshirishi bilan birga uni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga va umimlashtirishga ko'mak beradi.

Darslarni qiziqarli jonli va quvnoq bo'lishiga erishish uchun pedagog quyidagilarga amal qilishi lozim:

-
- darslarni yaxshi kayfiyatda o'tishga harakat qilish kerak. Chunki bolalar o'qituvchisining shijoatiga tirishqoqligiga taqlid qilishadi;
 - o'qituvchi vazmin, o'zini tuta biladigan, o'quvchilarining maqtashga loyiq fazilatlarini ayta biladigan, tengdoshlari bilan munosabatlarini yaxshilovchi ko'prik vazifasini o'ta bilishi;
 - pedagogning gapirish ohangi ishonchli va yumshoq bo'lishi va aslo bo'y-sundirishga moyil bo'lmasligi;
 - dars o'tish jarayonlarida bolaga tanbeh berish (tezroq bo'l, sen tufayli hamma sinfdoshlaring qolib ketdi) umuman mumkin emas;
 - bolalarga biror yangi mavzuni tanishtirishda ular uchun yangilik bo'ladigan va ularning qiziqishlarini oshiradigan tadbirlarni qo'llash kerak;
 - sinf mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat va e'tiborini susaytirmaslikka harakat qilish zarur. Buning uchun berilayotgan mavzu turli-tuman takrorlanmas bo'lishi talab etiladi;
 - bolalar tabiatan qiziquvchan bo'lishadi. O'qituvchi bolalarga o'tilayotgan mavzuni qiziqtirib qo'yishi kerak. Shundagina ular to bilim olmagunlariga qadar o'qituvchini tinch qo'yishmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki darslarni qiziqarli tashkil qilishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ustida ishlashi va tinmay izlanishi talab etiladi. Pedagogning bunday mahorat bilan dars o'tishida o'quvchilarning mavzularda olgan bilimlarini chuqurlashtirishlari, fanga bo'lgan qiziqishlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: "Ma'naviyat", 2008
2. Nishonova Z., Alimova G. *Bolalar psixologiyasi va uni oqitish metodikasi*. – T., 2006.
3. Божович Л.И. *"Личность и ее формирование в детском возрасте"*. – М.: Просвещение 1968 г.

Nasiba SOBIROVA,
Xorazm viloyati XTXQTMOI
katta o'qituvchisi

DOSTONLARDA BADIY TASVIR VOSITALARINING ISHLATILISHI

(Xorazm xalq dostonlari misolida)

Annotatsiya

Maqolada dostonlarda ishlatiladigan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi poetik ko'chimlar tahlil qilinib, ularning asar badiiyatida tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, muallif dostonlardan parchalar keltirib tahlil qilib o'tgan.

Kalit so'zlar. Millat, voqea, doston, metafora, metonimiya, sinekdoxa, poetik ko'chim.

В статье анализируются такие изобразительные средства, как метафора, метонимия, синекдоха, и определяется их место в художественной речи. Также приведены примеры анализа отрывков из дастанов.

Ключевые слова. Нация, событие, дастан, метафора, метонимия, синекдоха, поэтические переносы.

The article is devoted to analyzing the poetic devices such as metaphase metonymy and synecdoche and their role in the work is brightened. Also examples of analyses of fragments from dastan were given.

Key words. Dastan (epic poem), metaphors, metonymy, synecdoche, poetic device.

Badiiy adabiyot hayotni yorqin tasvirlashga asoslangan. Shu sababli ijodkor o'z nutqini ifodali, go'zal, sodda va tushunarli amalga oshirish uchun turli badiiy vositalarga murojaat qiladi.

Xalq ijodiyotida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Dostonlarda voqealar tizimi va unda ishtirok etadigan obrazlarning ichki kechinmalarini chuqur hayajon, orqali yetkazish uchun turli badiiy vositalardan keng foydalaniladi. Shulardan eng faol ishlatiladigan ifoda vositasi majozlardir. Badiiy vositalarning barchasi majozga asoslangan bo'lib, o'xshatish usuli, shakliga qarab ular sifatlash jonlantirish, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi turlarga bo'linadi.

Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan ifoda vositalarining dostonlarda qo'llanilishi eng qiziqarli tadqiqot mavzularidan biridir.

Majozlar tevarak-atrof, doston paydo bo'lgan muhit bilan mustahkam bog'liqdir. Shu sababli ularning paydo bo'lishi o'sha muhitdagi hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, maishiy hayot, tabiat hodisalari, bilan aloqador bo'lgan qarashlar asosida yuzaga kelgandir.

Ma'lumki, Xorazmda tarqalgan ishqiy dostonlarda ham asosan shahzoda va malikalar, shohlarning qasr va ayvonlari ta'riflanadi. Ana shu sababga ko'ra, bu

dostonlar tarkibidagi majozlar asosan go'zallik olami bilan bog'lanadi. Hatto yigitlarga ishlatilgan ifoda ularning jismoniy qudratiga emas, balki qiyofasining go'zalligiga ayitilgan so'zlardir.

Xalq og'zaki ijodiyoti asarlaridagi hayot, janrlarida hayot, muhit va turmush bilan aloqador majozlar ko'plab uchraydi.

Majozlarning negizida tashbex san'ati yotadi, ular ko'chim hosil qiluvchi so'zlar orqali ro'yobga chiqadi.

Xalq og'zaki ijodi asarlaridagi poetik ko'chimlar haqida Aristotel davridan boshlab to hozirgacha ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda dostonlar ichidagi poetik ko'chimlarning epik tasvir, epik bayon va ifoda jarayonidagi o'rni xususida fikrlar bildirilgan.

Poetik ko'chimlarning keng tarqalgan turlaridan biri metaforalardir. Metafora – ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan asosiy poetik ko'chimdir. Uni ba'zan qisqa o'xshatish deb ham nomlashadi. Buning asosiy sababi ushbu ifoda vositasida qo'shimcha olmasdan masala mohiyatiga ishora qilish xususiyati ko'proq namoyon bo'lishidir. Xorazm dostonlarida ishlatilgan metaforalar umum o'zbek dostonlaridagi ishlatilgan metaforalardan keskin farq qilmasa-da, muayyan o'ziga xosliklarga ega. Ayniqsa, ishqiy dostonlarda ma'shuqa bilan bog'liq intim xarakterdagi metaforik ifodalar tashkil etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, metaforalarda o'xshatishlardagi qo'shimchalar va ko'makchi so'zlar ishlatilmaydi.

Dostonlarda ishlatilgan metaforalar ijrochilarning badiiy-estetik dunyoqarashlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, oshiq va ma'shuqaning yoki tabiat olamining betakror go'zalligini ixcham iboralar orqali ifoda qilishda muhim rol o'ynaydi.

Shohsanam qiz **mohlar** ichra **mohidur**,

Oyu-yil chekkanim shuning ohidur.

Ushbu namunaning o'zida ikkita poetik ko'chim jamlangan. **Mohlar** so'zi negizida qizlar guruhi nazarda tutilib, metonimiya hosil qilgan bo'lsa, **moh** so'zi Shohsanam qiyofasiga nisbatan qo'llanilib, metafora ro'yobga chiqqan.

“Oshiq” turkum dostonlari sevgi-sarguzasht voqealari bilan aloqador bo'lganligi sababli ularda ma'shuqa go'zalligiga e'tibor ko'proq qaratiladi. Ushbu jarayonda aksariyat hollarda osmon jismlari bilan bog'lanadi:

Gul yuzinga tushmish **shams** ila **qamar**,

Egniga turli xil murassa kiyar.

Misradagi **shams** ma'shuqa yuzining qizilligiga ishora qilsa, **qamar** uning oppoq chehrasini ifodalashga safarbar qilingan buning natijasida go'zal metafora paydo bo'lgan.

Metaforalarda o'xshatish obyekti sifatida turli daraxtlar, mevalar, gullar, qimmatbaho predmetlar tanlanadi:

Oqar suvlarning solmasi,

*Ikki yuzining **olmasi**.*

*Bulbul edim ayro tushdim **gulimdin**,*

Munisimdin, hamdamimdin, elimdin,

Shul qaro ko'zinga banda bo'layin,

*Man bir **tillo uzuk** sanda bo'layin.*

Birinchi misolda chehra, yuz tasviriga nisbatan **olma**, ikkinchi misolda yor qiyofasiga ishora safitida **gul** tanlangan. Oxirgi misolda esa ma'shuqa o'zini **tillo uzuk** sifatida baholab, yoriga iltifot ko'rsatayotir.

Metaforalarning obyekti juda keng doirani tashkil etadi. Dostonlarning nasriy qismida ham metaforalarga murojaat etiladi.

Dostonlarda metafora ishlatishning yana bir faol turi jonlantirish usulidan foydalanishdir. Bu usulning yorqin ko'rinishi “Go'ro'g'li” turkumi dostonlarining “Qirq minglar” shoxobchasida namoyon bo'ladi. Berilgan she'riy parchalarda yoy, o'q, pichoq, nayza kabi urush aslahalari gapirtirilib, she'rda ajoyib bir tasvir vujudga keltiriladi:

*Yoy aytar: belim egarman,
O'q aytar: borib tegarman,
Qilich aytar, man porliman,
Porlab havoda shorliman,
Qalqon aytar: man olaman,
Taslim bo'lmasang baloman,
Shashpar aytar: maning ishim,
O'n ikki bo'lakdur boshim,
Pichoq der: men ham yarog'man,
Qo'ltiq ostinda turarman.*

She'riy parchada predmetlarning tilga kirishi ifodaviylikni kuchaytirib, obrazlilikni yuksak darajaga ko'taradi, tinglovchida jonli tasavvurni yuzaga keltiradi.

Binobarin, dostonlarda qo'llaniladigan metaforalarning barchasi matnda voqealar oqimiga mos tanlanib bo'yoqdor mazmun bilan bog'liq holda ro'yobga chiqadi.

Metonimiya yunoncha so'z bo'lib, qayta nomlash, degan ma'noni bildiradi va badiiy nutqda keng qo'llaniladi. Bu usulda biror narsa yoki hodisa boshqacha nomlash orqali ro'yobga chiqadi.

Dostonlarda bu ifoda vositasi ham faol ishlatilgan:

*Navro'z bo'lib, bo'yla chiqdi **go'zallar**,
Go'zallar, saylingiz muborak bo'lsin,
Alband boqmas edim kiyika, boza,
Nomamni yetkuring shul **sarvinoza**,*

Birinchi namunadagi **go'zallar**, ikkinchi misoldagi **sarvinoz** so'zlari qizlar ma'nosini anglatadi.

Ayrim hollarda metonimiya birikma shaklda ko'zga tashlanadi:

*Jafo tig'in yorga solgan,
Qora bag'ri qonni keltir.*

Ikkinchi misradagi **qora bag'ri qonni keltir**, birikmasi Shohsanam nazdida G'aribjonni anglatadi.

*Tushimda bir **kosa** ichdim qo'lingdin,
Mening so'zim: quchsam sening belingdin.*

Ushbu misralardagi kosa so'zi may ma'nosida qo'llanilib, metonimiya hosil qilgan. Metonimiyaning yana bir ko'rinishi **sinekdoxalardir**. Bu ko'chimda qismni aytish orqali butunni yoki butunni aytish orqali qismni anglatuvchi so'zlar qo'llaniladi:

*Sanam elchi ayla yubordi bizi,
Harom ekan senga yedirgan **tuzi**.
O'zi uchun olib bordi **Qozog'a**,
Ul meni solondur cho'x-cho'x balog'a.
Uch ming **podasi** yaylovda kezar,
Uch yuz machit bordur bari lolazor.*

Ushbu namunalarning birinchisida **tuz** so'zi qismni bildiradi va ovqat ma'nosini anglatadi.

Ikkinchi misolda "Qozoq" so'zida millatni aytish orqali makon ko'zda tutilgan. Oxirgi misolda aksincha butuni aytish orqali qismni anglatish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Chunki uch yuz ming poda bo'lmaydi. Bu so'z orqali mol, qo'y kabi hayvonlar anglaniladi.

*Bir salotin bo'ylim sallonib keldi,
Ko'zimga sotashdi xoli **gurjining**.*

Ushbu misralardagi gurji so'zi millat ma'nosiga ega bo'lsa-da, matnda gurji millatiga mansub bo'lgan qizni anglatadi.

Poetik ko'chimlar dostonni ijro qiluvchi baxshi va xalfalar nutqining barkamol, sodda, ixcham va ifodali chiqishida asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Poetik ko'chimlar voqealarni to'laqlonli va bo'yoqdor chiqishda, asar g'oyasining mukammalligini oshirishda, obrazli ifodani kuchaytirishda eng muhim badiiy vosita sifatida e'tiborga loyiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, poetik ko'chimlarda har bir xalqning milliy mentaliteti o'z aksini topadi. Bu vositalar asosan, badiiy nutqda so'zni tejash tamoyili negizida ro'yobga chiqadi. Ularning paydo bo'lishi ibtidoiy hayot qadar qadimiydir. Chunki, bu ifoda vositalarida insoniyat hayotining ilk bosqichlaridagi ishonch va e'tiqodlar saqlangan. Biz tilga olgan poetik ko'chimlar hozirgacha saqlanib kelayotgan inson nomlarini boshqacha atash kabi urf-odatlariga borib bog'lanadi. Ushbu qadimiy aloqadorlikni o'rganish xalqimiz tafakkurining tadriijiy takomilini yoritib berishda muhim omil bo'lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshmatov X.Q. O'zbek xalq dostonlarida poetik ko'chimlar. NDA.—T., 2002
2. Mirzayev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. —T.: "Fan", 1968.
3. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. —T.: "Fan", 1969.
4. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. —T.: "Fan", 1978.
5. Turdimov Sh.G'. O'zbek xalq lirik qo'shiqlarida poetik ramz. Filol. Fan. Nom... diss. Avtoref. —T., 1987.
6. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский-народный героический эпос. — М.: ГИХЛ, 1947;.

Risolat RUSTAMOVA,

Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi katta ilmiy xodimi, p.f.n.

OILADA BOLALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada oiladagi keksalar bilan o'zaro munosabatlar, oilaviy an'analar va qadriyatlar orqali oila ma'naviyatining shakllanishi, farzand ma'naviy, axloqiy tarbiyasiga ta'siri va roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ma'naviyat, oila, keksalar, an'ana, qadriyat, axloqiy tarbiya, munosabat, tahlil.

В статье анализируются взаимоотношения детей в семье с представителями старших поколений, определяется роль семейных традиций и ценностей в формировании духовности семьи и духовно-нравственном воспитании детей.

Ключевые слова. Духовность, семья, старшее поколение, традиции, духовно-нравственное воспитание, отношение, анализ.

The article analyzes the relations with the representatives of old generations, the role of family traditions and values in shaping the spirituality of the family and the spiritual-moral education of children.

Key words. Spirituality, family, old generations, traditions, spiritual and moral education, attitude, analysis.

Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida keksalarning oila ma'naviyatini shakllantirish va ma'naviy tarbiyadagi roli ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bugungi kunda mamlakatimiz aholisining o'rtacha umr kechirish davomiyligi 73 yoshdan ortgani munosabati bilan keksa bobolar va momolarning mamlakatimiz aholisi tarkibidagi ulushi ortib borayotganligidir. Hozirgi kunda 10-15 yil avvalgiga qaraganda, oilalar va ko'cha-ko'ylarda keksa avlod vakillari borgan sari ko'proq uchraydi. Keksalar miqdorining ortib borishi va keksalarga hurmat tarixiy-milliy qadriyatlarimizdan ekanligi, mamlakatimizda keksalarning ma'naviyatni rivojlantirish va ma'naviy tarbiyadagi roli ortishiga olib kelmoqda.

O'zbek oilalarida bobolarga va momolarga alohida ehtirom ko'rsatiladi. Ana shu ehtirom keksa avlodning yosh avlod tarbiyasida muhim rol o'ynashini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbek oilalarida shunday an'ana mavjudki, ko'pgina xonadonlarda, ayniqsa, qishloq joylardagi xonadonlarda bir necha avlod vakillari istiqomat qilishadi. Ana shunday oilalarda keksa avlod vakillari bolalar tarbiyasida, ayniqsa, katta rol o'ynashadi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, o'rta avlod vakillari, ya'ni oiladagi bola-

larning ota-onalari ishda bo'lishganda, bolalar bobo va momolar ixtiyorida qolishadi. Xalqimizning "O'rikning mevasi shirin, mevasidan mag'zi shirin" degan maqoli bor. Bunday munosabatni keksa avlod vakillarining ko'pchiligi bilan suhbatlashganda sezish mumkin. Bobo va momoning alohida muhabbati bola tarbiyasida juda muhim rol o'ynaydi. Psixologiyada o'tkazilgan qator tadqiqotlar ko'rsatishicha, chaqaloqlik va bolalik davrlarida yetarli muhabbat sezmagani bolalar voyaga yetganida, ko'pincha qo'pol, xudbin, boshqalarni hurmat qilmaydigan bo'lib shakllanar ekan. Keksalarning bolalarga muhabbati bolalarning bobolarga va momolarga munosabatida ham aks etadi. Shuning uchun, ko'pincha, nevaralar bobo va momolariga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lishadi.

Turli avlod vakillari birgalikda yashaydigan oilalarda keksalarning bola tarbiyasidagi muhim roli shunda ham namoyon bo'ladi, ota-onalarning o'z ota-onalariga, ya'ni bolalarning buvi va buvilariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bolalarga ibrat vazifasini bajaradi. Ular ota-onalarining o'z ota-onalariga qanday muhabbat bilan munosabatda bo'layotganini ko'rib, ularning nafaqat ongida, o'z ongida ota-onani hurmat qilish zarurligi to'g'risida muayyan yondashuvlarni shakllantiradi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlariday, oilada ota-onalariga hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lishlari – kichik yoshdagi bolalarda ham shunday munosabatni, chuqur va kuchli qarashni shakllantiradi. Endi, ularning nazdida, ota-onaga alohida hurmat ko'rsatish – insonning muhim belgisiga aylanadi.

"Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham, aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi".

Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli, qator oilalarda nevaralar va bobolarning skayp orqali yuzma-yuz ko'rishib, suhbatlashib turishi yuz bermoqda. Ko'rinib turibdiki, axborot texnologiyalarining rivojlanishi oilaviy munosabatlarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bunday ta'sir yosh avlodning tarbiyasi samarali bo'lishiga o'zining ijobiy hissasini qo'shmoqda. Bunday holat oilalarda ayniqsa dam olish kunlari va ta'til kunlari nevaralarning bobo va momolar bilan alohida munosabatlari jonlanishi va mustahkamlanishiga katta ta'sir o'tkazadi.

Yosh oilada to'ng'ich farzandning tug'ilishi yangi vujudga kelgan ota va onaning mas'uliyatini orttiradi. Shuning uchun aytish mumkinki, yosh oilaning alohida hovli yoki kvartiraga ko'chib chiqishi, ularning to'la mustaqil bo'lganini anglatmaydi. Gapning sirasini aytganda, o'zbek oilalarida oila qurgan yoshlar o'z ota-onalaridan to'la mustaqil bo'lishga intilishmaydi ham. Ular o'z ota-onalarini tez-tez yo'qlab turishadi, bola tarbiyasi va boshqa masalalar bo'yicha ulardan maslahatlar so'rab turishadi.

O'zbek xalqida qadimdan shunday an'alar mavjud ediki, unga ko'ra, ota-onalar keksalar oldida bolalarni erkalatishmas, hatto qo'lga ham olishmas edi. Bu an'ananing mazmuni bolalar va ularning tarbiyasini keksalarga to'la ishonib topshirish edi. Mazkur an'ana hozir ancha unutilayotgan bo'lsa ham, uning ta'siri ko'pchilik oilalarda sezilib turadi. Ana shunday oilalarda bolalarni erkalatish, o'ynatish, zarur hollarda ularga tanbeh berish, qisqasi, ular bilan tarbiyaviy ish olib borish keksalarning zimmasida bo'ladi.

Ba'zi ota-onalar keksalar bolalarni erkalatib taltaytirib yuborishadi, degan fikr bildirishadi. Bu fikrni tahlil qilib ko'rilsa, keksalar bolalarni taltaytirib yuborayotganday tuyulishi — ularning nevaralarga mehri va muhabbati ortishi bilan bog'liq. Odatda, ota-ona bola tarbiyasida qat'iyroq yo'l tutishni afzal ko'rishadi. Bunday yo'l tutish esa, bolalarning xatti-harakatini cheklash va jazolash bilan bog'liq bo'ladi.

Keksalar esa, odatda, bolalarni jazolash u yoqda tursin, ularga qattiq gapirmasdan, tarbiyalashni afzal ko'rishadi. O'zbek oilalarida keksalarning ana shunday yo'l tutishi katta hayot tajribasi va donolik natijasidir. Buni dunyodagi bir qator mamlakatlarning tajribasi ham tasdiqlaydi. Masalan, yapon oilalarida bolalar 5 yoshga to'lguncha, ularni jazolash u yoqda tursin, har qanday xatti-harakatlari ham kechiriladi. Bola tarbiyasiga bunday yondashuv bola xarakteri, aql-idroki va intellektining asosan, 5 yoshgacha bo'lgan davrida shakllanishi bilan bog'liq.

O'zbeklardagi “Bolaligim – poshsholigim” degan matal ham bolalar tilidan aytilgan bo'lsa ham, aslida keksalarning bolalarga munosabatini ifodalaydi. Bobolar va momolar yosh bolalarning har qanday qiliqlarini, tartibsizliklarini kechirishga moyil bo'lishadi. Bolaning xatti-harakatlari quyushqondan chiqib ketgan holatlarda esa, ular bunday tartibsizliklarni faqat yaxshi so'zlar bilan, bunday harakatlarning oqibati nima bilan tugashini tushuntirish bilan tarbiyalashadi.

Keksa avlod vakillari oiladagi ma'naviy qadriyatlarning xazinasini hisoblanadi. Tarbiya jarayoni tahlil qilinsa, uning asosini qadriyatlarni shakllantirish tashkil qilishi ma'lum bo'ladi. Tarbiyaning asosi bo'lgan ana shu qadriyatlar keksalardan ularning farzandlariga, farzandlardan nevaralarga o'tadi. Mana shu holatning o'zi ham keksalarning oila ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi roli qanchalik ulkan ekanini ko'rsatadi.

Oiladagi bola tarbiyasida keksa avlod vakillarining katta rol o'ynashi ularda bo'sh vaqtning ko'pligi bilan ham bog'liq. Keksalarning yosh avlod tarbiyasidagi ishtiroki ular qaysi mamlakatda yashayotgani, qaysi xalqqa mansubligi bilan ham belgilanadi. Yevropaliklar va amerikaliklarning ko'pchiligi, odatda, bola tarbiyasiga aralashmaslikka harakat qilishadi. Ular bola tarbiyasi bilan ota-ona shug'ullanishi kerak, deb hisoblashadi. Bunday holat oilada turli avlod vakillari o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq. Yevropa va Amerika oilalarining ko'pchiligida ota-onaning gapini qaytarish, yoki bo'lmasa, ularning aytganlarini bajarmaslik, o'z fikri bo'yicha ish qilish oddiy hol hisoblanadi. Yevropa va Amerika oilalarida ham, kattalarga hurmat yo'q deb bo'lmaydi. Lekin, bu hurmat darajasini o'zbek oilalaridagi kattalarga hurmat bilan qiyoslash qiyin. Avlodlar o'rtasidagi munosabatlarda mehr-oqibat kuchli bo'lmagani sababli, yevropaliklar va amerikaliklarning ota-onalari bilan bir shaharda yashasa ham, ularni haftalab va oylab ko'rishmasliklari oddiy hol hisoblanadi. Turli shaharlarda yashaydigan ota-onalarni yillar davomida borib ko'rmaslik ham, oddiy hol hisoblanadi. Ota-onalarining o'z ota-onalariga ana shunday munosabatini ko'rish, tabiiyki, bolalarda ham ota-onaga nisbatan ana shunday munosabatni shakllantiradi.

Milliy qadriyatlar e'zozlanadigan o'zbek oilalarida keksalar ham e'zozlanadi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2015-yilni “Keksalarni e'zozlash yili” deb e'lon qilinishi ana shu qadriyatning namoyon bo'lishidir. Keksalarni e'zozlashning o'zi tarbiyalanganlik mahsulidir.

Oilaviy an'analar bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan muhitni ta'minlaydi. Oiladagi odatlar, an'analar, hayot tarzi oila a'zolari ongiga, tafakkuriga singib ketadi. Keyinchalik, ular boshqacharoq muhitga tushib qolishsa, bolalikdagi oilaviy sharoitlarni, rasm-

rusumlarni qo'msashadi. O'zbek oilalaridagi an'ana, rasm-rusum va odatlar oddiy holatlarda, masalan, nonushta paytida kichiklar tomonidan kattalarning nonga yoki taomga birinchi bo'lib qo'l uzatishini kutib turish, birinchi piyoladagi choyni kattalarga uzatish, kattalardan oldin qo'l artmaslik, kattalardan yuqoriga chiqib o'tirmaslik, o'z fikrini obdon o'ylab bayon qilish kabi ko'plab munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Oilaviy an'analar bolalarni tarbiyalashda eng yaxshi vositalardan hisoblanadi. Chunki, ular bolalarda har doim shu an'analar saqlanib qolishi, oila a'zolari ana shu an'analarga doimo amal qilishlari to'g'risida ishonch tug'diradi. An'analar bolaning ongida yaxshi xotiralar xazinasini shakllantiradi. Bolalar ulg'aygandan keyin, bobolar va momolarning ajin bosgan yuzlarini, muloyim qo'llarini eslab yurishadi. Bunday xotiralar ularda o'z oilasi uchun g'urur hissini tarbiyalaydi. Turli avlod vakillarini bir-biriga hurmat, mehr va muhabbat ruhida tarbiyalagan an'analar, bolalar ulg'ayganda, qarib-qartaygan ota-onalari, bobolari va momolarini og'ir kunlarda yolg'iz tashlab qo'ymaydi.

Bobolar va buvilarning nevaralariga ko'rsatgan mehr-muhabbatlari, ular ulg'ayganda, bir necha baravar ko'paygan holda, kelajakda nevaralar tomonidan bobo-buvilariga bo'lgan munosabatlari orqali qaytariladi.

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda jazo usulidan nima uchun voz kechish kerak? Jazolash bolani nojo'ya, beodob xatti-harakati, intizomsizligi, itoatsizligi uchun boshqalar oldida izza qilish, kaltaklash, kamsitish-haqorat qilish shaklida ifodalanishi mumkin. Shuningdek, jazolashning yana boshqa ko'rinishlari ham mavjudki, bular – bola intilishlarini hisobga olmaslik, uning ehtiyojlariga befarq qarash, uning bor-yo'qligini sezmaslikka olish, gaplariga quloq solmaslik, uni oila a'zolari o'rtasidagi suhbatlarga qo'shmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi ham mumkin. Kattalar ba'zan, odob qoidalarini buzayotgan, noma'qul ishlar bilan shug'ullanayotgan bolani qaytarish uchun, qo'rqitish usulidan ham foydalanishadi. Umuman, jazolash bolalarda qo'rqinch hissini uyg'otadi. Barcha holatlarda ham bola qattiq ruhiy tushkunlikka tushadi, g'amgin va o'ychan bo'lib qoladi, yashirincha yig'lab olishi mumkin, qanday qilib ota-onasining ko'nglini olishni o'ylay boshlaydi yoki tanqidlardan, ayblovlardan qutulish choralarini qidira boshlaydi.

Oilada bolani nojo'ya harakatlari uchun shunday jazolash odat tusiga kirib qolsa, bola xarakterida qo'rqqoqlik shakllanadi, u qo'rqqanidan ota-ona talabiga itoat etayotganligi, bu holatning kelajakda yomon asoratlarni keltirib chiqarishini esa, ota-onalar, kattalar bilishmaydi, bu usullarni qo'llab to'g'ri yo'l tutayapman, deb hisoblashadi. Jazolangan bolaning xulq-atvorini diqqat bilan kuzatilsa, uning harakatlarida o'zini xafa qilgan, jazolagan odamning xohish-istaklariga teskari bo'lgan harakat usullarini topishga harakat qilayotganini ko'rish mumkin. Shunday maqsad yo'lida u kichik ukasi yoki singlisining g'ashiga tegishi, uy hayvonlarini jazolashi, maktabda past baholar olishi, buyumlarni buzishi, sindirishi, uyda kamroq bo'lib, ko'chada ko'proq vaqt o'tkazishi, uydagi majburiyatlarini bajarmaslikka harakat qilishi kabilarni kuzatish mumkin.

Bolalarda ham kattalarda bo'lgani singari o'zini o'zi nazorat qilish tuyg'usi bo'ladi. Lekin, bolalardagi bu tuyg'u kattalardagiga nisbatan kamroq rivojlangan bo'ladi. Bolalarni noto'g'ri xatti-harakatlari uchun jazolagan kattalar boladagi ichki nazoratni kattalarning nazorati bilan almashtirgan bo'lishadi. Tashqi nazorat esa, har doim ham ichki nazorat singari samarali bo'lavermaydi. Bir necha marta jazolangan bola kattalardan qo'rqadigan bo'lib qolishi mumkin. Yomon xulqi uchun kattalardan jazo olgan bola o'sha xulqidan ko'pincha voz kechmaydi. Endi, u shu xulqni kattalardan yashirib bajarishga harakat qiladi.

Bolada o'zini o'zi nazorat qilish tuyg'usini rivojlantirish uchun unda tegishli qadriyatlarni rivojlantirishga e'tibor berish lozim. Qadriyatlarni to'la qabul qilgan bolada o'sha qadriyatlarga mos kelmaydigan xatti-harakatlarni qilish kamayadi va yo'qoladi. Bu qadriyatlar ta'sirida o'zini o'zi nazorat qilishning natijasidir.

Bolalarning yaxshi xulq-atvorini noto'g'ri rag'batlantirish ham ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bolalarni yaxshi xulq-atvorga o'rgatish maqsadida qilinadigan “sovg'a”lar ham ko'pincha teskari natijaga olib keladi. Endi bolalar o'sha xulq-atvorni o'zlari xohlaganlari uchun emas, balki sovg'a olish uchun bajara boshlaydilar. Shu bilan birga, tegishli xulq-atvorni sovg'a uchun bajarish bolalarda samimiyligni yo'qotishi va keyinroq ta'magirlikni kuchaytirib yuborishi ham mumkin. Ana shunday “sovg'a”lar bolalarni har qanday harakatlarni chin ko'ngildan emas, sovg'a, ta'ma uchun bajarishga o'rgatib qo'yadi. Bunday sovg'alar boladagi tashabbuskorlikni, fidoiyligni yo'qqa chiqaradi. Bolani yaxshi odobi, xush xulq-atvori uchun moddiy rag'batlantirish emas, balki ma'naviy “sovg'a” rag'batlarni qo'llash kerak, ya'ni unga “barakalla”, “rahmat”, “aqli bolajon”, “juda odobli bola bo'libsiz”, “juda aqli bola bo'libsiz”, “katta olim bo'ling” kabi maqtov, rag'bat so'zlarni aytish lozim.

Oilada maktabgacha yoshdagi kichik farzandlarni milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllantirish, ularda insonparvarlik va oilaparvarlikni tarbiyalash bilan oila ma'naviyatini shakllantirishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi:

- ▶ bolalar bilan muloqotlarda, munosabatlarda ularning o'ziga xos yosh xususiyatlarini, psixikasini, psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- ▶ bolalarga alohida mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lish;
- ▶ bola sodir etgan nojo'ya harakatlari, tartibsizliklarining oqibati nima bilan tugashini unga faqat yaxshi so'zlar bilan tushuntirish;
- ▶ bolalar bilan suhbatlarda ularga dono o'gitlar, pand-nasihatlar qilish, ularning savollariga sabr-toqat va muloyimlik bilan javob berish;
- ▶ bolada ezgulik, e'tiqod, imon, insof xislatlarini o'stirishga e'tibor qaratish;
- ▶ oilada ota-ona va bobo-buvilarning ijobiy xulq-atvori, obro'-e'tibori bilan ibrat bo'lishi;
- ▶ ota-onalarning o'z ota-onalariga, ya'ni bolalarning buvi va buvilariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi;
- ▶ bolaning intilishlari va qiziqishlaridan boxabar bo'lish va tarbiyalash jarayonida hisobga olish;
- ▶ milliy madaniyat va ma'naviyatga asoslangan oilaviy qadriyatlarni oilada va bolalar ongida qaror toptirish kerak va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Ochil Safo. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari: (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari misolida). – 2-nashri, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: “O'qituvchi”, 1997.
3. O'zbekiston yoshlarida dunyoqarash uyg'unligining shakllanishi muammolari (mualliflar: E.E.Karimov va boshq.). –T., Toshkent islom universiteti. 2004.

Dilshod TEMIROV,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi

O'zPFITI xodim-izlanuvchisi

PEDAGOGIK JAMOANI RIVOJLANTIRISHNING BOSQICHLARI VA DARAJALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim muassasasidagi pedagogik jamoani tarkib topishi, shakllanish darajalari va bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif pedagogik jamoaning rivojlanishiga o'ziga xos jihatlari bo'yicha bir qator tavsiyalarni berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik jamoa, rivojlanish, taraqqiyot, samaradorlik, innovatsiya, pedagogik faoliyat, natija, rivojlanish darajasi, hamkorlik.

В статье характеризуются структура, уровни и этапы формирования педагогического коллектива в образовательном учреждении, предложены рекомендации по развитию педагогического коллектива с учетом его особенностей.

Ключевые слова. Педагогический коллектив, развитие, эффективность, инновация, педагогическая деятельность, результат, степень развития, взаимодействие.

In this article considered the creating the pedagogic collective in educational institution, forming levels and stages, also getting peculiarity in influence of different levels of developing pedagogical activity of pedagogical collective.

Key words. Pedagogical collective, pedagogical activity, developing, progress, effectiveness, innovation, result, developing level, cooperation.

Ta'lim muassasalaridagi pedagogik jamoani rivojlantirishning mavjud prinsiplarini tadqiq etish, bu sohadagi tajribalarni o'rganish turli ta'lim muassasalari bir xil sharoitlarda turlicha darajadagi samaradorlikka va natijalarga erishishini qayd etish imkonini beradi. Pedagogika fani bu farqlarni pedagogik jamoaning rivojlanish darajasi bilan bog'laydi. Tabiiyki, pedagogik jamoa qanchalik rivojlangan bo'lsa, u yuqoriroq natijalarga erishishga qodir bo'ladi.

Ye. V. Lomtyeva pedagogik jamoaning rivojlanish xususiyatlarini belgilagan holda, pedagogik faoliyatni rivojlantirishning bir qator bosqichlarini asoslab beradi.

Birinchi bosqichda – pedagogik jamoaning tarkib topishi, xodimlarning rasmiy tashkiliy birlashishi, jipslashishi, yangi a'zolarning shakllantirilayotgan tizimiga qabul qilinishi amalga oshiriladi. Bu bosqichda pedagogik jamoa ta'lim muassasasi rahbari tomonidan boshqariladigan obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi bosqichda jamoa a'zolari biri-birlari bilan yaxshi tanish bo'lmaganligi, bir-birlariga bo'lgan ishonchning shakllanmagani tufayli faoliyatning natijaviyligi past bo'ladi. Jamoani tashkiliy shakllantirish jarayoni davom etib, uning yagona maqsadi bo'lmaydi. Mazkur bosqich nafaqat yangidan tashkil etilgan, balki avvaldan barqaror faoliyat olib

boruvchi jamoa faoliyatida ham kuzatilishi mumkin. Bunday ta'lim muassasalarida pedagogik jamoa boshqalardan ayri holda, alohida, mustaqil tarzda faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni birlashtiradigan o'ziga xos tashkiliy qobiq shaklidagina mavjud bo'ladi.

Ikkinchi bosqich – pedagogik jamoaning shakllanishi. Bu bosqichda ma'lum kasbiy yo'nalishga ega bo'lgan guruhlarining shakllanishi davom etadi, ularga tegishli burchlarni anglash tarkib topadi, faoliyatning dastlabki guruhiiy me'yorlari vujudga kela boshlaydi.

Pedagogik jamoa taraqqiyotining bu bosqichi hamjihatlik darajasi pastligi bilan tavsiflanadi. Pedagogik faoliyatni tashkil etish darajasiga ko'ra bu bosqichning asosiy xususiyati oldindan ma'lum bo'lgan faoliyat mazmunini yangi sharoitlarda o'zlashtirish va unga moslashish bilan bog'liq bo'lgan qayta tiklovchi daraja hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – pedagogik jamoaning yetilgan, ya'ni barqaror faoliyat ko'rsatish darajasiga yetgan davri hisoblanib, hamkorlikdagi faoliyat vazifalarining aniq belgilanganligi bilan tavsiflanadi. Unda: jamoaning tuzilmasi aniqlangan bo'lib, barqaror axloqiy-psixologik muhit hukm suradi; mavjud guruhlar va alohida pedagoglarning qiziqishlariga asoslangan hamkorlikdagi jamoaviy faoliyatning prinsiplari hamda me'yorlarini ishlab chiqish jarayonlari kechadi; tashkiliy-psixologik jihatdan pedagogik jamoa ahil guruhga aylanadi va yagona jamoaga birlashadi. Natijada jamoaviy “biz” tuyg'usi yuzaga keladi, jamoa faoliyatini yaxshilash imkonini taqdim etuvchi yangiliklarga qiziqish uyg'onadi. Pedagogik faoliyatni tashkil etish darajasiga ko'ra bu bosqich ta'limiy munosabatlarning interpretatsion (variativ) darajasiga mos keladi.

Pedagogik jamoa taraqqiyotining mazkur bosqichida ta'lim muassasasi rahbari tomonidan barcha pedagoglar hamkorlikda ishlab chiqilgan qadriyatlar va maqsadlarga erishish uchun birgalikda ishlashga safarbar qilinadi.

To'rtinchi bosqich – pedagogik jamoani o'zgartirish uni yangi sifat bosqichiga o'tishini anglatadi. Bu bosqichda pedagogik jamoa a'zolarida o'zlarining hamkorlikda amalga oshiriladigan hamda ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatlariga nisbatan yuqori motivatsiyalar kuzatiladi. Pedagogik jamoa o'zining yakdilligi, ya'ni uni tashkil etuvchi pedagoglarning ichki birligi bilan, funksiyalarni aniq va qat'iy taqsimlangan strukturaviyligi, harakatlarning o'zaro muvofiqligi, faollikning yuqori darajasi, tartibliliigi va hamjihatliliigi, ya'ni o'zini-o'zi boshqarishi bilan tavsiflanadi.

Bu bosqichda pedagogik jamoa yuqori innovatsion imkoniyatlarga, ya'ni jamoa o'zi mustaqil tarzda yangiliklarni ishlab chiqish, uning samaradorlik darajasini eksperimental tarzda sinab ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi. Pedagogik jamoa tezkor tarzda joriy etiladigan hamda ta'lim muassasasining ta'limiy tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga qodir bo'lgan yangiliklarga tayyor bo'ladi. Shuningdek, bu bosqich pedagogik faoliyatni tashkil etishning yangi mazmunini ishlab chiqish, uni boshqalarga namoyish etish va tarqatishda namoyon bo'luvchi yuqori ijodiy daraja bilan tavsiflanadi.

To'rtinchi bosqichda muassasa rahbari tomonidan ta'lim muassasasini rivojlantirish vositasi sifatida har bir pedagogning ijodiy individualligini rivojlantirish maqsad qilib olinadi.

Pedagogik jamoani rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishining qat'iy belgilangan chegarasi bo'lmaydi. Ayni paytda pedagogik jamoaning jamoaviy subyekt sifatida taraqqiyotning bir bosqichidan keyingisiga o'tishini farqlash imkonini beruvchi muayyan sifat ko'rsatgichlari mavjud.

Pedagogik jamoa taraqqiyotining har bir bosqichini uning taraqqiyot darajasiga ko'ra tavsiflash mumkin. Fanda “jamoaning rivojlanish darajasi” tushunchasi belgilangan bo'lib, unda “uning (pedagogik jamoaning (D.T.) dolzarb va real maqsadlarni qo'ya olishga qodirligi, individual maqsadlarning umumiy maqsadlar bilan integratsiyalashtirilgan

strukturasini shakllantirish, belgilangan maqsadlarga maksimal samaradorlikda erishish imkoniyatini beruvchi o'zaro hamkorlik va munosabatlarning tuzilmasini qurish va uni moslashuvchan tarzda o'zgartirish" anglanadi.

V.S. Lazaryevning ta'rifiga ko'ra, jamoaning rivojlanganlik darajasi uning uchta funksiyasiga ko'ra belgilanadi: qadriyatli-yo'naltirilganlik jihatidan yetuklik, uyushqoqlik va hamjihatlik.

"Jamoaning rivojlanganlik darajasi unda amal qilayotgan qadriyatlar, me'yorlar, qoidalar bilan belgilanadi". Pedagogik jamoa rivojlanganligining quyi, o'rta va yuqori darajalari ajratib ko'rsatiladi. Pedagogik jamoaning pedagogik faoliyatining natijalaridan biri uning rivojlanish darajalarini o'lchash hisoblanadi.

Pedagogik jamoaning pedagogik faoliyatni rivojlanishiga ta'sirining turli darajalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

1. Pedagogik faoliyatning pedagogik jamoaning rivojlanishiga *deklarativ* darajadagi ta'sirida uning (jamoaning) aksariyat a'zolarida o'z faoliyatlari bilan ishtirok etish orqali ta'lim muassasasini rivojlantirishga ehtiyoji, ta'lim muassasasining muammolarini ko'rish va uni yechishga ishtiyoqi bo'lmaydi. Pedagoglar innovatsion jarayonlarni tashkil etishga metodik, psixologik va tashkiliy jihatdan tayyor emaslar. Aksincha, innovatsiyaga qarshi bo'lgan ko'rsatmalar juda kuchli bo'ladi. Ko'pchilik pedagoglar talim muassasasini rivojlantirish strategiyalariga oid jamoaviy qarorlar qabul qilish hamda ularni amalga oshirishga e'tiborsiz munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun ham pedagogik faoliyatning jamoaviy maqsadlari bo'lmaydi, to'g'rirog'i, ular pedagogik jamoaning aniq muammolari va ehtiyojlari e'tiborga olinmagan tarzda yuqoridan tushiriladi (buyuriladi). Oqibatda pedagogik jamoa tomonidan anglanilmaydi va o'zlashtirilmaydi. Pedagogik jamoa o'zining asosiy pedagogik faoliyat turlarini rivojlantirish orqali barqaror faoliyat ko'rsatadi. Bunda an'analar va ramziy marosimlar muhim o'rin tutadi.

Pedagogik jamoaning pedagogik faoliyati maqsadi va mazmunini oshkor qilmaslik yoki yaqqol qabul qilmaslikka asoslangan kommunikativ imkoniyatlarini kuchaytirish mumkin. Bunday sharoitda pedagogik jamoaning aksariyat a'zolari va ta'lim muassasasi rahbari o'rtasida qarama-qarshilik kuchayadi. Shuning uchun ham mazkur bosqichda pedagogik faoliyatning pedagogik jamoani rivojlantirishga ta'siri haqida fikr bildirish mushkul.

2. Pedagogik faoliyatning pedagogik jamoa rivojlanishiga ta'sirining rasmiy-reproduktiv darajasida bir guruh pedagoglarda o'zlarining pedagogik faoliyatlari vositasida ta'lim muassasasining muammolarini hal qilishda ishtirok etish, bu jarayonda yangi metodik ishlanmalar va ta'limiy texnologiyalarni izlab topish va amaliyotga joriy etish ehtiyojlari yuzaga keladi. Ayrim pedagoglar faoliyatning yangi yo'nalishlari bo'yicha o'z kompetensiyalarini oshirish istagini bildiradilar. Rivojlanishga qiziquvchi pedagoglardan iborat boshqaruv jamoasi shakllana boradi, ularning jamoaviy qarorlar qabul qilishdagi faolligi va qiziqishi ortib boradi. Pedagogik jamoa a'zolarida ta'lim muassasasining umumiy vazifalariga muvofiq keluvchi pedagogik faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq shaxsiy maqsadlar yuzaga keladi. Shu tariqa pedagogik faoliyatni belgilovchi me'yoriy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish tajribalari tarkib topa boradi.

Ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalari va metodlari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan tadbirlar tashkil etiladi. Pedagoglarning bir qismi o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan pedagogik jamoaning muammolarini yechish yo'lida ilg'or pedagogik tajribalarni ijodiy qo'llay boshlaydilar. Pedagogik jamoada alohida obro'ga ega bo'lgan pedagoglar ajralib chiqadi.

3. Anglangan-reproduktiv darajada pedagogik faoliyatga qiziquvchi pedagoglarning soni oshishi natijasida ularning pedagogik jamoa rivojiga ta'siri ortib boradi. Shu

munosabat bilan pedagoglarning yangliklarni pedagogik jarayonga tatbiq etishga qiziqishlari oshib boradi. Natijada o'zlari faoliyat yuritayotgan pedagogik jamoaning muammolari va ularni bartaraf etishni muhokama qiluvchi pedagoglarning soni ham ko'payib boradi. Pedagogik jamoada axloqiy-psixologik muhit yaxshilanadi, shaxslararo ziddiyatlar kamayadi. Ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarning dastlabki birlashmalari, u yoki bu muammo ustida izlanish olib borayotgan ijodiy va ilmiy jamoalar paydo bo'ladi. Pedagogik jamoaning emotsional va psixologik birligi va jipsligi mustahkamlanadi.

4. Ijodiy darajada jamoaning ko'pchilik a'zolarida pedagogik faoliyatga nisbatan yuqori motivatsiya kuzatiladi va buni ular o'zlari faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasi muammolarini hal qilishning samarali vositasi sifatida qabul qiladilar. Pedagoglar yangi g'oyalar va metodik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amaliyotga joriy etishga tayyor bo'ladilar. Yangiliklar, qayta qurishlarga nisbatan barqaror qiziqish namoyon etayotgan pedagoglarning soni muntazam ortib boradi. Ta'lim muassasasining istiqboliga daxldor qarorlarini jamoaviy tarzda ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishda pedagoglarning ko'proq qismi ishtirok etadilar. Pedagogik faoliyatning hamkorlikda ishlab chiqilgan maqsadi pedagogik jamoa a'zolarining shaxsiy maqsadlarida ham o'z tatbiqini topadi.

Pedagogik jamoa pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi va ularni muntazam tarzda to'ldirish, kengaytirishga intiladi. Pedagogik jamoa innovatsion g'oyalar, metodika va texnologiyalarning tarqatuvchisiga aylanadi. Pedagogik jamoa va alohida pedagoglarning ish tajribalarini yorituvchi nashr ishlarining (maqolalar, metodik tavsiyalar va hakoza.) soni ortadi.

Taraqqiyotning bu darajasiga chiqqan pedagogik jamoa ijobiy va qulay axloqiy-psixologik muhitga egaligi bilan tavsiflanadi. Yuzaga keladigan ziddiyatlar istiqbolda jamoani rivojlantirish manbai vazifasini o'taydi. Pedagogik jamoada hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi hissiy hamjihatlik kasbiy faoliyatda ham, norasmiy muloqotda ham kuzatiladi.

Shunday qilib, pedagogik jamoaning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shu yerda innovatsion faoliyat samaraliroq tashkil etilishi mumkin. Shu tariqa pedagogik jamoaning alohida pedagoglarning ta'lim muassasasining doimiy rivojlanishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ломтева Е.В. Конкурсная проектная деятельность как условие развития педагогического коллектива колледжа. Автореф....дисс...канд. пед. Наук. – М.: – 2009.
2. Лобанов А.А. Основы профессионально-педагогического общения. – М., 2002.
3. Лазарев В. С. Системное развитие школы. – М.: Пед. об-во России, 2002. – С. 304.
4. Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на материалах Национальной программы по подготовке кадров). Автореф. дисс. ... док. пед. Наук. – Т.: 2002. – С.56.
5. Ушаков К.М. Ресурсы управления школьной организацией. – М.: 2000. – С.144.

Shuxrat NE'MATOV,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi

O'zPFITI ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, p.f.n

AJDODLAR MEROSIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq xalqlari mutafakkirlarining pedagogik merosida yoshlarni kasb-hunar sirlarini egallashga o'rgatish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish yo'llarini ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. O'quvchilar, psixolog, kasb tanlash, kasb-hunarga yo'naltirish, ajdodlar merosi, ijtimoiy hamkorlik, ta'lim tizimi.

В данной статье освещены задачи изучения педагогического наследия выдающихся мыслителей Востока по вопросам овладения секретами профессий, показаны пути профориентационной работы с молодежью в условиях развития страны.

Ключевые слова. Учащиеся, психолог, выбор профессии, профориентация, наследие предков, социальное сотрудничество, система образования.

In this article, it highlights the problem of studying of pedagogical heritage of outstanding thinkers of the East on mastering the secrets of professions, the ways of professional orientation work with young people in the development of the country.

Key words. Students, psychologist, career choice, career guidance, ancestral heritage, social cooperation, education system.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan – umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va kasb-hunar tanlashga yo'naltirish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad esa, ularni ongli va mustaqil tarzda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muammolari kasb-hunar ta'limi, uning rivojlanishi va takomillashtirilishi bilan bog'liq tarzda ma'lum darajada tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining yangi modeli qabul qilinganligi munosabati bilan umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining barchasi keyingi majburiy ta'lim turi bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga to'liq qamrab olinishlari lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflarini bitirgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qishni davom ettirishning majburiyligi

va ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar tomonidan tanlashning ixtiyoriyligi o'rtasidagi ziddiyatli muammo kasb-hunarga yo'naltirish tizimini shakllantirish va uni samarali rivojlantirishning lozimligini talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishga qaratildi.

Shu nuqtayi nazardan ajdodlarimiz hamda rivojlangan mamlakatlar olimlarining bu sohadagi tajribalariga tayanish zarur. Shu bilan bir qatorda, bu borada bugungi bozor munosabatlari sharoitini ham hisobga olish lozim.

Ajdodlarimiz yoshlarning o'zlari xohlagan kasb-hunarni egallashlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Forobiy “Baxt-saodatga erishuv haqida risola”sida yoshlarning kasb-hunar egallashi haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: “... mana shu fazilat (kasb-hunar) quvvatda boshqa hamma fazilatlarining eng kuchlisi va mukammali bo'ladi. Bu shunday ulug' fazilatki, inson uni egallash uchun boshqa hamma fazilatlarini, ijodiy faoliyati, tug'ma fazilatini ham ishga solishi kerak”.

Mutafakkir shaxsning kasb-hunar egallashini uning fazilati deb ta'riflaydi. Uning ta'biricha, kasb-hunar egallash fazilatlarining raisidir, raislikda undan o'tadigan fazilat yo'q va bo'lmaydi ham. Inson, mana shu fazilatni boshqa o'zining juz'iy, ya'ni tug'ma fazilati bilan takomillashtiradi. Masalan, lashkarboshida harbiy san'atga oid eng go'zal va foydali narsalarni kashf etish fikriy fazilati bo'lishi bilan bir qatorda, unda askarlikka va, umuman, odamzodga taalluqli bo'lgan umumiy tug'ma fazilatning bo'lishi ham kerak. Chunonchi, shu umumiy tug'ma fazilat tufayli amalga oshiriladigan ish-harakatlarni to'la bajarmoqchi bo'lgan inson harbiy kishi bo'lgani uchun, harbiy san'atga xos bo'lgan fazilatini ishlatadi.

Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilati, tug'ma emas, aks holda uning fikriy fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati, odat-malaka bo'lib qolgan insonga bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi. Bunday insonlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalaridirlar.

Mutafakkir o'z so'zini davom ettirib, ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir, agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar, deb ta'kidlaydi.

Forobiy amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, insondagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi, deydi.

Uning ta'kidlashicha, ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usulni gapga ko'nmovchi, qaysar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ammo, ulardan qaysi biri

nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishsa hamda uning fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilishi bo'lsa, bunday insonlarni majbur etmaslik kerak, chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad, ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir.

Sharq mutafakkirlarining uqtirishlaricha, inson hech qachon tug'ilganida yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi, shuningdek, hech qachon tug'ilishidan yo to'quvchi, yo xattot bo'lib tug'ilmaydi. Har bir kishida biron bir kasb-hunar yoki qabihlikka moyillik qobiliyati bo'ladi, ya'ni biron bir soha boshqa sohalarga nisbatan yengilroq seziladi, ana shu sababli inson odatda yozish yoki boshqa hunarlarga, o'ziga qulay bo'lgan hunarlarga yoshligidan moyil bo'ladi va shu sohaga intiladi, faqat "tashqaridan" biron-bir qarama-qarshi maslahat berilmasa, albatta.

Mutafakkirlarning ta'kidlashlaricha, har bir yosh avlodga mustaqil ravishda hunar tanlashga imkoniyat berish kerak va o'ziga yarasha ish berish kerak. Yoshlar shuni yodda tutishlari zarurki, hech qachon bir yo'la bir necha ishni, bir necha hunarni birgalikda olib borish mumkin emas. Uning sabablari sifatida inson hamma hunarni baravar egallashi mumkin emasligi, har bir shaxs faqat o'ziga ko'proq tanish, sevimli, o'zi qilishga qodir bo'lgan ishni bajarishga harakat qilishi ya'ni ular bir ishni qilsalar, ikkinchisi qolib ketishi mumkinligini ko'rsatganlar.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda bu sohadagi rivojlangan mamlakatlardagi tajribalarni ham o'rganish, tahlil qilish hamda o'zbek xalqi mentalitetiga mos keladiganlarini ijodiy qo'llash lozim.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining ishtirokchilari quyidagilar: o'quvchi, ota-onalar, ta'lim muassasasi, kasbga yo'naltiruvchi, kasb-hunarga yo'naltirish xizmati mutaxassislari, fan o'qituvchilari, sinf rahbari, maktab shifokori, kutubxona mudiri, jamoat tashkilotlari, kasb-hunar ta'limi muassasalari, korxonalar, hududiy (hokimlik) hamda mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari, ommaviy axborot vositalari.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi pedagog xodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ota-onalar) hamkorlik ishlarini amalga oshirishlari lozim. Bu ishlarining zahirida, o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ta'limning keyingi turi va bosqichiga yo'naltirish, kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashlarini to'laqonli yo'lga qo'yish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish – ularda ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarining amaliyotda malakali mutaxassislar ko'magida, kasbiy qiziqish va layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini egallash, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, bilimdonlik, tafakkur, salohiyat va hokazo)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli va individual shug'ullanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obyektiv va subyektiv omillardan unumli foydalana olish ham o'quvchilarda kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga hissa qo'shadi.

Kasbga yo'naltirish maqsadini olib borishda ikki bosqich: dastlabki va chuqurlashtirilgan individual kasbiy maslahat bilan farqlanadi.

Dastlabki kasbiy maslahat – guruhda olib boriladigan maslahat, uning jarayonida kasb tanlash qoidalariga o'rgatish, kasblar xilma-xilligi, qiziqishlar, moyilliklar haqida axborot berish amalga oshiriladi. Dastlabki kasbiy maslahat natijasi kasbiy reja shakllanishida yordam ko'rsatish, tanlovning ongliligi va mas'uliyatlilik darajasini oshirish sanaladi.

Kasbiy maslahatning maqsadi o'quvchilarni kasbiy o'z-o'zini belgilash tahlili asosida u yoki bu ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirish emas, balki, bir tomondan, o'quvchining qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga mos keladigan, boshqa tomondan respublika xalq xo'jaligi tizimi uchun kerakli mehnat faoliyatini tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Chuqurlashtirilgan individual kasbiy maslahat insonni har tomonlama: uning moyilliklari, qiziqishlari, sog'ligi va jismonan rivojlanishi, diqqat, tafakkuri darajasi va strukturasi, qo'l mohirligi va harakatlari koordinatsiyasi, xarakter xususiyatlarini chuqur o'rganishga asoslanadi. Bunda o'qituvchilar va ota-onalarning fikri, ta'limning muvaffaqiyatlilik va referent guruhi xususiyatlari hisobga olinadi. Mazkur ma'lumotlarni umumlashtirishga nafaqat kasbga yo'naltirish maqsadida, balki yoshlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri deb qarash mumkin.

Kuzatishlari va tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bir qator muammo va kamchiliklarga ega. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilayotgan psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samaradorligi va natijaliligi yetarli darajada emas;
- yaratilgan va maktablarda qo'llanilayotgan psixologik-pedagogik tashxis metodikalarining va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tadbirlarning umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orasida talab darajasida olib borilishi nazoart qilinmayapti;
- maktablarda mehnat ta'limi fanini o'qitish, uning asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari yetarli yo'lga qo'yilmayapti;
- kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini elektron-axborotli tizimiga o'tkazishning nazariy-metodik, me'yoriy va didaktik asoslari ishlab chiqilmagan;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'zlarida amalga oshirilayotgan ta'lim yo'nalishlariga o'quvchilarni jalb qilish borasida yetarli ishlarni amalga oshirmayaptilar;
- kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida ta'limning boshqa barcha turlari, korxona va tashkilotlar, kasaba uyushmalari va mahalliy xokimiyatlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish sohasida amaliy tadbirlar amalga oshirilmayapti.

Shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish asosidagina har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalash ishlari amalga oshishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining keyingi ta'lim bosqichiga samarali qamrab olinishining keyingi yillardagi tahlili bu sohada bir qancha ziddiyatli holatlar yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Bular:

- jamiyatdagi tezkor rivojlanish holatidan kelib chiqqan holda yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash ehtiyojlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ko'pchiligida kasbiy yo'nalganlikning shakllanmagani yoki shakllantirilmaganligi o'rtasida;

– kasb-hunarni tanlashda o'quvchilarga qo'yiladigan ongli ravishda kasb tanlashga bo'lgan talablar va ularning kasb- hunarlar to'g'risida ma'lumotlilikining yetarli emasligi o'rtasida;

– shaxsning o'z-o'zini kasbiy aniqlashi va tanlovni amalga oshirishdagi ehtiyojlari va hozirgi kunda o'tkazilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlaridagi kamchiliklar o'rtasida;

– maktablarda o'quvchilarning o'z shaxsiy psixologik tavsiflarini aniqlashga bo'lgan ehtiyojlari va mavjud psixologik-pedagogik tashxis metodikalarining yetarli va samarali emasligi o'rtasidagi ziddiyatlarni tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning samarali metodlari va vositalarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi innovatsion metodlar va metodikalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish.

2. Hududiy tashxis markazlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaliy psixologlari hamda kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislari tarkibini tahliliy ko'rib chiqish va ularning malakasini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilishning elektron-axborotli tizimini yaratish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

4. Kasb-hunarga yo'naltirishda ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash.

5. Maktablardagi kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik pedagogik tashxis xonalari moddiy-texnika negizini mustahkamlash.

Yuqoridagi tadbirlarning amalga oshirilishi umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, ularning keyingi ta'lim yo'nalishlari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Rashidov H.F., Ergashev SH.T. Kasb-hunarga yo'naltirish-dolzarb jarayon. J. Maktab va hayot – 2004-yil №4-son.*

2. *Sharipov SH., Shonazarov R. Kasb tanlashga yo'llash fanidan metodik qo'llanma. –T.: – 2007.*

3. *Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. – T.: "O'qituvchi", 1993.*

Zoxid JUMAQULOV,
Andijon DU katta o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA BELBOG'LIK KURASH MASHG'ULOTLARI ORQALI O'QUVCHILARDA AQLIY VA ESTETIK SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarda xalqimizning azaliy qadriyatlaridan, an'analaridan bo'lib kelgan belbog'lik kurash tarixi, xalqimiz madaniyati, milliy qadriyatlarimizga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari, vatanparvarlik hissi o'quvchilarda aqliy va estetik sifatlarini shakllantirish haqida namunalar tavsiya qilingan va izohlab o'tilgan.

Kalit so'zlar. Belbog'lik kurash, pedagog, urf-odat, jismoniy madaniyat, shakllantirish, rivojlantirish.

В статье рассматривается формирование интеллектуальных и эстетических качеств на уроках физического воспитания. Автором предложены методические рекомендации по привитию у учащихся любви к национальным традициям, изучению истории кураша и воспитанию их в духе патриотизма.

Ключевые слова. Борьба на поясах(кураш), педагог, традиция, физическая культура, формирование, развитие.

In this article, general secondary schools, students training to fight pursue underlying values of our people, from the traditions of the belt wrestling history, our culture, our national values the feeling of a sense of patriotism and love to the students about the formation of the intellectual and esthetic qualities of the samples and to explain the proposed.

Key words. Wrestling on belt, pedagog, tradition, physical culture, formation, development.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va uning istiqlol sari dadil borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy sohalarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu yo'lda jismoniy tarbiya va sport sohasida chuqur islohotlar olib borilmoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir". Shu jihatdan mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning samarasi o'laroq, hozirda yoshlar sportning ko'plab turlari bo'yi-

cha mamlakat va jahon miqyosida nom qozonib, yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratmoqdalar.

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan, an'alaridan bo'lib kelgan belbog'lik kurash sporti haqida ham ana shunday fikrlarni aytish mumkin. Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatining qayta tiklanishi va rivojlanishi natijasida belbog'lik kurash sporti ham qayta tiklandi.

Jismoniy tarbiyaga oid pedagogik adabiyotlarda keltirilishicha, o'zbek xalqi milliy kurashni insonni jismoniy tarbiyalash vositasi deb qarardi. Xalq o'zida kuchlilikni iroda va botirlikni mehnatkash xalqning axloqiy sofligini mujassamlashtirgan kurashga – polvonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lar edi. Diniy va oilaviy bayramlarda ba'zan esa odatdagi kunlarda ishdan bo'sh vaqtlarda kurash musobaqalari o'tkazilgan. Bu musobaqalar Navro'z bayrami kunlarida avj olib, ommaviy xalq bayrami sifatida nishonlanar edi. Unda turli shahar va qishloqlardan kelgan kurashchilar ishtirok etardi. Kurashchilar juftini tanlashda ularning vazni ko'z bilan chamalab aniqlangan. Bellashuv oldidan kurashchilar oyoq-qo'llar chigilini yozish mashqlarini bajarishmas, faqat gavdani uqalash, silash uslublarini qo'llashar edi. Bellashuv esa na o'zining davomiyligini va na bir kunda nechta o'tkazilishi bilan chegaralanar edi. Bellashuvning sur'ati tez bo'lib, ular o'rtaqidagi tanaffus juda qisqa qilingan. Farg'ona qoidasi bo'yicha kurashuvchilar paxtali g'ananda, Buxoro qoidasi bo'yicha kurashuvchilar esa paxtasiz avra to'n kiyib kurashardilar. Belni esa, belbog' bilan bog'lab olishar edi. Kurashuvchilar milliy libosda, oyoq yalang kurash tashkil qilingan.

O'quvchilarni belbog'lik kurash sporti asosida chiniqtirish, jismoniy madaniyatini tarbiyalash, sport sohasiga jalb qilish ishlari hozirda umumta'lim maktablari, kollejlari hamda bolalar va o'smirlar sport maktablarida o'qituvchilar hamda murabbiylar tomonidan o'tkazib kelinmoqda.

Bundan ko'rinadiki, belbog'lik kurash barcha sport turlari kabi yoshlarda jismoniy, aqliy va estetik hamda jismoniy sifatlarni tarbiyalaydi. Buning natijasida o'quvchilarda botirlik, qat'iyatlilik, intizomlilik, jamoatchilik, do'stlik va o'rtoqlik hissi shakllantirilib, ularda madaniy xulq ko'nikmalari, mehnatga munosabat tuyg'ulari tarbiyalanadi.

Bunda, albatta, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda gigiyenik qoidalar – har qanday jismoniy mashg'ulotning sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilingan holda o'tkazilishi, mashg'ulotlar joyining gigiyenik jihatdan mos bo'lishi, tegishli jihozlar, inventarlar, maxsus ust-bosh va oyoq kiyimning mavjudligiga qat'iy e'tibor qaratish o'qituvchi hamda murabbiyning birlamchi vazifasi sanaladi.

Sportning xalqimiz madaniyatiga xos bo'lgan belbog'lik kurash turi o'zida ko'p ming yillik tarixni aks etiradi. To bugunga qadar xalqimiz tarixida nechalab pahlavonlar yashab kelganlar. Ularning mardonavor jangi, el-yurt himoyasi yo'lida ko'rsatgan qahramonliklari avlodlar uchun yuksak ibrat namunasi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Xalqimiz milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'lanib, deyarli bir mazmun kasb etgan belbog'lik kurash turi insondagi ulkan jismoniy quvvat, kuch-qudratni aks ettirishdan avval, birinchi galda kurashchidagi yuksak ma'naviyat, madaniyat,

kamtarlik, samimiylilik, bag'rikenglik, rahmdillik, mehribonlik va yana ko'plab insoniy fazilat va xislatlarni o'zida namoyon etgan. Mohir, belbog'lik kurashda, ma'naviyatda tengsiz insonlarga xalqona tilda “polvon” sifati qo'shib aytilgan. Polvonlar xalq orasida o'zining kuchliligi, mardligi, tantiligi, hamisha el-yurt uchun kamarbastaligi bilan ajralib turganlar, odamlarning ishonchi va suyanchiga aylanganlar.

Shunday ekan, jismoniy tarbiya darslarida va sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni belbog'lik kurash sport turi bilan shug'ullanishlarini tashkil qilish natijasida, avvalo, o'quvchilarda:

- yurtimiz tarixi, xalqimiz madaniyati, milliy qadriyatlarimizga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari, vatanparvarlik hissi shakllanadi;
- jamiyat a'zolariga nisbatan rahmdillik, olijanoblik, bag'rikenglik, kamtarlik kabi umuminsoniy fazilatlar tarbiyalanadi;
- o'z kuchini jilovlash, sabr-matонат, irodalilik, og'ir damlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'z manfaatlaridan jamoa manfaatlarini ustun qo'yish xislatlari shakllanadi va h.k.

Ma'lumki, belbog'lik kurashda halollik, adolatlilik, o'z kuchini aniq va to'g'ri safarbar etish, raqibiga adolat va samimiylat bilan munosabatda bo'lgan holda kurash olib borish, mag'lubiyatni tan olish, g'alabadan kibrga berilmaslik kabi umuminsoniy tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, belbog'lik kurash mashg'ulotlarida o'qituvchi hamda murabbiylar tomonidan ayni jihatlariga muhim e'tibor qaratilishi, avvalo, o'quvchilarni mazkur sport turiga ma'nan-ruhan tayyorlash nazarda tutilishi lozim. Buning uchun esa belbog'lik kurashning butun mohiyati, bo'y-basti, xususiyatlari haqida o'quvchilar nazariy bilim-malakaga ega bo'lishlari zarur. Bunda:

- tarixda yashab o'tgan polvonlar haqidagi rivoyatlardan foydalanish;
- o'quvchilarni rivoyatlar, xalq dostonlarida keltirilgan pahlavonlarning belbog'lik kurash sahnalariga oid tasviri, kino san'ati namunalari bilan tanishtirish, ulardagi amaliy harakat jarayonlarini tahlil qilish;
- bugun biz bilan bir zamon va makonda yashayotgan nomdor polvonlar bilan uchrashuv, suhbatlar uyushtirish, ularning msalahat va tavsiyalarini o'rganish va h.k.

Belbog'lik kurash mashg'ulotlarining samaradorligi dars vazifalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, vazifalarning aniq qo'yilishiga hamda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini to'g'ri qo'yilishiga bog'liqdir.

Bu boradagi tadqiqotlarda keltirilganidek, o'quv-trenirovka va mashg'ulot jarayonida bilim, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal etishida darsning tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shug'ullanuvchilar organizmining ishga normal kirishishini, asosiy yuklamalarining bajarilishi va nisbatan tinglanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, darsning tuzilishi tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlardan tashkil topadi.

Dars yillik o'quv reja, o'quv ish rejasi va har bir dars uchun yozilgan konspekt asosida o'tkaziladi. Darsning vazifasi va mazmuni shug'ullanuvchilar, ularning tayyorgarligi uslublariga qarab tuziladi.

Bunda boshlang'ich tashkiliy ishlar, shug'ullanuvchilarning diqqatini o'ziga tortish, ularni dars vazifalari bilan tanishtirish va mashg'ulotga ijobiy yo'nalish berish bosh masala hisoblanadi.

Harakat apparatining va organizmining barcha tizimlarini asta-sekin oshirilgan yuklamalarga funksional jihatdan tayyorlash, organizmni qizitish va mashg'ulotga tayyorlash, qulay emotsional holatni vujudga keltirish lozim bo'ladi.

Bunda vositalar – bajarish texnikasi shug'ullanuvchilar o'zlashtirib oladigan yoki tez o'zlashtirib oladigan yengil mashqlar; signal, belgilar bo'yicha turli holda saflanish va qayta saflanishlar; har xil yurish-yugurish, umumiy va maxsus tayyorgarlik hamda maxsus xarakterdagi gimnastika mashqlari; kuch, tezkorlik, chidamlilik, epchillik, egiluvchanlik, cho'zilish va muskullarni bo'shashtirish mashqlari, harakatlar safligiga oid mashqlar, yuklamalarni asta-sekin oshirib, eng oddiy sakrash, o'mbaloq oshish mashqlari, shuningdek, oddiy harakatli o'yinlar va yakkama-yakka olishish elementlari bo'lgan mashqlar va h.k..

Darsning asosiy qismida vazifalarni bajarish bilan bir vaqtda, ta'lim, tarbiya berish, sog'lomlashtirish vazifalari, kurashga oid umumiy va maxsus vazifalar hal etiladi. Shu bilan harakat apparatini va organizmning barcha tizimlarini har tomonlama rivojlantirish hamda mehnat va sport faoliyatida zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni tarbiyalash; shug'ullanuvchilarning harakat faoliyati, kurash sohasidagi bilimlar, "Alpomish" va "Barchinoy" test me'yorlariga doir hayotiy muhim bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish harakatlari asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Bunda asosiy vositalar – buyumlar, jumladan, koptok va boshqalar bilan bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi, tayyorgarlik va maxsus mashqlardan iborat. Mashg'ulotlarning asosiy qismida, uning boshqa qismlaridagi kabi sport tayyorgarligiga doir maxsus vazifalarni bajarish bilan birga, psixologik tayyorgarlik, axloqiy va estetik tarbiya vazifalari ham hal etiladi. Chunki polvon, avvalo, kurashga ma'naviy-ruhiy jihatdan shay bo'lishi, axloqiy va estetik tomondan raqibiga madaniyat bilan munosabatda bo'lishi, uning tayyorgarligi, mahorati va qobiliyatini yuqori baholashi va hurmat qilishi lozim.

Shu bois, o'quvchilar belbog'lik kurash bilan qanchalik samarali mashg'ulot o'tsalar, ularda umuminsoniy sifatlari shunchalik izchil rivojlanadi. Shuni ham qayd etish kerakki, dars mashg'ulotlarida berilgan soatlarning o'zida ushbu sport turini to'laqonli o'zlashtirishning imkoni yo'q, albatta. Buni qo'shimcha soatlarda, to'garaklarda to'ldiriladi. Masalan, jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilar bilan qo'shimcha ravishda ishlash mexanizmlarini takomillashtirishi lozim. Bunda oiladagi, mahalladagi ta'lim-tarbiya tizimi imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur. Chunki o'quvchining oila muhitida sport mashg'uloti bilan shug'ullanishi, mahalladagi sport o'yinlarida faol ishtiroki dars jarayonida egallagan bilim-malakalarini mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa:

- ota-onalar bilan uzviy aloqa va hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- mahallalarda o'tkaziladigan tadbirlarda o'quvchi yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlab borish;
- sport mashg'ulotlari va musobaqalarida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etayotgan o'quvchilarni ma'naviy-moddiy rag'batlantirib borish;
- har bir sportchi uchun yangi uslubda "Sportchi kundaligi"ni tutish va uning ichiga "o'qituvchi-ota-ona-mahalla" aloqasini qayd etib borish va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilish kerakki:

- belbog'lik kurashi asosida o'quvchi yoshlarda vatanparvarlik, xalqimiz milliy qadriyatlariga hurmat-ehtirom g'oyalari qaror toptiriladi;
- ko'rgazmalilikdan samarali foydalanish orqali belbog'lik kurash mazmun-mohiyatini yoshlar ongi va qalbiga chuqur singdirish;
- mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash yuzasidan oila-mahalla-maktab hamkorligini izchil yo'lga qo'yish va buning uchun yangi uslub – har bir sportchiga mo'ljallangan “sportchi kundaligi” ni joriy qilish;
- belbog'lik kurash mashg'ulotlarining samaradorligini ta'minlash yuzasidan dars vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish, jumladan, vazifalarni aniq qo'yish, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yuqori saviyada tashkil qilish, darsning tuzilishi, ya'ni tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlarni faol va izchil ishlab chiqish kabi vazifalarni oqilona amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.* - T.: “O'zbekiston”, 1999. – 73.
2. Qosimova R.N., Xolova N.SH., Iskandarov E. *“Talabalar sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati”.* // Respublika ilmiy-nazariy anjuman ma'ruzalari. – Jizzax: 2005.
3. F.Xo'jayev, T.Achilov. *Kurash va yakka kurash (kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma).* Nizomiy nomidagi TDPU. –T., 2012.
4. Qurbonov A.E. *An'anaviy xalq o'yinlarining barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni.* // “Bolalar va yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. – Termiz: 2003.
5. Xolova SH.M., Dropchenko V.I., Xayitov T.SH. *Sportga yo'naltirish dasturi.* // “Bolalar va yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. – Termiz: 2003.

Shaylovbek SAIPNAZAROV,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,

Malika ORTIQOVA,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchi

MATEMATIK MASALALAR ORQALI O'QUVCHILARDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining – matematika darslarida iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan matematik masalalar tanlash va ularni yechish usullarini o'rganish qoidalari yoritilgan. Shuningdek, bu masalalar yordamida fanlar orasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Pedagog, o'quvchi, iqtisodiy tarbiya, matematik masalalar, dars o'tish jarayoni, iqtisod alifbosi.

В данной статье рассмотрены вопросы математических задач, содержащих экономические показатели, использования на уроках математики в начальных классах, показаны пути их решения. Определена роль таких задач для реализации межпредметных связей.

Ключевые слова. Педагог, ученик, экономическое воспитание, математические задачи, учебный процесс, азбука экономики.

The problems of formation of economic education in initial classes are investigated. It is given great attention to the choice and the decision of mathematical tasks connected with economic indicators calculation. A communication between economic and mathematical sciences is shown on an example of real tasks.

Key words. Teacher, student, economic, education, math problems, educational process, economic alphabet.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri maktab o'quvchilarining iqtisodiy madaniyati va bilimlarini shakllantirishdan iborat. O'quvchilarning qobiliyatlarini o'stirishda, ularning iqtisodiy tarbiyasini shakllantirishda matematika fanini puxta o'zlashtirishga alohida e'tibor berilmog'i zarur. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati o'quvchilarning ishlab chiqarishga tayyorgarligini, iqtisodiy ma'lumoti, intizomi, madaniyati va o'z mehnatini shakllantirishga qaratiladi.

Darhaqiqat, o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim muassasasidan boshlab, bironing mehnatini hurmat qilishga, tejamkorlikka va tadbirkorlikka o'rgatish muhim masala bo'lib qolmoqda.

Barchamizga ma'lumki, iqtisodiy resurslar chegaralangan, buni inson va boshqa tirik organizmlarning ehtiyoji chegaralanmaganligi bilan izohlash mumkin. Shunday ekan, mavjud resurslardan oqilona foydalanmoq zarur.

Iqtisodiy tarbiya yoki iqtisodiy madaniyat deganda nimani tushunish mumkin?

Butun dunyoda ichimlik suvi muammosi yildan-yilga kuchaymoqda. Shunday davrda “vodoprovod” krani tagida ichimliklarni va shunga o'xshash narsalarni salqinlashtirish maqsadida isrof qilingan ichimlik suvi bilan qancha insonning ehtiyojini qondirish mumkin. Shuningdek, “vodoprovod” kranlarining ochiq qoldirilishi, sinfxonalardagi lampochkalar, elektr plitalari yoki konditsioner va hokazolarni o'chirmasdan tushlikka chiqib ketish – bular iqtisodiy tarbiyaning yetishmasligi va iqtisodiy madaniyatsizlikni bildiradi.

Bu muammolarni hal qilish uchun o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyasi bo'yicha maqsadli metodik ko'rsatmalar yaratish, darsliklarni iqtisodchilar bilan hamkorlikda uslubiy fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashi maqsadga muvofiqdir. Tayyorlangan darslik qaysi fandan bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiy madaniyatning bir qismi bo'lgan ekologik yo'nalishni ham o'z ichiga olishi kerak. Natijada, o'quvchilar haqiqatdan ham iqtisodiy va ekologik majmuada yashayotganliklarini, tabiatning bir qismi ekanliklarini his eta olishlari lozim.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining iqtisodiy tarbiyasini shakllantirish yo'llaridan biri matematika darslarida iqtisodiy tushunchalarni o'z ichiga olgan matematik masalalar tanlash va ularni yechish usullarini o'rgatish, bundan kelib chiqib, faqat javobni topish emas, balki ularning iqtisodiy ma'nosini tahlil qilishdan iboratdir.

Quyidagi masalani ko'rib chiqamiz: Ali bilan Valiga archa uchun bayroqchalar tayyorlash vazifasi topshirildi. Ali 2 soatda 40 ta, Vali esa 3 soatda 45 ta bayroqcha yasadi. Ulardan qaysi birining mehnat unumdorligi yuqori?

Yechish: Masalani yechishdan avval mehnat unumdorligi tushunchasini kiritamiz. Ko'paytirish formulasi deb nomlanuvchi formulani yozamiz. Har qanday ikki sonning ko'paytmasi uchinchi sonni beradi, ya'ni $c = a \cdot b$. Bu uchta kattalik orasidagi bog'lanishni ifodalaydigan formuladir. Shunga o'xshash yana quyidagilarni keltirish mumkin: “masofa-tezlik-vaqt” ($c = v \cdot t$), “tannarx-narx-tovar miqdori” ($p_0 = p \cdot n$), “ish-mehnat unumdorligi-vaqt” ($A = v \cdot t$) va hk. Endi masalaning yechimiga qaytamiz. Ali bilan Validan qaysi biri tez ishlaganini bilish uchun ularning bir soatda bajargan ishini taqqoslaymiz:

Ali bir soatda $40 : 2 = 20$ (bayroqcha)

Vali bir soatda $40 : 3 = 15$ (bayroqcha) yasagan.

Bundan ko'rinadiki, Ali tezroq ishlagan, chunki u bir soatda 20 ta, Vali esa 15 ta bayroqcha yasagan. Ba'zi hollarda ish tezligini mehnat unumdorligi deb yuritishadi. Bizning misolimizda Alining mehnat unumdorligi 20, Valiniki esa 15 ga teng. Shunday qilib, vaqt birligi ichida bajarilgan ish mehnat unumdorligi deb yuritilishini bilib oldik. $A = v \cdot t$ ish formulasi deb yuritiladi. Bundan mehnat unumdorligi va ish vaqtini osongina topish mumkin: $v = A : t$, $t = A : v$.

Bunday masalalarni tuzishda va yechishda quyidagi ko'paytirish formulalari yordam beradi:

1.	Masofa (S)	Tezlik (v)	Vaqt (t)	$S = v \cdot t$
2.	Ish (A)	mehnat unumdorligi (v)	Vaqt (t)	$A = v \cdot t$
3.	Tannarx (p_n)	Narx (p)	tovar miqdori (n)	$p_n = p \cdot n$
4.	Uydagi kvartiralar soni (N)	Bir etajdagi kvartiralar soni (k)	Etajlar soni (n)	$N = k \cdot n$
5.	Basseyin hajmi (V)	Basseyin to'lish tezligi (a)	To'lish vaqti (t)	$V = a \cdot t$
6.	To'g'ri to'rtburchak yuzi (S)	Uzunligi (l)	Kengligi (b)	$S = l \cdot b$
7.	Teatrdagi o'rindiqlar soni (T)	Qatordagi o'rinlar soni (m)	Qatorlar soni (n)	$T = m \cdot n$
8.	Ko'ylak uchun sarflangan mato (p)	Bitta ko'ylak uchun sarflangan mato (p_1)	Ko'ylaklar soni (n)	$p = p_1 \cdot n$

Ko'paytirish formulalaridan foydalanib yechiladigan ushbu masalalarni keltiramiz.

1) Ikki usta bir xil mehnat unumdorligi bilan o'yinchoqlar yasadi. Birinchi usta 32 ta, ikkinchisi esa 24 ta o'yinchoq yasadi. Ular o'zlarining ish vaqtini birgalikda hisoblaganda 14 soat sarflashganini aniqladilar. Har bir usta bu ishga qancha vaqt sarflagan?

2) Ikki dugona havoga uchadigan sharlar sotib olishdi. Ulardan biri xarid uchun 32 pul birligi, ikkinchisi esa 24 pul birligi to'ladi. Ular birgalikda 14 ta shar sotib olishdi. Har bir dugona qanchadan shar sotib olishgan.

Bu maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy tarbiyasini shakllantirish uchun matematika darslarida o'qitishning amaliy yo'nalishlarini kuchaytirish va masalalarni bosqichma-bosqich yechishni tashkil etish, shuningdek, matematika darslarida didaktik imkoniyatlardan to'la foydalanishga yo'naltirishdan iborat. Shu bilan birga matematikaning hayotda naqadar muhim ekanligini misollar yordamida ko'rsatishdir. Bu maqsadga erishish yo'lida ko'plab hayotiy voqealarga asoslangan holda statistik ma'lumotlarga ko'ra misol va masalalar keltirish lozim.

O'quvchilarning iqtisodiy tarbiyasini shakllantirishda matematika darsi katta imkoniyatlarga ega, ya'ni o'zining darsliklariga e'tibor berish, asrash, maktab mulkini, elektr energiyasini, oziq-ovqat mahsulotlarini ehtiyot qilishga bag'ishlangan matematik masalalarni yechish va ularni tahlil qilish imkoniyatlari mavjud.

Bunday iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan masalalarni yechishda o'quvchilar elementar hisoblarni o'rganishadi, xaridning u yoki bu foydasini baholashni, tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq ma'lumotlarni baholashni o'rganishadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida matematika kursida masala yechishga katta e'tibor beriladi, bu o'z navbatida o'quvchilarning masalalar yechish orqali iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ishlab chiqarish, hosildorlik, narx, sotish, sotib olish, tabiat va uning boyliklarini asrash kabi iqtisodiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi masalalarni o'rganish o'quvchilarning iqtisodiy bilimni oshiradi.

Iqtisodiy ta'lim vaqtdan unumli foydalanishni, oila byudjetini to'g'ri baholashni va uy xo'jaliklarini ratsional yuritishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni iqtisod alifbosi bilan tanishtirishga yo'naltirish, asosan o'yinlar orqali sodda masalalarni yechish, turli ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni tahlil qilish zarur.

O'quvchilar miqdor va mehnatning sifati orasidagi bog'lanishni tushunib yetishlari, qandaydir ishni bajarish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish, iqtisodiy tarbiyaning boshlang'ich elementlarini egallash, sifatni va mehnat unumdorligini oshirish, xususiylik turlari haqida tasavvurga ega bo'lishlari kerak.

Quyidagi masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy tarbiyasi va madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi:

1. To'liq ochilgan “vodoprovod” jo'mragidan oqayotgan suv 10 litrlik idishni 40 soniyada to'ldiradi. Uy egasi o'z mashinasini shu jo'mrakdan oqayotgan suv yordamida bir soat davomida yuvdi. Qancha miqdordagi ichimlik suvi isrof bo'ldi?

2. Ma'lumotlarga ko'ra, bir oilada o'rtacha bir kunda 8 soat televizor ko'rilar ekan. Agar televizor soatiga 300 vatt elektr energiyasi sarflasa, oila bir oyda qancha kv. soat elektr energiyani televizor uchun sarflaydi?

3. Agar korxonada har ish kuni o'rtacha 200 varaq qog'oz sarflansa va shu qog'ozlarning 500 varag'i 20000 so'm bo'lsa, u holda korxona oyiga qog'oz uchun qancha pul sarflaydi?

4. Agar “vodoprovod” jo'mragidan bir daqiqada 30 tomchi suv tomsa va tomchining hajmi o'rtacha 1 millilitr bo'lsa, u holda bir oyda qancha suv isrof bo'ladi?

5. Quvvati 200 vattlik elektr suv isitkichi hamma vaqt ishlatilsa, u holda faqat suv isitkich uchun oyiga qancha pul to'lanadi? 1 kv. soat energiya narxi 150 so'm.

6. Quvvati 250 vatt bo'lgan konditsioner va quvvati 350 vatt bo'lgan sovutkich uchun (izoh: sovutkich vaqtning yarmida energiya sarflanmaydi) bir oyda sarflangan elektr energiyasining narxini toping?

7. Agar 25 santimetrlik pitsaning narxi 7500 so'm bo'lsa, u holda 375 santimetrli pitsa qanday narxda bo'ladi?

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darsida iqtisodiy tayyorgarligini oshirish majmuasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- matematika darsida qiziqarli iqtisodiy ma'lumotlar bilan boyitilgan masalalar orqali motivatsiyani kuchaytirish;
- sodda iqtisodiy tushunchalar haqida boshlang'ich tasavvurlarni shakllantirish;
- matematik tushunchalarning tatbiqlarini va kundalik hayotda iqtisodiy bilimlarni o'rganishga yo'naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Peterson L.G. *Matematika.* “Yuventa”, 2010.

Sarvar SOBIROV,

Olmazor tumani 298- umumiy o'rta ta'lim maktab
tasviriyl san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING IJODIY JARAYONINI TASHKIL ETISHDA TO'GARAKLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada bolalar to'garaklarini tashkil etish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif turli tasvirlash vositalaridan foydalanib rasm chizish yo'llarini hamda tasviriyl san'at asoslarini o'quvchilarga o'rgatish usullarini yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Badiiy ta'lim, ijodiy qobiliyatlar, axloqiy tarbiya, milliy san'at, ijodiy vazifalar.

В статье освещается организация детских творческих кружков, указываются способы развития творческих способностей детей, рассматриваются возможности научить их основам изобразительного искусства, рисования с натуры с использованием различных художественных материалов.

Ключевые слова. Художественное образование, творческие способности, нравственное воспитание, национальное искусство, творческие задания.

In article is described organization of the creative processes in year baby camp, is indicated ways development to creative abilities beside children, teach him bases graphic arts, drawing by from nature use different artistic material and on memories, as well as influence of these processes on new school year.

Key words. Artistic formation, creative abilities, moral education, national art, creative task.

Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda o'quvchilar ongiga milliy g'oyaning asosiy yo'nalishlarini singdirish badiiy ta'lim vositalaridan samarali foydalanish, o'quvchilarning ma'naviy siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirish bilan birga ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish borasida maqsadli tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq" – degan fikrlari so'zimizning isbotidir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning samarasi sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuniga bog'liq.

Shunday ekan o'quvchilar to'garaklarni tashkil qilish darsdan tashqari ta'lim-tarbiyani eng ko'p qo'llaniladigan shakllaridan biridir. To'garaklar o'quvchilarni qiziqishi va xohishlariga qarab sinfdan va maktabdan tashqarida tashkil etiladi. To'garak – bu fan,

texnika va san'atning biron-bir turi bo'yicha o'z qiziqishlarini, istak orzu va qobiliyatlarini namoyon qilgan o'quvchilarning ko'pligini uyushmasidir.

Tasviriy san'at va amaliy san'at bo'yicha to'garaklarda olib borilgan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi, badiiy ta'lim, mehnat intizomini kuchaytirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ular tafakkur qilish madaniyati va ma'naviy fikrlash, maqsadga yo'naltirilganlik, o'z-o'zini nazorat qilish, yuklatilgan vazifaga nisbatan javobgarlik hissini sezish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Bu yerda bolalardagi shaxsiy qobiliyatlar va ishtiyoq chuqurroq va yorqinroq namoyon bo'ladi.

Bolalar bilan bunday mashg'ulotlarni shartli uch turga bo'lish mumkin:

1. Pedagogdan doimiy maslahat olgan holda bajarilgan o'quvchilarning individual ishlari;

2. Guruhli ishlar (to'garak, studiya, klublar va o'quvchilarning boshqa birlashmalari);

3. Ommaviy bajarilgan ishlar (mavzuli kechalar, ma'ruzalar, kartinalar galareyasi, muzeylar va rassom ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirish);

Mashg'ulotlar asosan amaliy ko'rinishda bo'ladi. Tasviriy va amaliy san'at ixlosmandlari klubi bir necha bo'lim yoki to'garaklarni o'zida birlashtiradi.

Amaliy mashg'ulotlar bilan birga darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmuni ma'ruza, suhbat, mavzuli kechalar, tasviriy san'at va amaliy san'at ustalari bilan uchrashuvlar, bayramlar, ekskursiyalar, ijodiy safarlar, ekspeditsiyalar, yig'inlar, konferensiyalar, festivallardan ham iborat bo'lishi mumkin.

Bu yo'nalishda quyidagilar o'rganiladi:

– ijodkor rassomlar va xalq ustalari ijodiy faoliyatidagi badiiy fikrlash jarayonini o'rganish;

– ularning asarlaridagi tabiat va atrof muhit bilan muloqotini sezish;

– uning ijodiy yutuqlar sirini aniqlash va ishlash usullarini o'rganish;

– o'z tajribasida bu usullarni o'rganish kabi mashg'ulotlar tizimini hisobga olib rejalashtirilgandan so'ng yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'ladi;

Badiiy ijodkorlik yo'nalishidagi eng ommaviylardan biri bu ijodiy to'garak. To'garak faqat yaxshi chizadigan bolalar uchungina emas, qog'oz va bo'yoqlar yordamida o'z fantazyalarini sinab ko'rishni hohlaganlar uchun ham tashkillashtiriladi.

Tasviriy san'at to'garagi rejalari quyidagi asosiy talablarga mos ravishda tuziladi:

– mashg'ulotning g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarga yo'naltirilganligi;

– bolalar va o'smirlar yoshi bilan badiiy ijodkorlik xususiyatlarining mosligi;

– o'quv va ijodiy vazifalarning oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich va tartibli rivojlantirilishi;

– mashg'ulotlarning o'zaro uzviy bog'liqligi;

– tasvirlash vositalarining xilma-xilligi;

– mahalliy madaniyat va san'atning o'ziga xosligini e'tiborga olinganligi;

– mavzularning ko'zda tutilgan rivojlanishi va mazmunining takomillashib borishi.

O'quvchilar tasviriy san'at va amaliy san'at dasturini o'zlashtirish natijasida:

• tasviriy san'at turlari, tasviriy san'at va milliy amaliy san'atning inson hayotidagi ahamiyati haqida;

• tasvirlashning asosiy tushunchalari;

• tabiat, qurilishlar, kiyimlar, milliy urf-odatlar, bayramlar go'zalligini ko'ra bilish va tasvirlay olish;

• tasviriy san'at va boshqa san'at turlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi tasavvurga ega bo'lish;

- milliy san'at namunalarini boshqa xalq san'atidan, o'z hududi san'at namunalarini boshqa hudud san'at asarlaridan farqini bilish, ularni ajrata olish;
- ijodiy ish bajarayotganlarida yoshlari darajasidagi tasvirlash tili va bajarishdagi chiziqlar jozibadorligi imkoniyatlarini qo'llay olish;
- mahalliy oddiy materiallardan tasviriy san'at va amaliy san'at asarlarini yaratish, atrof muhitni, o'quv xonalarini badiiy bezash ishlarida qatnashish;
- o'z o'rtoqlarining ishlari, mashhur milliy va xalqaro tasviriy va amaliy san'at ustalarining asarlarini baholay olish, ular to'g'risida o'z fikrini ayta olish.

Dasturni bajarish natijalari bolalar faoliyatini kuzatish, ularning ijodiyoti ko'rgazmasida anketa orqali ota-onalari bilan og'zaki so'rovlar o'tkazish ijodiy ishlarini tahlil qilish, baholash jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Ijodiy ishlarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

– berilgan vazifani bajarishda har xil usullardan foydalanib mohiyatini ochib berish;

- o'ziga xoslik;
- materialda ishlashning nozikligi;
- ishni toza va aniq bajarish;
- muallifning o'z ishiga munosabati.

Pedagog badiiy ijodkorlik mashg'ulotlarining asosiy mavzularini O'quvchilarning umumiy ish rejasiga moslab ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Avvaldan ko'rgazmali qurollar, metodik materiallar, qo'shimcha adabiyotlar, ijodiy ishlar namunalari, tasviriy san'at materiallari va aslahalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Bolalarning yosh farqlarini hisobga olgan holda (tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati yoki badiiy mehnat) bir necha xil variantlarda tuzib chiqiladi.

To'garakning birinchi ish kunida bolalar qiziqqan narsalari haqida, qanday mashg'ulotlar o'tilishi, unda ishlatiladigan materiallar, to'garak a'zolarinig yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar berib, xohlovchilarni a'zolikka qabul qilib "ochiq eshiklar kuni" ni o'tkazgan ma'qul. Aynan shu vaqtda to'garakka olinayotgan o'quvchilarga qarab ularning ota-onalari bilan suhbat o'tkazish natijasida dasturni to'g'irlab olish mumkin bo'ladi.

Mashg'ulotlar maxsus auditoriyalarda, yaxshi havoli kunlarda tashqarida ochiq havoda o'tkazilishi mumkin. Auditoriya havo almashib turadigan, yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Unda stol, stul, molbertlar stentlar yoki ko'rgazmali qurollarni ilib qo'yish uchun maxsus qurilmalar, asbob-anjomlarni, tayyor ishlarni saqlash uchun shkaf bo'lishi lozim.

Xona qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi uni suv uchun chiroyli bankalar, parda, ko'rgazmali qurollar, reproduksiyalar, kitoblar yordamida shinam qilib qo'yishi mumkin. Mo'yqalam, bo'yoq va boshqa materiallar uchun albatta tokchali shkaf bo'lishi lozim. Keyinchalik anglashilmovchilik bo'lmasligi uchun har bir tugallangan ishga muallif ismi sharifi, bajarilgan kuni yozib qo'yiladi. Bu ko'rgazma uyushtirilgan vaqtda ham qo'l keladi. Stollarni qo'yish ham katta ahamiyatga ega, ularni bir-biriga qarab qo'yish kerak, shunda stolning 2 tomonidagilar bir-biri bilan muloqotda bo'lishi, suv idishlari, bo'yoqlardan birgalikda foydalanishlari mumkin bo'ladi. Bo'yoqlar hamda suvli bankalar o'rtada bo'lishi kerak. Agar bitta stolning ikki tomoniga o'tirishning imkoni bo'lmasa, bolalar yuzma-yuz o'tirishlari uchun ikkita stolni bir-biriga qaratib qo'yish kerak bo'ladi, bu jamoaviy ishlarni bajarishda juda qo'l keladi.

Imkon qadar xona va zallarni bezash uchun bolalar ijodiy ishlaridan foydalanish lozim. Aynan ular tomonidan ishlangan ishlarining e'tirof etilishi – bolalar va o'smirlar ijodiy faoliyatlarining oshishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Har bir to'garak a'zolari ishlari so'ngida hisobot ko'rgazmasi o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir ishda ish nomi, muallif ismi-sharifi, yoshi qayd etilgan yorliq bo'lishi zarur. Ko'rgazmani tashkil etishning eng ma'suliyatli vaqti bu uning asosiy g'oyasini ifodalovchi shiori hisoblanadi. Shiorni maket, ramz, fotorasmlar bilan to'ldirish mumkin. Eng yaxshi ishlarni esdalik sovg'alari sifatida taqdirlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyida 8-10 yoshli bolalarga mashg'ulotlar o'tish uchun tuzilgan dastur berilgan:

1-mashg'ulot. Kirish suhbat. Bolalar mashg'ulotlarda nimalar bilan shug'ullanishlari va bolalar rasmlari misolida suhbat. Tasvirlash vositalari va ashyolari, ularni ishga tayyorlash haqida maslahatlar beriladi. Barg rasmini naturadan ishlash.

2-mashg'ulot. Akvarel bo'yog'i va unda ishlash yo'llari bilan tanishish. Mo'yqalam yordamida qalamda chizmasdan, rangda oddiy o'simliklar ranglavhalarini ishlash.

3-mashg'ulot. Yo'l ichida naqsh rasmi va uni uch xil rangda bo'yash.

4-mashg'ulot. O'zbek xalq ertaklari mavzusida rasm ishlash masalan. Zumrad va Qimmat ertagi asosida.

5-mashg'ulot. O'rmon yoki bog'lar (shaxar sharoitida turli saylgoxlar)ga sayr. Ignabargli daraxtlar so'tasi, har xil shaklli shoxchalar yig'ish. Yiqqan shoxchalardan har xil shakllarni yasash.

6-mashg'ulot. “Bog'da nimalarni ko'rdik” mavzusida rasmlar ishlash.

Bu dastur bo'yicha bolalar asosan naturadan foydalanib rasm ishlashadi,

9 – 11 – yoshda esa faqat naturadan ishlash to'g'ri emas, albatta bolalar fantazyalarini rivojlantirish uchun ijodiy vazifalar bajarishlari lozim.

Ijod barcha moddiy va ma'naviy ne'matlar o'chog'i – inson hayotining asosi hisoblanadi.

Atrofimizni qurshab turgan tabiatdagi buyumlarning turli shakllari, ko'rinishlari va nozik rang tuslanishlarining xilma-xilligini kuzatish bolaning ichki dunyosining boyishi va rivojlanishiga ta'siri kuchli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Sulaymonov. A, Amirova. G. Bolalarga tasviriy faoliyat texnikasini o'rgatish “Xalq ta'limi” jurnali. – T., 2012. №4, 53 b.
3. Rajabov. R, Sultonov H. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi (o'quv-qo'llanma). – Toshkent: 2008.

Muzaffar SHIRINOV,
Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYAT

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyachilari, ota-onalar uchun "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarini amaliyotda qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif maktab yoshdagi bolaning rivojlanish va dastlabki bilim olishi to'g'risidagi har bir oila va jamiyat bilishi zarur bo'lgan tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Sog'lom bola, ota-ona, adaptatsiya, ijtimoiy muhit, jamiyat, ta'lim, tarbiya.

В статье раскрыто основное содержание базовой программы для воспитателей дошкольных образовательных учреждений и родителей "Ребенок третьего тысячелетия" и учебно-методического пособия, даны рекомендации, необходимые для каждой семьи и коллектива детского учреждения по развитию и первоначальному обучению детей.

Ключевые слова. Здоровый ребенок, родитель, адаптация, социальная среда, общество, образование.

The article discusses the use of basic State requirements the basic software in pre-school educational institutions. The author also for the development of school-age children and early learning offers a number of guidelines.

Key words. A healthy child, a parent, adaptation, social environment, society, education, education.

Respublikamizda amalga oshirayotgan islohatlardan asosiy maqsad va ularni harakatlantiruvchi kuch inson, uning barkamol rivojlanishi, yangicha fikrlashi hamda uning ijtimoiy xulqi hisoblanadi. Respublikamizda rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashiga barcha imkoniyatlar yaratildi. Jumladan ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirayotgan vazifalarmizning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ana shunday fikrlarni ilgari suradi. "Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda".

Aslida "Sog'lom bola" nima degani, "Sog'lom" so'zi: Dard-kasaldan xoli; sog'; sog'liqni saqlash talablariga to'la javob beradigan; beg'ubor, toza, zararli ta'sirdan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan xoli; toza, pok; ruhiy jihatdan shikast yetmagan; raso; g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy jihatdan toza, pok, degan ma'nolarni beradi.

Hozirda maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyachilari, ota-onalar uchun “Uchinchi ming yilning bolasi” tayanch dasturi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari yaratilib amaliyotda qo'llanilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassalarida, xususiylashtirilgan maktabgacha ta'lim muassalarida, maktablar qoshida, maktabdan tashqari muassasalarda turli maktab tayyorlov markazlarida bolalarni maktabga tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Afsus bilan shuni aytish kerakki, 1-sinfga qabul qilinayotgan o'quvchilarning hammasi maxsus tayyorgarligi bilan birgalikda, bu ishlarni amalga oshiruvchi tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa markaz hodimlari kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash bilim, ko'nikma, malakalarga ega emasliklari, bolalar bilan ishlash vosita va texnologiyalarini o'zlashtirib ololmaganliklari tufayli bolalar hamon maktabga jismonan, ruhiy, ma'nan, pedagogik, tayyorgarliksiz kelishlari kuzatilmoqda. Shu sababli 1-sinflarda savodxonlik darajasi, Davlat talablarini to'la amalga oshirish, o'zlashtirish, erkin fikr yuritishi shakllanishida o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bunday vaziyatdan qanday qilib, chiqish mumkin? Bu muammolarni qanday yechish mumkin?

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikr, mulohazalariga maxsus-tarbiyachilar yordamida tayyorgarlik ko'rgan, ayrim hollarda oilada hech qanday tayyorgarlik ko'rmagan bolalar 1-sinfga kelib o'qiydilar. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlab olib kelish yangi omillarni izlash, topish, tajriba sinovlardan o'tkazish asosida amalga oshirish zaruriyatni talab etmoqda. Maktabga tayyorlashda bolalarning ruhiy tayyorgarligi, jismonan sog'lom bo'lishi, muloqatga kiraolishi, so'z boyligi (zahirasini)ni boytish, boshlang'ich elementar matematik tushunchalarga ega bo'lishi, yozishga boshlang'ich tayyorgarlik, ayrim so'zlar to'g'risida tasavvurlarni bilishi muxim rol o'ynaydi. Ayniqsa 3-6 yoshli davr bolasi axborot olishga bo'lgan ehtiyoji yuqoridir. Bu borada ta'lim muassasalalarida tarbiyalanayotgan barcha bolalar uchun ijtimoiy adaptatsiya muammosi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bolaning ko'nikish imkoniyatlarini oshirish, uning ijtimoiy aloqalarini kengaytirish bola shaxsining shakllanishi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Adaptatsiya –[lot. adaptatio — moslashuv]. Organizmning, masalan, sezgi a'zolarining atrof muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi.

Boshqacha aytganda organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanish xususiyatidir.

Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana turib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq uning faolligi “bola-kattalar” munosabatlari ichida tartibga solinadi.

Ijtimoiy pedagog bolalarning ko'nikish darajasini aniqlashi uchun quyidagi tasnifga tayanishi lozim:

1.Yengil adaptatsiya – bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Bola MTM (Maktabgacha ta'lim muassasi) ga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini me'yorda tuta boshlaydi.

2.O'rta adaptatsiya –bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o'zgarishlar 15-30 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z vaznini tiklab oladi. MTMga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba yengil kasallikka chalinadi va 7-10 kun MTMga kelmasligi mumkin.

3.Og'ir adaptatsiya shunda namoyon bo'ladiki bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo'lish kuzatiladi va ba'zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit, pnevmaniya).

Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho'ziladi, rivojlanish va sog'liq ko'rsatgichlarida noxush holatlar ham namoyon bo'ladi.

Adaptatsiyaning noxush holatlarini maksimal bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagog 9 oylikdan 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar mikro ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni og'ir o'tkazishlarini inobatga olishi lozim. Shuningdek, adaptatsiya jarayonini oilaviy tarbiyaning quyidagi kamchiliklari ham og'irlashtirishi mumkin:

- noto'g'ri ovqatlanish;
- bolani noto'g'ri belash;
- salbiy odatlar;
- yoshiga mos kelmaydigan ko'nikmalar.

Ijtimoiy pedagog faoliyati uch bosqichdan iborat bo'lishi kerak: tashxis, tayyorlov, amaliyot.

Ijtimoiy-gigiyenik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda emizikli va maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya davrida bir qator muhim parametrlarni, ya'ni kasallanish, yurish-turish, ruhiy rivojlanishidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish kerakligi ta'kidlanadi.

Birinchi bosqich patronaji xaritasi:

Ota-onasi haqida ma'lumotlar:

- otasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasida homilaning kechishi va bola tug'ilishi.

Maishiy sharoitlari:

- istiqomat qiluvchilar soni;
- yashash joyiga baho berish (qulayliklari);
- yuvinish moslamalari;
- yashash joyi havosining tozaligi;
- bola bilan birga yashayotgan bolalar qaysi muassasalarga qatnashadi?

Bola haqida ma'lumotlar:

- yoshi;
- sog'ligi;
- bolaga kim g'amxo'rlik qiladi?
- bolaning kun tartibi qanaqa?
- u alohida xona, krovatga egami?

Bedorlik vaqti:

- bola bedorlik vaqtini qanday o'tkazadi?
- uyg'oqlik davrining uzunligi;
- sevimli o'yinchoqlari;
- kiyinish-yechinish, yuvinish jarayonlariga munosabati;
- kattalarning bolaga munosabatlari;
- bolaning kattalarga munosabati;
- bola bilan tez-tez sayr qilishadimi?

Ovqatlanish:

- ovqatlanish tartibiga amal qilinadimi?
- bola nima yeydi?
- nima yordamida ovqatlantirishadi (butilkami, qoshiqdami)
- bolaning ishtaxasi, faolligi.

Uyqu:

- bolani uxlayotganda o'zini tutishi;
- uyqudagi kiyimi;
- bola qanday uxlab qoladi (tez, tinch)?
- kuniga necha marta, qancha uxlaydi?
- uyqu xarakteri va uzunligi;
- qanday uyg'onadi (tinch, yig'i bilan)?
- bola kunduzi qayerda uxlaydi (kravat, xona, ko'cha)?
- tunda qanday uxlaydi?
- bolani uxlatishda unga so'rg'ich berishadimi?

Tayyorlov bosqichi o'z ichiga ijtimoiy pedagog tomonidan muayyan vaziyat asosida qabul qilinadigan bir qancha chora-tadbirlarni qamrab olishi kerak.

Og'ir adaptatsiya sabablarini aniqlash:

- tuman pediatri, tibbiy xodimlar, psixolog, ta'lim muassasi tarbiyachilari bilan aloqa va hamkorlik o'rnatish;
- bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga kirishlaridan avval sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini nazorat qilish;
- bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam rejasini tuzish;
- bolaning ta'lim muassasalarida yengil adaptatsiyasi uchun oilalar bilan aloqalar o'rnatish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiyasi uchun ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy ruhiy, tibbiy chora-tadbirlarni aniqlash.

Amaliy bosqich quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- oila va ta'lim muassasasida bolada bir xil yondashuvni shakllantirish;
- oila bilan aloqalar – bolaning MTMga qatnay boshlaganida 3-4 kun mobaynida onasining ishtirok etishi;
- axborot bazasining kengayib borishini e'tiborga olish;
- bolalarni ruhiy-emotsional xolatini qo'llab-quvvatlash.

Bolaning rivojlanish va dastlabki bilim olishi to'g'risida har bir oila va jamiyat bilishi zarur bo'lgan muhim tavsiyalar.

➤ Hayotning dastlabki 8 yili, ayniqsa dastlabki 3 yili mobaynida bola oladigan g'amxo'rlik va diqqat-e'tibor nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi.

➤ Go'dak hayotining dastlabki kunlaridan boshlab biror nimani o'rgana boshlaydi. Ular mehr-muhabbatga, alohida diqqat-e'tiborga va bunga qo'shimcha ravishda to'yimli ovqatlanib to'g'ri parvarish qilinsalar, tez ulg'ayadi va bilimlarni tez o'zlashtiradi.

➤ Murabbiylar bolalar tomosha qilishlari, eshitishlari, ushlab ko'rishlari va o'ynashlari uchun ularga yangi va qiziqarli narsalar berib, ulg'ayishi va o'rganishlariga yordam berishlari mumkin.

➤ Yosh bolarni uzoq vaqt qarovsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu ularning jismoniy va aqliy o'sib-ulg'ayishini sekinlashtiradi.

➤ Qiz bolalar ham o'g'il bolalar singari diqqat-e'tibor, g'amho'rlikka teng miqdorda muhtoj bo'ladilar. Bolalar biror narsa qilishni o'rganayotgan va yangi so'zlarni aytaётganlarida, ularni rag'batlantirish zarur.

➤ Bolaning jismoniy va aqliy o'sib-ulg'ayishi qoniqarsiz bo'lsa, ota-onalar shifokorga maslahat so'rab murojat qilishlari zarur.

➤ Bolaga dastlab o'z ona tilini o'rgatib, ularning fikr-mulohazalarini ifoda etish qobiliyatlarining kamol topishiga yordam berish lozim. Bolalar tilni qo'shiqlar, oilaviy voqea-hodisalar, she'rlar va turli o'yinlar vositasida tez va oson o'rgandilar.

➤ Barcha bolalar rivojlanganlik darajasiga muvofiq turli oddiy o'yinchoq bilan o'ynashlari kerak. Do'kondan sotib olingan o'yinchoqlar bilan bir qatorda suv, qum, karton qutilar, to'rtburchak shaklidagi yog'och bo'laklari o'yinchoq idishlar va qopqoqlar ham yaxshi vosita bo'lib hizmat qiladi.

➤ Yosh bolalar tevarak-atrofdagilarni kuzatib, ularga taqlid qilib, ijtimoiy muomala ko'nikmalarini hosil qiladilar. Shu asnoda qanday hulq-atvorlar maqbul, qaysilari nomaqbul ekanini bilib oladilar.

➤ Bolalarni turli mazmunli o'yinlarga rag'batlantirish ularning jismonan, aqlan borasida kamol topishlari va bilim olishlarida ko'maklashadi.

➤ Bolalar o'z yaqinlariga taqlid qilib, o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar.

➤ Barcha ota-onalar va murabbiy tarbiyachilar bolaning o'sib-ulg'ayishi ko'ngildagidek emasligini dalolat beruvchi belgilarni yaxshi bilishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi bola qanday rivojlanadi. (5-6 yosh)

Bola quyidagilarni qila olishi kerak:	Ko'rsatilgan yo'ldan yura olishi Ma'noli gaplashish va ko'plab turli so'zlarni qo'llashi Qarama-qarshiliklarni tushunishi (maslan, semiz va ozg'in, uzun va qisqa) Boshqa bolalar bilan o'ynashi Doimiy yordamsiz kiyina olishi Sodda savollarga javob bera olishi 5 tadan 10 tagacha narsalarni sanay olishi Qo'lini yuva olishi.
Ota-onalar va murabbiylarga maslahatlar:	Bolaning gap-so'zlariga quloq tuting Bola bilan tez-tez muomala qiling Agar bola duduqalansa, unga shoshilmasdan dona-dona qilib gapirishni taklif qiling Hikoyalar o'qib bering va aytib bering Bolani turli o'yinlarga va yangi narsalarni o'zlashtirishga rag'batlantiring.
Xavotirli belgilar:	Bola qanday o'ynayotganiga e'tibor bering. Agar u qo'rqqoq, jahldor va g'azablangan bo'lsa, bular ruhiy muammolarning yoki nisbatan yomon munosabatning natijasi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tavsiyalarni amaliy faoliyatda tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda amalga oshirsalar, bolaning ijtimoiylashishiga va ma'naviy-jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Natijada o'zimiz orzu qilgan sog'lom bolalarni tarbiyalab, sog'lom jamiyat qurishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kela-jagimizning asosiy omilidir". /Xalq so'zi gazetasi, 2013-yil 7-dekabr.*

2. Egamberdiyeva N. *Ijtimoiy pedagogika. "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashriyoti. –T., 2009.*

3. Hayot uchun dalillar. *BMT Bolalar jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi (UNICEF) 2002-yil.*

Abdurahmon NORBOYEV,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'RTASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH: TARIXIY TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya kurslari mazmunida ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalarining aks etishi, uning tarixiy rivojlanish jarayonlari hamda kelajak istiqbollari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif tabiatni muhofaza qilish bo'yicha o'qituvchilar uchun qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Maktab geografiyasi, ekologiyalashtirish tendensiyasi, o'quv fanlari, ekologik madaniyat.

В статье освещены проблемы сохранения природы и экологии в содержании школьного географического курса, отражены процессы исторического развития и перспективы. Предоставлены выводы и рекомендации для учителей по защите природы.

Ключевые слова. Школьная география, тенденция экологизации, учебные предметы, экологическая культура.

In article, highlighted the reflections of problem preservation of nature and ecology in geographical content of school course, and its process of historical development and perspectives. Provided conclusions and recommendations.

Key words. School geography, ecologization tendency, the content of school geography, ecologization, enter change into structure of school geography.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'quv fanlari o'z mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga turlicha hissa qo'shadi. Ushbu jarayonda tabiiy fanlar, jumladan geografiya fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tabiiy imkoniyatlar boshqa fanlarga nisbatan katta bo'lib, majburiy zaruriyat talab etilmaydi. Zero, geografiya va ekologiya fanlarining o'rganish obyektlari bir-biriga ancha yaqin va bu umumiy o'rta ta'lim tizimida keng tarmoqli ekologik bilimlarni geografiya ta'limi mazmuniga singdirishga sharoit tug'diradi.

Shuningdek, mazkur fanning tabiiy hamda antropogen jarayonlar – aholining xo'jalik munosabatlarini majmualari tarzda tatbiq etishi ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari, ularni baholash hamda bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida bir butun, tizimli bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga yetkazish imkoniyatini beradi.

Shu nuqtayi nazardan jahon miqyosida ta'lim mazmunini ekologiyalashtirish tendensiyasi kechayotgan bir vaziyatda maktab geografiya ta'limi mazmunida tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalarining aks etishi hamda uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimida geografiya fanini ekologiyalash-tirish tendensiyasi (ta'lim mazmunida ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalarining aks ettirilishi)ning tarixiy taraqqiyotini o'rganish maqsadida o'quv dasturlari o'rganib chiqildi. 1950/51 o'quv yilida amalda bo'lgan geografiya fani o'quv dasturi tahlil qilindi. 5-9-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan mazkur o'quv dasturida geografiya faniga jami 397 soat vaqt ajratilgan. Biroq, unda birona ham atrof-muhit, tabiat komponentlarini asrab-avaylash, e'zozlashga oid mustaqil mavzu mavjud emas. Mavzular ichidagi ekologiyaga oid mavjud tushunchalar ham daryolarning inson hayotidagi ahamiyati, jarlanish xodisasi, yangi yerlarni ochish, botqoqliklarni quritish, ixota daraxtzorlar barpo etish, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalishi, ayrim hududlarda ularni ovlash kabilardan iboratligi aniqlandi. Demak hali ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalar maktab geografiya ta'limiga kirib kelmagan.

Geografiyadan 5 – 9-sinfning 1959/1960-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv dasturida geografiya fani uchun umumiy 296 soat vaqt ajratilgan. Tahlil natijalarining ko'rsatishicha ushbu o'quv dasturida ham ekologiya, tabiatni muhofaza qilishga oid mustaqil mavzular yo'q.

Mazkur yildagi o'quv dasturida o'quvchilarga geografik muhitdagi obyektlar va geografik hodisalarni o'rganish vaqtida alohida tabiiy geografik hodisalar orasida, tabiat bilan jamiyat orasida mavjud bo'lgan o'zaro bog'lanishlarni tushuna boshlash; mamlakat tabiiy geografiyasini o'rgana turib tabiiy muhitdan xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun zarur bo'lgan bir qancha geografik qonuniyatlarni bilib olishlari keltirib o'tilgan. Sinflar kesimida esa mamlakat tabiiy boyliklaridan to'g'ri foydalanishning ahamiyati; tabiatdan rejalı foydalanish, kishilar xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy sharoitlarning o'zgarishi; mustamlakalar tabiiy boyliklarining talon-taroj qilinishi; xalq xo'jaligida daryolarning ahamiyati, tabiatni, cho'lni o'zlashtirish kabi tushunchalar mavjud. Yana shuni aytish mumkinki, aynan ushbu davrdagi maktab o'quv dasturlarida tabiatni muhofaza qilishga oid kurtak tushunchalarni uchratish mumkin. Biroq ushbu g'oyalar ayrim o'rinlarda "... texnika – tabiiy boyliklardan kengroq va tezroq foydalanish imkoniyatini beradi" kabi qarama-qarshi fikrlarga ham ega. Shunday bo'lsada ushbu davrni geografiya ta'lim dasturlarida ekologik tushunchalarga e'tibor berila boshlangan deb aytish mumkin.

1968-yildagi sakkiz yillik maktab uchun geografiya o'quv dasturlarida mazkur fan uchun umumiy 320 soat vaqt ajratilgan. Mazkur davrga kelib o'quvchilarni tabiat boyliklarini ehtiyot qilib saqlashga o'rgatish va tabiat resurslaridan to'g'ri foydalanish malakalarini hosil qilish maqsadida o'quv dasturiga tabiatni qo'riqlash to'g'risidagi Qonun kiritildi. O'lkashunoslik asosidagi amaliy ishlar, ekskursiyalarga, ta'limni hayot, turmush, amaliyot bilan bog'lashga katta ahamiyat berila boshlandi: "Geografiyani o'qish bilan birga o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatda, masalan, tabiatni qo'riqlashda, ... va boshqa ishlarda kuchlari yetganicha yordam berishlari kerak".

Geografiyani o'qitishda kuzatish mashg'ulotlari muhim o'rin tutishi kerakligi, unda tabiiy obyekt yoki hodisalarni kuzatish bilan birgalikda odamlarning tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanishlarini ham kuzatish o'quvchilarning geografik bilim darajalarini oshirishga ko'p jihatdan yordam berishi ta'kidlandi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar mazmuniga ham tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirish ishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish kiritildi.

Kurslar kesimida oladigan bo'lsak, geografiyaning atrof-muhitni muhofaza qilish doirasidagi mazmuni ancha kengaydi. Masalan, tabiiy geografiya boshlang'ich kursi (5-sinf) mazmuni quduq va buloqlarni ifloslanishdan saqlash; jarlanishga qarshi kurashish; botqoqliklarni quritish; daryolardan xo'jalikda foydalanish; ichki suvlarni muhofaza qilish kabi tushunchalar bilan boyidi.

Shuningdek, boshqa kurslar mazmuni ham ekologik tushunchalar bilan ancha boyidi: tabiatga antropogen ta'sir va uni qo'riqlash ishlari ilk marta ayrim mintaqalar bo'yicha taqqoslandi va tahlil qilindi; birinchi marta yer osti boyliklarini qo'riqlash, qo'riqxona, tuproq eroziyasi va unga qarshi kurash tushunchalariga xususiy jihatdan yondoshildi; mustamlakachilar tomonidan

mustamlaka mamlakatlar tabiiy boyliklarining nobud qilinishi, ichki suvlardan kompleks foydalanish, o'rmon boyliklarini qayta tiklash, inson xo'jalik faoliyati natijasida tabiatning o'zgartirilishi, tabiat boyliklarini qo'riqlash va ko'paytirish, qimmatli ov hayvonlarini qo'riqlash va ko'paytirish, o'ziga xos tabiat manzaralarini saqlash kabi tushunchalar kiritildi.

Biroq, O'zbekiston geografiyasi o'rganilayotganda Orol dengizi, uning xo'jalikdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilgan bo'lsada, uning ekologik jihatlariga umuman e'tibor berilmadi. Zero, o'sha davrlarda ham Orolning salbiy oqibatlari ko'rina boshlagan, uning bugungi kelajagi ayrim olimlar tomonidan bashorat qilinayotgan edi.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, ushbu davrga kelib ekologik ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining zaruriy komponenti sifatida namoyon bo'la boshladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish alohida mavzular sifatida ko'tarilmagan bo'lmasa ham, u geografiyaning tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqib mavzular tarkibiga singdirila boshlandi va bu orqaga qaytmas jarayonga aylandi. Endi geografiya ta'limi mazmunini tabiatni muhofaza qilish tushunchalarisiz tasavvur qilish mumkin emas edi.

Bugungi kunda ta'lim amaliyotida mavjud bo'lgan geografiya o'quv dasturidagi (jami 306 soat) 68 ta mavzularga ekologiya va tabiatni muhofaza qilish borasidagi tushunchalar kiritilgan.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, XX asrning 60-yillarini rasmiy ravishda geografiyani ekologiyalashtirish yoki ekologik ta'limning boshlanishi deb qabul qilish mumkin.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, uzluksiz ta'lim tizimini, shu jumladan, umumiy o'rta ta'limni ekologiyalashtirishdan asosiy maqsad – ekologik madaniyatli shaxsni shakllantirishdir. Bizning fikrimizcha, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya kursini o'qitishni takomillashtirish, maktab geografiya kurslari tuzilishini o'zgartirishni talab qiladi.

Bizning nazariy fikrimizcha, maktab geografiya fanining quyidagicha tuzilishi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini takomillashtirishga, sifat va samaradorligini oshirishga imkon beradi: Geografik o'lkashunoslik (5-sinf); Materiklar va okeanlar geografiyasi (6-sinf); Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (7-sinf); O'zbekiston geografiyasi (integrativ kurs, 8-sinf); Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari (9-sinf).

Maktab geografiya kursining boshlanishida geografik o'lkashunoslikni kiritish o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maktab joylashgan hudud atrof-muhitini o'rganishni taqozo etadi. Mazkur geografiya kursida “yaqindan uzoqqa” prinsipi amaliy jihatdan o'lkashunoslik asosida samarali amalga oshiriladi. Chunki, o'quvchilarning bu yoshida inson va tabiat o'zaro aloqalarining turli jihatlariga agar yaqin atrof-muhitda o'rganilmasa turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Rivojlangan davlatlar, masalan Germaniya Federativ Respublikasi maktablarida ham geografiya darslarining o'qitilishi dastlab o'z o'lkasi, ya'ni Germaniya geografiyasi (Vatan geografiyasi)ni o'rganishdan boshlanadi.

Keyingi “Materiklar va okeanlar geografiyasi” kursi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish mahsuli sifatida umumgeografik qonuniyatlarni tushunishga imkon beradi. Bu jihat materialni quruq gap bilan bayon etishdan saqlanishga va “tabiat-jamiat” tizimida sabab-oqibat bog'lanishlarini o'quvchilarda yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursini 7-sinfda o'rganish mantiqan alohida ahamiyatga ega, chunki o'quvchilar materik va okeanlar xususiyatlarini oldin o'rganganliklari sababli, izchillik bilan iqtisodiy geografiyaga oid tayanch tushunchalar va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti bilan tanishadilar. Bundan tashqari, “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiya”si kursining mazmuni uncha katta bo'lmagan yangi tushunchalar to'plamini (“O'zbekiston geografiyasi” integrallashgan kursiga nisbatan) o'z ichiga oladi va bu holat o'quvchilar tomonidan kursni yaxshi o'zlashtirilishi uchun zamin yaratadi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursidan so‘ng, integrallashgan mazmunga ega bo‘lgan “O‘zbekiston geografiyasi” kursini o‘rganish maqsadga muvofiq. Mantiqan olganda ushbu integrallashgan kurs o‘quvchilarga ham tabiiy ham iqtisodiy geografiyaga oid bilimlarni beradi. Uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi oson bo‘lishi uchun “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”ni oldin o‘rgatish va bundan keyin mazkur integrallashgan kursni o‘qitish maqsadga muvofiq. Shubhasiz, o‘z mamlakatining tabiati va iqtisodiyotini chuqur o‘rganish yuqori sinflarda o‘qitiladigan biologiya, kimyo, fizika, tarix kurslarida fanlararo aloqadorlikning ta‘minlanishiga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, o‘z Vatanining geografiyasini yuqori sinflarda o‘rganish umumiy o‘rta ta‘lim maktablari bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirishda katta ahamiyatga ega.

9-sinfda “Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari” kursini o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Ushbu kursning maqsadi jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorliklari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni umimlashtirish hisoblanadi. Bunday holatda geografiya, biologiya, fizika, kimyo, tarix va boshqa maktab fanlarining ekologik mazmunini integrallashtirish asosida tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini chuqur ochib berish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ushbu yo‘nalishda, ya‘ni, maktab geografiya ta‘limi mazmunida ekologiya o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi sifatida quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida geografiya o‘quv kurslari tuzilishi va ularning mazmunini qayta ko‘rib chiqish, unda o‘quvchilarning ekologik ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish.

2. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi geografiya fani o‘quv dasturi va darsliklari mazmunini o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan, bir butun, tizimli ekologik bilimlar bilan boyitish, bunda pessimistik ruhdagi ekologik axborotlarning tartibsiz berib borilishining oldini olish hamda ekologik muammolarning zamonaviy yechimlariga, ekologik baholash va bashorat qilish, faoliyat elementlariga alohida ahamiyat qaratish.

3. Geografiya fani o‘quv dasturida ekologik mazmundagi amaliy va mustaqil ishlar, o‘lkashunoslik asosidagi o‘quv ekskursiyalari sonini ko‘paytirish.

4. Ekologik mazmundagi mustaqil ta‘lim turlari faoliyatining maqsadga muvofiq tashkil etilishini ta‘minlash va ular faoliyatini jonlantirish.

5. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga oid o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar yaratish va ular bilan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini ta‘minlash.

6. Geografiya ta‘limi jarayonining sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutuvchi kartografik materiallar bilan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining to‘liq ta‘minlanishiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O‘rta maktab programmalari: Geografiya.* – T.: O‘zbekiston Davlat o‘quv-pedagogika nashriyoti, 1950.

2. *O‘rta maktab programmalari. 1959/1960-o‘quv yili uchun: Geografiya (VI–IX sinflar uchun).* – T.: O‘zbekiston Davlat o‘quv-pedagogika nashriyoti, 1959. – 68 b.

3. *Maktab programmalari. Sakkiz yillik maktab uchun: Geografiya (5-8 sinf).* – T.: O‘qituvchi, 1968.

4. *Abdunazarov H.M., Sattorov A.U., Umarova M.H., Boboniyozova SH.S. Germaniya ta‘lim tizimi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari / O‘zbekiston Geografiya jamiyati VIII s‘ezdi materiallari.* – Nukus: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, 2009.

Bekzod Xodjayev,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.,

Aziz XUJAMKULOV

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

O'QUVCHI-YOSHLARNI AXBOROT XURUJLARIDAN MUHOFAZA QILISHDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchi-yoshlarni axborot xurujlaridan muhofaza qilishda axborot iste'moli madaniyatining ahamiyati, funksiyalari va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bosqichlari yoritib berilgan. Shuningdek, mualliflar axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish texnologiyasining ayrim masalalari bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Axborot, axborotlashtirish, axborot iste'moli, axborot madaniyati, axborot iste'moli madaniyati, tamoyil.

В статье рассмотрены вопросы формирования у учащейся молодежи информационно-потребительской культуры, раскрыты значимость и функции информационно-потребительской культуры в защите от информационных угроз. Авторы рекомендуют некоторые технологии формирования информационно-потребительской культуры.

Ключевые слова. Информация, информатизация, потребитель информации, информационная культура, информационно-потребительская культура, функция, принципы.

This article describes the stages of formation of information-consumer culture, the importance and function of information-consumer culture in protection against information attacks. The authors reveal some of the technologies of formation of information-consumer culture.

Key words. Information, information, consumer of information, information culture, information- consumer culture, function, principles.

Texnogen sivilizatsiya jarayonida paydo bo'lgan murakkab ijtimoiy muam-molar insoniyat fan va texnika tapaqqiyoti natijasidir. Zero, so'nggi yillarda fanning ijtimoiy institut sifatida, yanada jadalroq rivojlanishi, unga ta'sir qiluvchi barcha omillarga nisbatan alohida e'tiborni talab qila boshladi.

Prezidentimiz: "Hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, Internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qilyvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q",

deb bejiz ta'kidlamagan. Demak, jamiyat taraqqiyotini yanada takomillashtirish ko'p hollarda axborotlashuv bilan bog'liq bo'lib, katta tadqiqot olamini tashkil qiladi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uch asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lim tizimini isloh etish.

2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof qilish.

3. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

XXI asrda ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasida:

– o'qitish va o'qish jarayoni;

– ta'lim muassasasi boshqarilishi;

– ta'lim muassasasi bo'linmalari;

– ta'lim muassasasi faoliyat muhitining axborotlashtirilishini talab etadi.

So'nggi vaqtlarda "axborot iste'moli madaniyati" tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendentsiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa, axborot iste'moli madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrası sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot iste'moli madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Axborot iste'moli madaniyati shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lim olish, dam olish va boshqa ko'rinishdagi faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axboriy faoliyatni samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot iste'moli madaniyati axborotdan samarali foydalanishga doir bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, zaruriy axborotni axborot resurslari, axborot texnologiyalarining barcha ko'rinishlari (kompyuter va Internet tarmog'i texnologiyalari) orqali qidirishning turli xil usullari tizimini o'zida jamlaydi.

Axborot iste'moli madaniyati – axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o'zida ifoda etadi.

Bu ta'rifdan kelib chiqib, "Axborot iste'moli madaniyatiga nima uchun ehtiyoj sezamiz?" degan savolga javob qidirib ko'rish mumkin. Jamiyatda axborotning qimmatı ortib, u sanoat jamiyatidan axborotlashgan jamiyatga aylanib bormoqda. Hozirgi hayotning tez o'zgaruvchanligi axborotlashgan jamiyatda bir qator yangicha ko'rinishlarni yuzaga keltiradi:

1) axborot va bilim jamiyatning asosiy o'zgartiruvchi kuchiga aylanishi;

2) ishlab chiqaruvchi va ijtimoiy texnologiyalarning yangilanish sikli o'rtacha 6-8 yilni tashkil etib, avlodlar almashinuvi sur'atidan o'zib ketishi;

3) uzluksiz ta'lim va raqobatbardosh mutaxassis ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismiga aylanadi.

Axborot iste'moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq ma-

daniyatiga, xususan, insonlar xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiy, ayniqsa, yoshlarining g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, “Biz ba'zan G'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, Internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat”.

“Axborot iste'moli madaniyati” tushunchasi asosida shaxsning axboriy jihatdan shakllanganligining uchta asosiy darajasi ajratib ko'rsatiladi: umumiy (bazaviy), professional (kasbiy) va yuqori (mazmunli-qadriyatli). Shaxsda axborot iste'moli madaniyatining shakllanganligini mazkur darajalari aniq mezonlarni tanlash va shaxsiy rivojlanganlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

O'quvchi-yoshlarning axborot iste'moli madaniyati tizimidagi kognitiv-operatsion va tashkiliy tarkibiy qismlar universallik, axboriy faoliyatning fanlararo aloqadorligi, shuningdek, insonning turli xil, faoliyat tizimidagi umumlashgan tavsifini aks ettiruvchi kompyuter savodxonligi bilan belgilanadi. Axborot iste'moli madaniyati mazkur holatda metodik jihat bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Kasbiy (amaliy) tarkibiy qism shaxsning kasbiy faoliyatga qiziqishida namoyon bo'luvchi axboriy faoliyatning o'ziga xosligi, kasbiy qiziqish bilan bog'liqlikda axborotlarni izlab topish, tanlash va foydalanish kabi jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Kommunikativ va dunyoqarashga oid tarkibiy qismlar – integrativ, sintetik, informatsion faoliyatning ko'p funktsionalligi; uning fanlararo va universalligi kabi mezonlar bilan aniqlanuvchi shaxsning yuqori axborot iste'moli madaniyati darajasini (mazmunli-qadriyatli) aniqlab beradi. Axboriy faoliyat mazkur holatda strategik jihat bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri shaxsning axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishdan iborat. Aynan 1999-yilda XXI asr “Texnik-mutaxassislik ta'limi” kongressi tomonidan – “Bilimlar, axborotlar va sivilizatsiya erasi” sifatida tan olindi.

Mazkur jarayonda shaxsning axborot iste'moli madaniyati tez o'zgaruvchan axboriy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuv va samarali ta'sir ko'rsatishga imkon beruvchi nazariy-amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni shart qilib qo'yadigan shaxsning integrativ xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi. Ana shu nuqtayi nazardan axborot iste'moli madaniyati o'zida motivatsion, kognitiv va operatsion tarkibiy qismlarning o'zgaruvchan jarayonlarini namoyon etadi:

Birinchi bosqich – shaxsda axborot iste'moli madaniyatining motivatsion tarkibiy qismini tarkib toptirishga yo'naltirilgan. Ushbu bosqichning maqsadi – shaxsda yangi axborot texnologiyalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni, ehtiyojni shakllantirish hisoblanadi. Bosqichning maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) o'quvchi-yoshlarni asosiy tushunchalar (“axborot iste'moli madaniyati, axborot texnologiyalardan foydalanishga tayyorgarlik) va tanlangan (yoki tanlanayotgan) kasbning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

2) o'quvchi-yoshlar bilan hamkorlikda ularni bo'lajak kasbiy faoliyatidagi bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan mukammal o'rganib chiqishga yo'naltirgan holda o'quvchi-yoshlarni axborot iste'moli madaniyatining dastlabki darajasini aniqlash;

3) o'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati shakllanganligini – muvaffaqiyatli o'qish bilan birga bo'lajak kasbiy faoliyatida o'z-o'zini namoyon etish sifatida anglatish.

Ikkinchi bosqich – o'quvchi-yoshlarni axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatish va o'z faoliyatini zamonaviylik bilan bog'liqlikda boshqara olishni to'liq anglab olishini taqozo etadi. Bunday yondashuv – o'quv axborotini tanlash, o'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishni faollashtirish va uning axborotlashgan jamiyatda kasbiy moslashuvini ta'minlash nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Ushbu bosqichning maqsadi – o'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-bilish va kasbiy faoliyatida quyidagi analitik, prognostik, texnologik, shuningdek, tashkiliy ko'nikmalar majmuidan tarkib topadi:

1) avval, tajribalarda egallangan nazariy, metodik, amaliy bilimlarni mustahkamlash;

2) o'quvchi-yoshlarda jamiyatni axborotlashtirish sharoitida faoliyat maqsadi va vazifalarini aniqlay olish ko'nikmalarini shakllantirish;

3) ularning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatda egallangan bilimlaridan mustaqil va ijodiy tarzda foydalanishga bo'lgan intilishlarini faollashtirish.

Uchinchi bosqich – o'quvchi-yoshlarning bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish, yuqorida ta'kidlangan axboriy ko'nikma va malakalarni egallash jarayoni amalga oshadi. Ushbu bosqichning mazmunli komponenti o'zida o'quvchi-yoshlarning axborotlashgan jamiyatda shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilimlar hajmini birlashtiradi. Mazkur bosqich o'quvchi-yoshlarning o'z-o'zini reallashtirishga yo'naltirilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'limning ixtiyoriy bosqichidagi faollashtirish jarayoni: ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi, texnologiyani tanlash, ta'lim mazmuni kabi tarkibiy qismlarga bog'liq bo'ladi. Shu vaqtning o'zida ushbu yondashuv biroz eskirgan bo'lib, faollashtirish jarayonini rejalarni tuzishdan emas, balki shaxsning rivojining axborot maydonini loyihalashtirish boshlash lozim. Mazkur jarayonda loyihalashtirish muvofiqlik, to'liqlik, maqsadga yo'nalganlik, kasbiy yo'nalganlik, tizimlilik, ta'limning umumpredmetli natijalarining yetakchi o'rinni egallashi, qulaylik, o'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda nazariya va amaliyotning birligi kabi tamoyillarga asoslanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.* – T.: "O'zbekiston", 2005.

2. Karimov I.A. *O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.* 13-jild. – T.: "O'zbekiston", 2005.

3. Begimqulov U.SH. *Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya.* –T.: "Fan", 2007.

4. G'afforova G. *Axborot va axborotlashtirish masalalarining falsafiy-metodologik muammolari: Falsafa fanlari nomzodi.* ... diss. – T., 2008.

5. G'ulomov S.S. *Axborot tizimlari va texnologiyalari.* – T.: "Sharq", 2000.

Abror ASQAROV,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI

katta ilmiy-xodim izlanuvchisi

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG KADRLARNING MASOFAVIY MALAKA OSHIRISHINI JORIY ETISHNING IJTIMOY JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagoglar malakasini oshirishda o'qitishning an'anaviy shakli bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy holatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif malaka oshirish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilib, ularni hal qilishda masofaviy o'qitish shaklini joriy etishning ahamiyatli tomonlarini ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish, davriylik, uzluksizlik, ta'lim ehtiyojlari, pedagogik jarayon, ijtimoiy munosabatlar, masofaviy ta'lim.

В данной статье освещено социально-экономическое состояние, связанное с традиционными формами обучения в повышении квалификации педагогов. Также анализируются возникшие проблемы в системе повышения квалификации педагогов, подчеркивается роль дистанционного обучения в решении данной проблемы.

Ключевые слова. Повышение квалификации педагогов, периодичность, непрерывность, образовательные потребности, педагогический процесс, социальные отношения, дистанционное обучение.

In this article are highlighted about social and economic conditions which belong to a traditional forms of training professional development of teachers. There are discussed problems in this field, also shown about an importance of distance learning forms to put a practice.

Key words. Professional development of teachers, frequency, continuity, educational needs, pedagogical process, social relations, professional development in distance.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim turlari oldiga qo'yilgan vazifalar doirasida pedagoglar malakasini oshirish tizimini muntazam takomillashtirish, mazkur yo'nalishga yangicha yondashish, malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha raqobatbardosh ta'lim muassasalari vujudga keltirish, tizim faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish, professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini ishlab chiqish, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash ana shunday muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning maqsadlari:

- xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash;

- ulardagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda yangilash, xalq ta'limining dolzarb muammolari, ta'limni tashkil etishning yangi tamoyillari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullari, davlat ta'lim standartlari va normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirishdan iborat.

Bugungi globallashtiruvchi davri o'qituvchilardan yangi sharoitlarga tezkor va samarali moslashuvni, yangi bilimlarni jadal egallashni, bir so'z bilan aytganda, zamon talablariga munosib bo'lishni taqozo qiladi.

Yoz navbatida malaka oshirish tizimi oldiga qo'yilgan talablarni bajarish va maqsadga erishish davrida xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishning an'anaviy ta'lim shakli yuzaga keltirayotgan qator dolzarb muammolarga e'tibor qaratish zarur:

Malaka oshirish davriyligi va uzluksizligiga erishish. Hech kimga sir emas-ki, malaka oshirish davriyligi ta'lim ehtiyojlariga emas, balki malaka oshirish ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi va mashg'ulot olib boruvchi kadrlar salohiyatiga asoslanib qolmoqda.

Bundan tashqari davriylikning 5 yilda ta'minlanishi xali masala to'laqonli o'z yechimini topganligidan dalolat bermaydi. Davriy ravishda, muntazam o'qituvchilarning kasb malakalarini oshirib borishni ko'zda tutish, davriylik (5 yil) oralig'idagi yangiliklar, ma'lumotlarni yetkazib berish, bu orqali keyingi malaka oshirgunga qadar ayrim yo'nalishlardagi bilimlarni ko'payib ketishini oldini olish kabi uzluksiz pedagogik qo'llab quvvatlashni amalga oshirish ishlari ham malaka oshirish tizimi oldidagi muammolardan hisoblanadi.

Malaka oshirish ta'lim muassasasi kadrlari kompetentligi muammosi. Xalq ta'limi tizimidagi malaka oshirish ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy darajaga ega kadrlar bo'yicha ko'rsatkichning yuqori emasligi, natijada malaka oshirish ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida qo'llanilayotgan o'qitish usullari, ta'lim texnologiyalarining tuzilishi, sifatiga bo'lgan tinglovchilar fikrlarining aksariyat hollarda salbiylikicha qolayotganligi bu borada ham muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Malaka oshirish mazmunining ehtiyojga asoslanganligini ta'minlash muammosi. Malaka oshirish tizimida o'quv dasturi va materialini tayyorlashda ehtiyojga asoslanganlik muhim omil hisoblanib, u ijtimoiy ehtiyojlar va pedagogning kasbiy ehtiyojlari asosida ta'minlanadi.

Ijtimoiy ehtiyojlar – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan talablarini bajarishni ko'zda tutuvchi vazifalardan iborat bo'lib, u jamiyat va zamonaviy ta'lim strategiyalari, ta'lim sifati me'yorlari, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning asosiy yo'nalishlari, ilmiy va amaliy natijalar, ilg'or pedagogik yondashuvlar, yangiliklarni o'z ichiga oladi hamda ta'lim sohasiga oid me'yoriy hujjatlar, ko'rsatmalar, uslubiy qo'llanmalar va materiallar asosida shakllantiriladi.

Manbalarda ehtiyoj – shaxsning me'yoriy hayotiy faoliyat yuritishi uchun, tegishli talablarning qondirilmaganligi tufayli, mazkur salbiy hissiyotni bartaraf etishga yo'naltirilgan ruhiy pedagogik holat [7, 150] sifatida izohlanadi. Pedagogning kasbiy ehtiyojini uning o'quv-tarbiya jarayonida belgilangan me'yoriy talablar asosida faoliyat

yuritishi uchun zarur bo'lgan, ayni paytda, hal etilmagan talablarni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagogik holati, deb sharhlash mumkin.

Ehtiyojga asoslangan malaka oshirish o'quv mavzu reja va dasturlarini shakllantirish murakkab pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Shu bilan birga amaliyotga joriy etish an'anaviy malaka oshirish tizimi uchun undan ham murakkab jarayonni yuzaga keltirib, ehtiyoji bir biriga yaqin tinglovchilarni guruhlashtirishdagi ob'ektiv (maktab va o'qituvchi imkoniyatlari) hamda sub'ektiv (malaka oshirish davriyligi hamda davomiyligi yuzasidan o'rnatilgan tartib, malaka oshirish ta'lim muassasasining imkoniyatlari) sabablar variativ o'quv mavzu reja va dasturlarini joriy etishda to'sqinlik qiladi.

Maktab pedagogik jarayoniga malaka oshirishning salbiy ta'siri muammosi. Maktab pedagogik jarayoni – aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv vaziyatidagi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hisoblanib, maktab o'qituvchisining an'anaviy (malaka oshirish ta'lim muassasasiga borib) malaka oshirishi u rahbarlik qilayotgan sinfdagi shaxsga yo'naltirilgan ta'limni sifatli amalga oshirishdagi uzilishini, o'quvchilar bilish faoliyatining izdan chiqishi yuzaga keltiradi. Malaka oshirib qaytgan o'qituvchi uchun vaziyatni avvalgi holatga keltirishini qiyinlashtirishi kuzatiladi.

Salbiy ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi muammosi. Malaka oshirish tizimining an'anaviy ta'lim shaklida ko'zda tutilgan tartib o'qituvchining ma'lum vaqt oiladan yiroqlashtiradi, uning farzandlari tarbiyasi, xo'jalik yumushlari bilan shug'ullanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kuzatiladi. Shu o'rinda Prezident Islom Karimovning “O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-sonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi” deya ta'kidlaganini inobatga olsak, ayniqsa, bugungi kunda xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarning 70 foizidan ortig'ini tashkil etayotgan ayollarga nisbatan bunday holatni yuzaga kelishi masalaning nechog'lik nozik ekanligini ko'rsatadi.

Malaka oshirish tizimidagi yuqori sarf-xarajatlar muammosi. Ma'lumki, o'qituvchilar faoliyatini baholash va rag'batlantirish mezonlari tubdan o'zgartirilib, o'qituvchilarning mehnat haqi keyingi o'n yilda butun iqtisodiyotimizning boshqa sohalaridagiga qaraganda 1,5 barobar ko'p oshirildi.

Amaldagi tartibga muvofiq mazkur ish haqi o'qituvchining ishdan ajralgan holda (an'anaviy shaklda) malaka oshirgan davri uchun ham saqlanadi. Bu o'qituvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, turmush darajasi va hayot sifatini oshirishga malaka oshirish davrining salbiy ta'sirlarini oldini olishga qaratilgan sharoitlar sirasiga kiradi.

Shu bilan birga Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim turlari oldiga qo'yilgan, jumladan, pedagoglar malakasini oshirish tizimi uchun belgilab berilgan malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etish vazifasidan kelib chiqib yondashilsa, bugungi kunda ishdan ajralgan holda (an'anaviy shaklda) malaka oshirish uchun ajratilgan ish haqi miqdorining bir yilda o'rtacha 60 mlrd. so'mdan, malaka oshirgani ketgan o'qituvchi o'rniga dars berayotgan o'qituvchi ish haqining 25 mlrd. so'mdan, o'qituvchining shaxsiy xarajatlarini 20 mlrd. so'mdan ortishining oldi olinishiga yetarlicha erishilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlarda malaka oshirish an'anaviy shakli o'rniga, nafaqat ish haqi bo'yicha, balki malaka oshirish ta'lim muassasasining xarajatlarini (moddiy texnika bazasi, kommunal xizmat va boshqa xarajatlar) kamaytirishga qaratilgan ta'lim shakllariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan bir-biriga zid ikkita holat mavjud:

birinchi – pedagoglar malakasini oshirish ishi globallashtirish sharoitida muhim ta'lim turi;

ikkinchi – amaldagi malaka oshirish tizimi va jamiyat, oila, maktab, shaxs o'rtasida keltirilgan muammoli vaziyatlar yuzaga kelmoqda.

Xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish tizimida ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etishda o'qitishning yangi shakli – masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish orqali mustaqil bilim olish va ijodiy faoliyatni oshirishga qaratilgan pedagogik ta'lim paradigmasini joriy etish ahamiyatli hisoblanadi.

Pedagog kadrlar malakasini masofaviy oshirish – malaka oshirish maqsadini ro'yobga chiqarish, tinglovchining kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash va chuqurlashtirish jarayoniga masofali o'qitish texnologiyalari integratsiyalashtirilgan ta'lim shakli hisoblanadi.

Xalq ta'limi tizimida pedagoglar malakasini oshirishning masofaviy shaklini joriy etilishi "to'g'ridan-to'g'ri" malaka oshirish shaklidagi mohiyat va talablarini saqlagan holda jarayon mazmuni va amalga oshirishdagi "yuzma-yuz" an'anasining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masofaviy o'qitish bilan bog'liq yuqoridagi kabi ilmiy izlanish natijalari, xulosalar asosida bu o'zgarishning salmoqliligini quyidagi 3 ta yo'nalish bo'yicha uning xususiyatlariga bog'lash mumkin:

- qulaylik va tezkorlik: masofaviy malaka oshirishning tarmoq orqali amalga oshiriladigan qismidagi o'quv materiallaridan tinglovchi o'zi uchun qulay joyda, qulay sharoitda, qulay vaqtda foydalanishi, ma'lumotlarni tezkor izlash va topish, axborot almashish imkoniga ega bo'ladi;

- tejamkorlik: tinglovchining malaka oshirish jarayoni bilan bog'liq shaxsiy va oilaviy xarajatlari kamayishiga erishish;

- ijtimoiy tenglik: tinglovchilarning yashash va ish joylarining malaka oshirish institutlariga nisbatan joylashuvi, ijtimoiy sharoitlari va munosabatlari, oilaviy va jamoatchilik oldidagi vazifalari hamda mutaxassisligidan qat'iy nazar ta'lim olishdagi teng sharoitni yuzaga keltirishga, pedagoglar turmush tarzi, oilaviy munosabatlariga malaka oshirish jarayonining aks ta'sirlarini kamaytirish;

- ehtiyojga asoslanganlik: tinglovchining kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqib, individual tanlov bo'yicha malaka oshirish imkoniyati yuzaga kelishi;

- texnologik jihatdan ta'minlanganlik: ta'lim olish, o'z-o'zini baholash va baholanish, bilimlarini mustahkamlash, muloqot, amaliyot bilan bog'lash kabi jarayonlarda yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

- ish faoliyatdagi uzviylik: umumta'lim maktabi o'quv-tarbiya jarayonida sifatli bilim berish hamda bilim olish uchun yo'naltirilgan harakatlarda uzilishlar, salbiy ta'sirlarning oldi olinishi;

- amaliy rivojlanish: o'quv jarayonida pedagogik yoki axborot texnologiyalari va o'qitishning interfaol metodlari bo'yicha yangilangan va chuqurlashtirilgan bilimlarni, malaka va ko'nikmalarini bevosita amaliyot bilan bog'lab, mustahkamlash imkonini beruvchi o'quv muhitini yuzaga keltirish.

Malaka oshirish ta'lim muassasasi faoliyatiga ta'siri.

- variativlik: asosiy buyurtmachi ehtiyojlari hamda ta'lim talablaridan kelib chiqib, variativ o'quv reja va dasturlari hamda kontentni ishlab chiqish va joriy etish imkoniyati yuzaga keladi;

- qamrov: malaka oshirish bo'yicha buyurtmalarni o'z vaqtida, son va sifat birligi asosida bajarish, cheklanmagan tarzda tinglovchilarni malaka oshirishlari uchun sharoit yaratiladi;

– tejamkorlik: moddiy-texnik baza va infratuzilmani yangilash xarajatlari, kadrlar va qo'shimcha ishchi kuchi uchun oylik ish haqi, o'quv jarayonini tashkil etishdagi iste'mol resurslar, jumladan, o'quv materiallarini ko'paytirish va yetkazish bilan bog'liq sarflarning kamayishi ko'zda tutiladi;

– monitoring: tinglovchilarning qiziqishlari, xohishlari, talab va takliflarni o'z vaqtida aniqlash, ta'lim jarayonining sifati, ishtirokchilar faoliyati natijasini tahlil qilish, yuzaga kelgan bo'shliqlar bilan ishlash, shuningdek, o'quv jarayonini boshqarish va ta'lim sohasidagi hududiy boshqaruv idoralari bilan hamkorlik qilishning yangi imkoniyatlari yuzaga keladi;

– uzluksizlik va davriylik: malaka oshirgan o'qituvchilarga kursdan keyin ham doimiy ravishda yangi o'quv materiallarini yetkazib berish, malaka oshirishning amaldagi tartibga mos holda davriyligiga erishiladi;

– rivojlanish: zamonaviy texnika va texnologiya imkoniyatlari, yangiliklardan o'z vaqtida foydalanish orqali “zamonaviy muassasa” moqomiga erishish kutiladi;

Davlat va jamiyatning ustuvor maqsadlarini amalga oshirishga ta'siri.

– ijtimoiylashuv: tinglovchilarning ijtimoiy munosabatlarini yaxshilash, o'z imkoniyatlari, ehtiyojlari hamda sharoitlariga mos o'quv muhiti yuzaga keltiriladi;

– tejamkorlik: taraqqiyot yo'lidagi davlatga xos bo'lgan iqtisodiy samaradorlikka erishiladi, tejalgan mablag'lardan ta'lim sohasini rivojlantirish, uni yanada ravnaq toptirishda foydalanish ko'zda tutiladi;

– maqsadlilik: davlat va jamiyatning ta'lim islohotlarini amalga oshirish, jamiyatni axborotlashtirish maqsadini ro'yobga chiqarish, belgilangan vazifalarni to'laqonli amalga oshirishga sharoit yaratiladi.

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyat sharoitida masofadan o'qitishning rivojlanishi va uni an'anaviy o'qitish tizimiga integratsiyasi yuzaga kelib, u malaka oshirish tizimi oldida turgan inson manfaati, shaxs omili, ta'lim ehtiyojlariga mos o'quv muhitiga erishishdagi tashkiliy-pedagogik muammolarni hal etishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura*. –T.: “O'zbekiston”, 1996. –J.1.–364 b.

2. Karimov I.A. *Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir*. –T.: “O'zbekiston”. 2012. –J.20. –312 b.

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-1761-son qarori*. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013. 47-son. 616-modda.

4. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi “Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 234-qarori*. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2014. 34-son. 433-modda.

Ella SULETBAYEVA,
Tumaris AYMUXAMMEDOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMOI
kafedrası katta o'qituvchilari

IQTIDORLI BOLALARNI ANIQLASH VA ULARNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada iqtidorli bolalarni aniqlash va ularning psixologik, ijodiy, aqliy imkoniyatlarini rivojlantirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, mualliflar yuqori darajadagi aqliy koeffitsient, iqtidor va iste'dodning o'zaro bog'liqligi va ularning bunday imkoniyatlarini rivojlantirishni tashkil etishning afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Iqtidor, layoqat, liderlik, shaxs, intellekt testlari, psixologik test, psixologik metodika.

В статье раскрыто значение выявления одаренных детей для развития их психологических, творческих, интеллектуальных способностей. Авторами приведены сведения о взаимосвязи высокого уровня интеллектуального развития и способностей личности, о создании условий для развития талантливых и одаренных детей.

Ключевые слова. Одаренность, талант, способность, интеллект, лидерство, личность, тесты по определению уровня интеллекта, психологические тесты, психологическая методика.

This article deals with the exposure of gifted children and the importance of development their psychological, creative and intellectual abilities.

Key words. Gifted, talent, ability, intelligence, children, intellectual, psychological, creative.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotning bugungi kunga kelib, aql-zakovat yoki ijod mahsuli bo'lgan g'oya mulk ekanligini aniq belgilab oldi. Intellektual mulk deb ataladigan boylik sohibi o'z iqtidori, aql-zakovati bilan buyuk ijod namunalari, ixtirolarni yaratadiki, bu, o'z navbatida, insoniyat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Prezidentimiz "Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratilsa, har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga

erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas,” deya ta'kidlagan.

Darhaqiqat bu teran fikr, hayotiy mantiq mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoit, ularning ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tiborda o'z ifodasini topmoqda. Bu bashoratning yaqin orada haqiqatga aylanmog'i muqarrar. Bu O'zbekistonning kelajagining buyukligiga bo'lgan ishonch bilan uyg'unlashib ketadi.

Iqtidorli bolalar, ularning ta'lim-tarbiyasi to'g'risida gap ketganda, ko'pincha “Qanday bolani iqtidorli deyish mumkin?” degan savol ham tug'iladi. Iqtidor tushunchasi ko'p qirrali va uning qoidasi turli-tuman. Bu qoidalarni umumlashtirib psixolog olimlar ko'pincha iqtidorni yuqori darajada rivojlangan qobiliyat, yuqori darajadagi aqliy koeffitsient (IQ), deb izohlashadi. Aytish kerakki, iqtidorni o'rganish jarayonining boshlanganiga bir asrdan uzoq vaqt o'tgan bo'lsa-da, unga aniq yoki to'liq asoslangan ilmiy ta'rif berilmagan. Shuning uchun “iqtidor tabiat in'omimi yoki ta'lim-tarbiya samarasimi?” degan savol nafaqat, mamlakatimizda, balki butun dunyoda olimlarni, tarbiyachi-pedagoglarni o'ylantirayotgan masalalardan biri.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim qo'mitasi shunday qoidani tavsiya etgan: “O'zining oliy darajada rivojlangan qobiliyatlarini namoyon etib, u yoki bu faoliyatda yuqori natijalarga erishgan yoki shunga erishish imkoniyati (layoqati)ga ega bolalarni iqtidorli va talantli deyish mumkin”. Amerikada bunday bolalar faoliyatida erishgan natijalari va bir yoki bir necha soha (aqliy, akademik, ijodiy, badiiy, muomala va liderlikka intilish, harakat)ga bo'lgan layoqat, imkoniyat, qobiliyatlari asosida aniqlanadi. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha iqtidorli bolalar uchun maxsus dasturlar (ko'pincha individual dasturlar) tayyorlanib, bunday bolalarga, asosan, maxsus maktablarda emas, oddiy maktablardagi ixtisoslashtirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya beriladi.

Fransiya, Germaniya maktablarida ham iqtidorli bolalar maxsus tayyorlangan psixofiziologik, psixologik-intellekt testlari yordamida saralanadi. Bu mamlakatlarda iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilgan bo'lsa-da, oddiy maktablarda ham ular uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar mavjud.

Dunyoda iqtidorli bolalarni tanlash uchun Raven, Kettel (culture-fair intelligence), Veksler intellekt testlaridan foydalaniladi. Bu metodikalar madaniy muhit ta'siriga bog'liq bo'lmaganligi va noverbal (so'z ishlatilmaydi) bo'lganligi uchun juda keng tarqalgan. Mazkur metodikalarning O'zbekiston muhitiga moslashtirilgan variantlari o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazida mavjud. Hozir 200 taga yaqin, fanlar chuqur o'rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda tashxis Markazlari mutaxassislari Raven, Kettel metodikalari yordamida iqtidorli bolalarni tanlash ishlarini amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, Respublika tashxis markazi mutaxassislari tomonidan mazkur maktablarga iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni tanlash bo'yicha 3 ta psixologik metodikalar majmuasi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning umumiy aqliy qobiliyatlari bilan birga, 5 ta akademik yo'nalish (ijtimoiy-gumanitar, aniq, tabiiy fanlar, xorijiy tillar va san'at-nafosat) bo'yicha ham maxsus qobiliyatlarni o'rganish uchun psixologik tashxis metodikalari tayyorlandi.

Barcha tashxis markazlarida “iqtidorli bolalar banki” tashkil etilgan bo'lib, mazkur tanlovlarda eng yuqori aqliy rivojlanganlik darajasini namoyon etilgan o'quvchilar kiritilgan.

Respublika tashxis markazi mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hozir 6-16 yosh bolalarning o'rtacha 3-5 foizi yuqori darajadagi aqliy koeffitsient (IQ)ga ega ekan.

Biz tadqiqotlarimizda "iqtidor" tushunchasini yuqori darajada rivojlangan qobiliyat sifatida o'rganmoqdamiz. Shu o'rinda aytish lozimki, ko'pincha hatto mutaxassislard ham, iqtidor va iste'dod tushunchalarini bir ma'noda talqin etishadi. Bizningcha, iqtidor shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, u faqat akademik faoliyat yoki aqliy-nazariy faoliyatda namoyon bo'ladi. Iste'dod esa aqliy-ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Albatta, bu xususiyatlar har bir insonning faqat o'ziga xos bo'lganligiga va tabiiy shartlanganligiga qaramasdan, alohida e'tibor va ta'lim-tarbiyani talab etadi. Shu bois, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tanlab, ularni rag'batlantirish uchun yetarli shart-sharoit hamda intellektual, ijodiy muhit kerak bo'ladi. Chunki har qanday iqtidor va iste'dod faqat o'ziga tegishli sohada rivojlanadi va namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz aytganlaridek: "Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir". Shunday ekan xalq ta'limi tizimida iqtidorli bolalarni izlash, tanlash va ularga ta'lim-tarbiya berish muammolari izchillik bilan hal etilib kelinmoqda. Jumladan, Xalq ta'limi vazirligi 2009-yil 27-mart 4/4-sonli va Davlat test markazining 2009-yil 27-martdagi 01-11 x/19-sonli qo'shma qarori bilan "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflariga, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalariga o'quvchilar qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 203-son "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi va 2008-yil 7-avgustdagi 173-son "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan maktablari va maktab-internatlarga o'quvchilarni qabul qilish tartib-qoidalarini belgilaydi.

Ixtisoslashtirilgan sinf va ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalariga tegishli sinfni muvaffaqiyatli yakunlagan, chuqurlashtirib o'qitish belgilangan fanlardan muayyan qobiliyatini ko'rsata olgan o'quvchilar tanlov natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi va Davlat test markazi tomonidan qo'shma buyruq bilan belgilangan kvota doirasida qabul qilinadi.

O'quvchilarning iqtidor va iste'dodlari fanlardan olgan "a'lo" baholar bilan emas, ko'proq aqliy jarayonlarning mahsuldorligi bilan o'lchanadi. Psixologik intellekt testlari o'quvchining u yoki bu fandan bilimini emas, umumiy aqliy qobiliyati va o'zi tanlagan soha bilan shug'ullana olish layoqati, imkoniyatini aniqlab beradi. O'quvchi umumiy o'rta ta'lim fani ("umumiy o'rta"ga e'tibor bering) bo'yicha imtihonda "besh" baho olsayu, shu soha bo'yicha intellektual yoki ijodiy qobiliyati bo'lmasa, uning keyingi faoliyatida unumdorligi past bo'ladi. Buning oqibatida bunday kishi tanlagan sohasidan bezibgina qolmay, jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmaydi.

Yana shuni qayd etish lozimki, iqtidorni faqat shaxsning aqliy imkoniyati sifatida tasniflash uni tadqiq etishda bir tomonlamalikka olib keladi. Chunki iqtidor nafaqat aql, balki shaxs tuzulmasining barcha komponentlarining uyg'un va yuqori darajada

rivojlanganligi bilan izohlanadi. Demak, iqtidor faqat aqlga emas, balki shaxsga tegishlidir. Iqtidorli kishi deganda biz har tomonlama rivojlangan shaxsni nazarda tutamiz. Kimdir o'z qobiliyati bilan, boshqa birov o'z xarakteri va tashqi olamni o'ziga xos idrok etishi bilan iqtidorli bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda tengdoshlaridan o'zib ketgan bolalarni iqtidorli, deymiz. To'g'ri, bunday bolalar qobiliyatli, lekin shunday bolalar ham borki, ular noandoza fikrlashi, voqea va hodisalarni g'ayrioddiy talqin etishi bilan iqtidorli hisoblanadi. Bunday bolalar ko'pincha tarbiyachilar, o'qituvchi va ota-onalar uchun “qiyinchilik tug'diradi” va ularni tarbiyalash ham og'ir kechadi. Ayniqsa, o'qituvchilar bunday bolalar xatti-harakatini baholashda, uning boshqa bolalarga o'xshamaydigan g'ayrioddiy harakatlarini qabul qilishda qiynalishadi. Aytish, kerakki bolaning rivojlanishi o'ziga xos qonuniyat asosida kechadi va o'zining ichki mantiqiga ega. Ichki mantiqni tushunishda quyidagi konsepsiyaga asoslanish lozim. O'z-o'zini boshqaruvchi individ rivojlanish jarayonida shunaday xususiyatlarga ega bo'lib boradiki, bu xususiyatlar, bir so'z bilan aytganda na ichki va na tashqi jihatdan shartlanmagan. Bu xususiyatlar tashqi va ichki ta'sirlarning uzviylashuvi bilan mushtaraklashadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning rivojlanishi uning barcha qirralarini qamrab olgan holda yaxlit jarayon sifatida kechadi. Buni oddiy tilda izohlasak, hech kim shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki shaxs sifatida shakllanadi. Yoshlarning davrida shaxs rivojlanishi bilan iqtidorning rivojlanishi uyg'un kechishini ta'lim-tarbiyada albatta, inobatga olinishi lozim bo'ladi.

Muxtasar aytganda rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida respublikamiz xalq ta'limi tizimida iqtidorli bolalarni tanlash va ularga ta'lim-tarbiya berishning ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan uzluksiz tizimini yaratish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Barkamol avlod orzusi”* –T.: “Sharq”, 2000.
2. Asadov Y., Burhonova G. *Psixologik tashxis metodikalari.* – “Maktab va hayot” jurnali, 2001-yil 3-son.
3. Davletshin M.G. *Psixologiyada shaxsni o'rganish istiqbollari.* “Xalq ta'limi” jurnali, 2001-yil 3-5-sonlar.
4. *“O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik tashxis muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* –T.: 2005.
5. Азарова Л.Н. *Как развивать творческую индивидуальность младших школьников.* // Журнал практического психолога. 1998.- №4.- С.83.
6. Юркевич В.С. *Проблема диагноза и прогноза одаренности в работе практического психолога.* // Школа здоровья. - 1997.- №1.- С.59

Karimboy NAZARQOSIMOV,
Dildora MUSTAFAQULOVA,
Jizzax DPI o'qituvchilari

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI UY SHAROITIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga uy sharoitida yakka tartibda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilgan. Shuningdek, mualliflar oilada ta'lim beruvchi pedagog qanday xislatlarga ega bo'lish kerakligi xususida aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Pedagog, o'quvchi, tibbiy-pedagogika, psixologiya, ta'lim-tarbiya, dars o'tish, e'tibor.

В данной статье рассматриваются особенности индивидуального обучения детей с ограниченными возможностями и адаптации их к жизни. Автором определяется, какими качествами и чувствами должен обладать педагог для обучения таких детей в семье.

Ключевые слова. Педагог, ученик, аспекты, медицина, педагогика, психология, воспитание, проведение уроков, внимание.

This article is about educational aspects of teaching disabled children in condition of family and the typical directions of the organization of teaching such kind of children.

Key words. Teacher, student, aspects, medicine, pedagogy, psychology, education.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, yosh avlodni sog'lomlashtirishning milliy dasturlari, xususan bolaning sog'ligini himoya qilish, shuningdek, nogiron bolalarga uyda yakka holda ta'lim berishni tashkil qilish, kelgusida bu bolalarni hayotda o'z o'rnini topish, bilim olish, biron bir kasbni egallash imkoniyatlarini yaratishga qaratilgandir. Oilada yakka holda ta'lim berish bu asosan sog'ligi yomonligi tufayli o'z tengqurlari jamoasi ichida ta'lim olishi imkoniyati bo'lmagan, umumiy o'rta ta'lim maktablariga qatnay olmaydigan 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan nogiron hamda 1–9-sinf gacha o'quvchilarga, shuningdek jismoniy va ruhiy jihatdan nuqsoni bo'lgan maxsus maktablarga qatnay olmaydigan ayrim imkoniyati cheklangan bolalarga uyda yakka holda ta'lim berishni tashkil etishga qaratilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy ta'limda o'qitishga jalb qilinish tartibi, bolalar Viloyat tibbiy – pedagogik – psixologik komissiyasi a'zolarining tekshiruvidan o'tkazish lozim. Komissiya tarkibida ishtirok etayotgan mutaxassislarning tekshiruvidan so'ng, ularning xulosasiga ko'ra, agar bola o'zining rivojlanishdagi nuqson tufayli umumiy ta'lim va maxsus maktablarda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmasa, bunday bolalar komissiya a'zolarining tavsiyasi asosida oilaviy ta'limda o'qishga jalb qilinadi.

Uyda yakka holda dars mashg'ulotlari o'tkazayotgan o'qituvchilarga XTB ning ko'rsatmasiga asosan ta'rif stavkasi bo'yicha xalq ta'limi tizimidagi yagona ta'rif jadvaliga

asosan oylik maoshi to'lanadi.

Oilada yakka ta'lim olayotgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda e'tibor hamda g'amxo'rlik ko'rsatuvchi o'qituvchi va uning ishini nazorat qiluvchi yaqin atrofdagi umumiy o'rta ta'lim rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi. Ya'ni umumiy o'rta ta'lim xududidagi oilaviy ta'limga muxtoj bo'lgan o'quvchiga oilaviy ta'limni tashkil etish o'sha ta'lim muassasasiga ma'muriyatiga tegishlidir. Uy sharoitida o'quvchi bilan yakka tartibda darslarini o'tish, uning salomatligini e'tiborga olgan holda toliqmagan vaqtda o'tishni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim olayotgan bolalarning bilimlari muntazam ravishda baholanib boriladi. Ularning ismi-shariflari, o'zlashtirishi, sinfdan-sinfga ko'chirish va maktabni bitirish haqidagi ma'lumotlar tegishli sinfning qaydnoma jurnaliga yozib boriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni oilada o'qitishda ularning istak, mayl va qiziqishlari hamda ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma-malakalarini rivojlantirishga e'tibor berish lozim. Bolani faqat dars mashg'uloti bilan toliqtirib qo'ymasdan, balki qiziqishi, fikr doirasini kengaytiruvchi har xil badiiy asarlardan, qiziqarli o'yinlar turli xil rasmlar bilan ishlashni tashkil qilib borish o'qituvchining e'tiborida bo'lishi kerak.

Albatta oilada ta'lim olayotgan bola faqat bilim olish bilan chegaralanib qolish kerak emas, balki nogiron o'quvchilarda idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, fikrlash kabi bilish qobiliyatlarini umumiy rivojlanishini ham nazarda tutish lozim.

Oilaviy ta'lim jarayonidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarda predmet va narsalarni ko'rib analiz-sintez qila olish, taqqoslash, kabi aqliy faoliyatli ishlarni bajarishga o'rgatib borishni e'tiborga olish lozim.

Uy sharoitida ta'lim jarayonida o'tiladigan darslarda nogiron o'quvchining nutqini fonetik-fonematik, leksik-grammatik tomonlarini rivojlantirishga nutqiy nuqsonliklarini bartaraf etishga ahamiyat berish lozim. Shuningdek nogiron o'quvchida shaxsiy gigiyena, ozodalikka rioya qilish, ozoda kiyinish batartiblik irodasini chiniqtirish imkoniyatlarini amalga oshirish kerak.

Bunday bolalarni hayotda o'z o'rinlarini topib olishlari uchun, qiziqishi, mayllariga qarab, kasb-hunar turlari haqida suhbatlar, shuningdek qanday kasblarni egallasa hayotda qiyinlab qolmasligi haqida tavsiyalar berish lozim.

Ta'lim beruvchi o'qituvchi qanday hislatlarga ega bo'lishi kerak.

- oilada nogiron bolaga ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbini sevuvchi bo'lishi kerak;
- xushmuomilali, bolalarga mehribon, e'tiborli o'qituvchi bo'lish lozim;
- bola ruhiyatini, ichki kechinmalarini tushinuvchi, uni nogironligi, ma'naviy yordamga muhtoj ekanligini his qilish;
- berilgan dars soatlaridan unumli, mazmunli foydalana oladigan bo'lishi kerak;

Uyda ta'lim oluvchi imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish ham, ularga o'tiladigan darslar ham belgilangan me'yoriy didaktik talablar asosida o'tishi lozim. Ya'ni oilaviy ta'lim o'qituvchisi har bir o'tadigan darsni o'tishda hozirgi zamon darslariga qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy talablarga amal qilishi lozim.

Jumladan:

- oiladagi imkoniyati cheklangan bolaga o'tiladigan har bir darsning mazmuni, maqsadi o'quv rejada belgilangan ta'limiy o'quv dasturga muvofiq bo'lishi lozim;
- o'tiladigan darslarning mavzulari imkoniyati cheklangan bolaning yoshiga, o'zlashtirish qobiliyatiga mos bo'lishi;
- o'tiladigan har bir dars o'quvchiga tushunarli bo'lishi, ilmiy bo'lishi hamda hayotiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
- dars jarayonlarida ta'lim bilan tarbiyani uzviy bog'liqligiga e'tibor qilgan hamda korreksion tarbiyaviy maqsadni amalga oshirib borish lozim;
- ta'limiy talablarga amal qilgan holda, har bir darsda imkoniyati cheklangan

o'quvchini o'zlashtirish qobiliyatini nazorat qilish, uni baholash mezoniga muvofiq baholab, rag'batlantirib borish lozim;

– oilaviy ta'lim o'qituvchini bolaning ota – onasi bilan hamkorlik ishini yo'lga qo'yishi, shuningdek dars jarayonidagi bolaning o'zlashtirish qobiliyati, yutuq va kamchiliklarini uning ota-onasiga ma'lum qilib borish;

Uyda yakka tartibda o'qitishni tashkil etishda nogiron bolalarning ota-onalarni yoki qonuniy vakillarning huquq va burchlari quyidagilardan iboratdir:

– “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 30-moddasiga binoan ota-onalar yoki qonuniy vakillar bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari, salomatliklarini tiklashlari hamda oila sharoitida ta'lim- tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun javobgardirlar.

Ota-onalar yoki qonuniy vakillar uy sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda:

- o'qituvchilarning mashg'ulotlarni belgilangan muddatlarda o'tishini nazorat qilib, har bir o'tilgan dars yoki mashg'ulotni imzo bilan tasdiqlab beradilar;

- bolaga birlashtirilgan o'qituvchi faoliyatidan qoniqmasalar uning o'rniga boshqa o'qituvchini tayinlash to'g'risida maktab ma'muriyatiga murojaat etadilar;

- uyda ta'lim olayotgan farzandlari uchun o'rnatilgan tartibda maktabdan darslik va boshqa adabiyotlar berilishini talab qiladilar.

Agarda pedagog oilada o'tilayotgan dars xo'ja ko'rsinga o'tadigan bo'lsa, dars o'tganda ham bolaga sayoz bilim bersa, bunday o'qituvchidan voz kechmoq ma'qul.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi ma'muriyati ham oilada nogiron bolani o'qitish, ta'lim berish ishlariga doimo nazoratda bo'lib e'tiborli bo'lishi lozim. Oilada dars o'tishga ma'lum bir sharoit tashkil qilinishi muhimdir. Dars o'tish uchun alohida xona ajratilgan bo'lib, xona yorug' shinam bo'lishi, shovqindan yiroq bo'lishi, kichik doska, stol, stul yoki nogiron bolani o'tirib dars o'tishi uchun mos bo'lgan jihoz bo'lishi lozim.

Uy sharoitida ta'lim oluvchi bola ham maktabning umumiy bola soni hisobida bo'ladi. Bunday bolalar maktabdagi o'tkaziladigan bayram tadbirlari, qiziqarli kechalarga taklif qilinishi, ayniqsa o'z tengqurlari ya'ni sinfdoshlari bilan uchrashuvlar tashkil qilinishi, bolaning ruhiyatini ko'tarilishiga, hayotga qiziqishiga ijobiy yordam beradi.

Xulosa qilishdan oldin quyidagi fikrni aytib o'tish lozim, ya'ni nogiron bolani oilada o'qitib, ta'lim berishdan maqsad, uni hayotda o'z o'rnini topishga yordam berish. Unda yuzaga chiqmagan iste'dod, qobiliyat tomonlarini tarbiyalash orqali yuzaga chiqarishdir. Zero har qanday millatni ma'naviyatini bilmoqchi bo'lsang uni qariyalariga, nogironlariga qilgan g'amxo'rligidan bilgin deb aytib o'tishgan. Shuning uchun nogiron, yordamga muhtoj bolalarga e'tibor qilib kelinishi xalqimiz ma'naviyatining bir ko'zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rizamatova M.R. Oilada nogiron bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik savodxonligining ahamiyati// “Korreksion rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiyaning mazmuni, turlari va shakllari” mavzusidagi konferensiya materiallari. – T., TDP, 2008, 149 b.

2. Nurmuhamedova L.Sh., Abidova D. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash yo'llari// “Korreksion rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiyaning mazmuni, turlari va shakllari” mavzusidagi konferensiya materiallari. –T., TDP, 2008, 105-b.

3. Musayeva L. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari/ Maktab va hayot, 2005, 3-son, 18b.

4. Vlasova K.L., Pevzner M.S. Kamol topishda kamchiliklari bo'lgan bolalar haqida. –T., O'qituvchi, 1976.

5. Jumaboyeva N. Alohida yordamga muxtoj bo'lgan bolalar ta'limida korreksion pedagogikaning o'rni. (maqolalar to'plamidan). –T., Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2009.

Saida UMAROVA,
Andijon davlat universiteti magistranti

PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASHDA ALISHER NAVOIYNING TARBIYAVIY MEROSI

Annotatsiya

Maqola Alisher Navoiyning tarixiy, siyosiy va tarbiyaviy meroslarini o'rganish, masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif ijtimoiy-siyosiy fan sohalaridagi pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida amaliyotga joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Madaniy meros, ijtimoiy siyosat, pedagog kadrlar, jarayon, tahlil.

В статье изложены методические рекомендации по изучению и анализу исторического, политического и воспитательного наследия великого Алишера Навои при подготовке педагогических кадров по общественно-политическим дисциплинам.

Ключевые слова. Алишер Навои, культурное наследие, социальная политика, педагогические кадры, процесс, анализ.

In article methodical recommendations about studying, the analysis and training of a historical, political and educational heritage of great Alisher Navoi for pedagogical social-political disciplines students are described.

Kew words. Alisher Navoiy, analysis, history, educational, pedagogical, political disciplines.

Zamonaviy pedagogik kadrlar va ayniqsa ijtimoiy-siyosiy fanlar o'qituvchilarini tayyorlashga hukumatimiz tomonidan katta mas'uliyatli vazifalar qo'yilgan. Darhaqiqat, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning "Ma'naviy- axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" bo'limida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi.

Mas'uliyatli vazifalarni bajarish uchun avvalo o'zbek xalqining buyuk tarixiy meroslaridan va milliy qadriyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 17-mayda bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqida konferentsiyaning maqsadi haqida so'zlab, O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va rolga baho berishdan iborat ekanligiga alohida urg'u berdi va ana shu ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga yangi turtki berish,

Sharqning ulug' allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilmfan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhim ekanligini ta'kidladi. Buyuk qomusiy olimlar haqida so'z yuritarkan, ularning ona yurt uchun qo'shgan benazir va bemisl hissasi haqida gapirib, "... Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab buyuk faylasuflar, shoir va ma'rifatparlarning ijodiy merosida donishmandlik va borliq olamni insonparvarlik ruhida anglashning ulkan, bitmas-tuganmas xazinasini saqlanib kelmoqda. Bu meros haqiqatan ham jahon ahamiyatiga molik bebaho boylik hisoblanadi", - deya ajdodlarimizning buyuk merosini mamnunlik bilan tilga oldi. O'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki bir butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini chuqur e'tirof etdi.

Ayni vaqtda yurtboshimiz tomonidan buyuk ajdodlarimizning merosini asrab-avaylash, uni kelajak avlod qalbiga singdirish va ularning qalbidagi shonli o'tmishning zabardast darg'alariga nisbatan muhabbat va iftixor tuyg'ularini shakllantirish muqaddas burch ekanligi alohida ta'kidlanmoqda.

Shunday ekan, bunday mas'uliyat har birimizga va ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi ustozlarga kundalik va muqaddas vazifa yuklaydi. Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodimizning qanchalar buyuk shoir ekani va dunyo miqyosida katta hurmatga sazovorligi barchamizga ma'lum. Uning adabiyot sohasidagi ulkan merosini butun jahon olimlari uzoq yillardan beri muntazam tadqiq qilib kelmoqda. Bu borada Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida buyuk allomalar haqida to'xtalib shunday deydi: O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatgan zotlaran biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir... Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, shon-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir.

Alisher Navoiyning ulkan adabiy merosi bilan bir qatorda hayotiy-tarixiy, siyosiy-boshqaruv va tarbiyaviy sohada hayot tajribasi merosi ham mavjudki, ular hali tizimli ravishda yetarli darajada o'rganilmagan. Uning asarlarida bayon etilgan adolatli boshqaruv tamoyillari tarixiy-siyosiy shart-sharoitlarga tayangan holda chuqur ilmiy tahlil etilmagan. Bunday holat bugungi ijtimoiy-siyosiy sohada olimlar oldiga mazkur merosni o'rganish yuzasidan dolzarb vazifani yuklaydi. Shuning bilan bir vaqtda mazkur merosni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayoniga keng joriy etish dolzarb vazifadir.

A.Navoiyning hayotiy tajribasi tarixini o'rganish shu haqida guvohlik beradiki, uning huquqiy va siyosiy sohada yuritgan yirik va keng ko'lamli tashkiliy ishlari, o'z davridagi mansabdorlarga ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari va muhim maslahatlari bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish borasidagi ustivor fikrlarga to'la mos keladi.

U o'zining yoshlik va yigitlik davrida ilmga va adabiyotga o'ta qiziqqanligi, shuningdek uning fe'l-atvori nozik ta'b, so'fiylik qoidalariga moyil bo'lganligi uchun ham davlat mansablarini egallashga hech bir ho'yi-havasi yo'q edi. Ayni chog'da, u katta davlat mansabdori oilasida voyaga etgani uchun ham o'z davridagi davlat siyosatini sinchkovlik bilan kuzatib borar, hukmdorlarning davlat boshqaruvidagi faoliyatiga unchalik befarq ham emas edi. Alisher Navoiyni Hirot shahridan ketkazilishi, uni hayoti va faoliyati ustidan yashirin davlat nazoratini o'rnatilishi uning o'sha davrdagi siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir qila olishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

U 1469-yilning aprel oyida o'zining do'sti Sulton Husayn hukmdorlik taxtiga o'tirganida ham o'zini biron-bir mansabga o'tirishga xohish bildirmaydi, balki, o'zining ijod qilishi va ilm sirlarini o'rganishiga imkoniyatlar bo'lishi uchun harakat qiladi. Ammo, Alisher Navoiyning bolalikdan do'stining hukmdorlik darajasini egallashi natijasida o'ziga bog'liq bo'lmagan bir sharoitda u siyosiy jarayonlarga mustahkam bog'lanib qoldi. Uning ilk amaliy siyosiy jarayonga kirib kelish sabablarini tarixchi Xondamir quyidagicha ifodalaydi: "...Yoshlik va yigitlik zamonida doimo darveshlar suhbatining talabgori edi, imkon boricha bu oliy makon guruhga ixlos va muridlik qadami bilan mulozamat qilardi. Bir qancha vaqt aloqa ipini uzib, tabarruk joy olgan "Raboti Suhal" da turdi. Xalq bilan aralashishdan, fayzli vaqtlarini ibodat va riyozat ahillari bilan birga o'tkazdi. Mamlakat jilovi Sultoni sohibqironning iqtidorli qo'lga o'tgandan keyin hidoyat va irshod nurlarining manbai bo'lgan zotning ota-bobolari bu adolatli podshoh yaqinlari jumlasidan bo'lganlikdan, ul hazratni nihoyatsiz inoyat nazarlari ostiga olib, oliy mansablarni qabul qilish va davlatni idora qilish ishlariga taklif qildi. Hidoyat yo'lidagi Amir, sharif xotiri faqr va fano yo'lini ushlashga moyil bo'lganlikdan, harchand bu kabi mashg'ulotga kirishishdan bosh tortsa ham, Sultoni sohibqiron qattiq qistashni ortтира berdi va ikki bayt mazmunini o'rta qo'ydi:

Bar royi korsozi tu mavquf kardaand,
Tartibi kori olam va tanfizi kori mulk.
Farmoni kirdgor barin jumla raftaast,
Kaz qilki beqarori tu boshad qarori mulk.

(Mazmuni: Dunyo ishini tartibga solish va davlat ishini bajarishni sening bajaruvchan royinga qaratib qo'yilgan. Sening qarorsiz qalamingdan mamlakat barqaror bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy taqdir taqozosi bilan davlat ishlarini boshqarish faoliyatiga tortildi.

Buyuk mutafakkirning siyosiy qarashlari va adolat tamoyillari to'g'risida fikr yuritilganda quyidagilarga e'tibor berilishi mumkin. Alisher Navoiy 1469 yil iyun oyida Hirot shahrida shialik mazhabiga qarshi ko'tarilgan isyonni adolatpeshalik va xalqchilikka tayangan holda bostirganidan keyin u doimo Sulton Husaynning davlat siyosatini amalga oshirishida ehtiyoj sezadigan davlat arbobiga aylana boshladi. Shu bilan birga, Zahiriddin Boburning fikricha, Sulton Husayn Navoiyning ta'siri bilan shialikni tark etib sunniylik mazhabiga e'tiqod qila boshlaydi. 1469 yilning kuzida esa Sulton Muhammadning o'g'li, shuningdek Boysunqurning nabirasi shahzoda Yodgor Muhammad isyon ko'tarib Astrobod shahrini egallaganida Sulton Husayn Alisher Navoiy hamroxligida isyonni bostirish uchun qo'shin bilan yo'lga tushadi. Shu paytda aholi hukmdorni yo'qligidan foydalangan mansabdorlarni soliqlarni oshirganligiga qarshi katta isyon ko'tariladi. Uni bostirish uchun Sulton Husayn Alisher Navoiyni yuboradi. U o'zboshimcha mansabdorlarni qattiq jazolab, shaharda adolat o'rnatib isyonni bostiradi.

Bu haqda Mirxond o'zining "Ravzat us-safo" asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "...Hirot xalqi shu vaqtda adolatlishox hoqon chodiri soyasidan yiroq edi, xoja Abdullo esa xoja Nizomuddin Baxtiyor Simmoniy bilan til biriktirib, Hirotida butun hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar, bechora ra'iyatga jabru sitam qilib, mazlumlar ko'ksidan oh dodini falakka chiqardilar. Ra'iyat va fuqaro ahvoli shu erga borib etdiki, avom un-nos hujum qilib, xoja Abullani, dorussaltanatda mirzo Shohruh qabulxonasida o'ttirgan paytda toshbo'ron qildilar. Xoja Abulla bunga toqat qila olmasdan Madrasa hujralaridan biriga kirib yashirindi va hiyla ishlatib bu tahlikadan o'zini xalos qildi. ...Yaxshi xislatli

hoqon dastlab amir Nizomiddin Alisherni adlu insof palosini to'shash va zulmu fasod rasmlarini yo'qotish uchun dorussaltana Hirotga yubordi, unga o'sha yurt xalqini o'ziga mayl ettirish bobida humoyun yorliq ham berildi, Amir Alisher avval shaharga borib, o'zining tabiiy odatiga ko'ra, befoyda kunlardan ularning ko'ngillariga ta'sir etgan zaxmlarga malham qo'ydi, sitamdiyda mazlumlarning istimolati bobida to'la extimom ko'rsatdi, zolimlarning zulmi daf'iga kirishdi va buyurdiki, avval oliy yorlig'ni jum'a kuni minbardan o'qib eshittirsinlar. Shu sababdan, xaloyiqning ko'ngli tinchu osuda bo'lib, podshoning davlatu iqboli davom etishining hamdu sanosi va amir Alisherning ulug'ligi va shuhrati ortishi duosiga til ochdilar. Amir Alisher humoyun o'rduga ketayotib, xoja Nizomuddin Baxtiyorga yordam qilmadi va u hibsga olindi".

1470-yil iyunda Sulton Husaynning o'z askarlari ichida isyon ko'tariladi. Bundan dahshatga tushgan Sulton Husayn poytaxtdan chikib Faryob qishlog'iga chekinadi. Bunday qulay paytdan foydalangan Yodgor Muhammad turkman askarlari yordamida Hirotga bostirib kirib, taxtni egallab oladi. Bundan salohiyatli Sulton Husaynning ruhi tushib ketadi. Ayni paytda, u Alisher Navoiyning maslahati va qistovi bilan tezlik bilan dushmanga karshi o'tlanadi. Chinoran qishlog'i yonidagi jangda Sulton Husayn qo'shinlari g'alaba qozonadi. Yodgor Muhammad Hirotga qochib kirib, mustahkam qo'rg'onga bekini oladi. Ammo u Hirotga qo'lga olinib, qatl etiladi. Shundan keyin Sulton Husaynning hokimiyati bir necha yillar barqaror holda yashaydi.

Umuman, ana shu voqealar Sulton Husaynning esida bir umr qoladi va u Alisher Navoiyga o'zining xaloskori sifatida qaray boshlaydi. Bu holat Alisher Navoiyning nafaqat siyosat va boshqaruv sohasida yetuk salohiyatli arbob ekanligini anglatadi, balki uni o'z zamonasining dovyurak va jasur insonlaridan biri ekanligini ham bildiradi. Mutafakkir, zamonasining tarixchisi Mirxondning qayd etishicha, "xayru ehson, latofat va ko'ngil zarofati bobida amir Alisherning tengi yo'qligidan jahongir podshohning xotiri hamma vaqt unga moyil bo'lib, ulug'lik va amirlik martabasini unga in'om etdi".

Alisher Navoiyning boshqaruv faoliyatida adolat tamoyillariga amal qilishi nuqtai-nazaridan e'tibor beramizki, Alisher Navoiy hukmdor Sulton Husayn saroyida oliy mansablarda mamlakatni adolat va xalqchilik asosida idora etishda faol ishtirok etdi. Dastlab u podshoh saroyida muhrdor mansabida faoliyat yuritgan bo'lsa, keyinchalik vazirlik va amirlik martabalariga erishdi. 1472 yilda unga Sulton Husayn amirlik unvoniga qo'shimcha ravishda amorat unvonini ham beradi.

Albatta, o'sha davrda Alisher Navoiy faqat amir unvonida emas, balki "Amiri kabir" (yuksak amir) maqomi bilan ham e'tirof etilgan. Shuning uchun ham uning ismiga "Mir" (amir) unvonini qo'shib aytish bir umr saqlanib qoldi. Mirzo Haydarning guvohlik berishicha, Alisher Navoiyning amirlik paytida u davlat xizmatini bajarayotgan shaxslar, saroy ayonlari, pul (tanga) zarb qiladigan xizmat, davlatning jangovar otlar turadigan otxonalari va barcha davlat tomonidan amalga oshiriladigan qurilishlar sohasini boshqargan.

Alisher Navoiy vazirlik mansabida ishlagan paytda amirlar va turli mansabdorlarning ochko'zligi, ularning saroydagi turli axloqqa zid xatti-harakatlari, xalqning mulkiga ko'z olaytirishlari kabi illatlarga qarshi qattik kurash olib bordi. Biroq, saroydagi oxiri ko'rinmas kurashlardan qattiq charchagan Alisher Navoiy ijodiy ishlar bilan shug'ullanishga ahd qiladi va 1476-yilda vazirlik mansabidan iste'fo beradi. "Navoiy, - deb yozgan edi Xondamir, - "...Bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan afzal" degan so'zlarga amal qilib, amirlik taxtni va hukumat mashadini o'zining muborak qadami bilan ziynatladi va jabr-jafo raqamlarini davron sahifasidan mahv qilib, adolat va insof

eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi. Yaralangan davr jarohatlariga malham qo'yib, pur alam dahr kasallariga adolat sharbati bilan shifo baxsh qildi. Bir necha yil “xalq o'rtasida hukmronlik qilsangiz, adolat bilan hukm yuriting” so'zlariga amal qilib:

Zi mansab ro'y dar bemansabi nih,
Ki az har mansabe bemansabi bih.

(Mazmuni: Mansabdan mansabsizlikka yuz qo'y, har bir mansabdan ko'ra mansabsizlik yaxshi) degan baytning mazmunini xotiradan o'tkazib, amirlik mansabidan iste'fo berdi...”.

Alisher Navoiyning adabiy va badiiy mavzulardan tashqari siyosiy va huquqiy sohaga oid mavzularda murakkab tahliliy mavzularda faoliyat olib borganligini hisobga olib, ijtimoiy – siyosiy va huquqiy sohada tahsil oluvchi talabalarning turli shakldagi darsdan tashqari tadbirlarida ham foydalanish mumkin. A.Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida adabiy, tarbiyaviy va siyosiy soha bo'yicha qimmatli ma'lumotlar bor. Unda davlat mansabdorlarining va boshqa shaxslarning xulq – atvori va jamiyat oldidagi vazifalari haqida aytgan o'rinli mulohazalari ayni yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak ushbu doston va Navoiyning qator asarlaridan ijtimoiy – siyosiy sohadagi talabalar Navoiyshunoslikka oid turli xil badiiy kechalarda foydalanib, Navoiyning juda ko'p sohalarda chuqur tafakkur sohibi bo'lganligiga guvoh bo'lishi va ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda:

– Alisher Navoiyning buyuk adabiy merosi bilan bir qatorda uning tarixiy, siyosiy va jamiyatni boshqaruv sohasidagi hayotiy va ijodiy tajriba merosini tizimli ravishda o'rganish.

– Alisher Navoiyning tarixiy, siyosiy va jamiyatni boshqaruv sohasidagi hayotiy tajribasi va qarashlari, shuningdek jamiyatni adolatli boshqaruv tamoyillari uning adabiy asarlarida ifoda etilgani mazkur asarlarning turli fan sohalarida, shu jumladan ijtimoiy-siyosiy sohalarda yosh pedagogik kadrlarni tayyorlashda foydalanish.

– Alisher Navoiyning tarixiy, siyosiy va jamiyatni boshqaruv sohasidagi hayotiy tajriba merosini va ayniqsa, adolat tamoyillarini ijtimoiy-siyosiy fan sohalarida tayyorlanayotgan pedagogik kadrlarga o'rgatish.

– ijtimoiy-siyosiy fan sohalarida tayyorlanayotgan pedagogik kadrlarga Alisher Navoiyning tarixiy, siyosiy va jamiyatni boshqaruv sohasidagi hayotiy merosini darsdan tashqari (konferentsiyalar va seminarlar o'tkazish) mashg'ulotlarda hamda mustaqil ta'lim (referatlar, ma'ruzalar va maqolalar tayyorlash) shaklida o'rgatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami, Toshkent. 2013. 26-27 b.

2. Prezident I.Karimovning “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. “O'zbekiston ovozi” gazetasi. 2014-yil 17-may soni.

3. Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”. T.: “Ma'naviyat”. 2008.

4. Alisher Navoiy. “Xamsa”. Hayrat ul-abror dostoni. T.: G'afur G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at nashriyoti”. 1989.

Zamira BILOLOVA,

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi ilmiy xodimi

SOG'LOM AVLOD TARBIYASIDA OILA VA MAHALLANING HAMKORLIGI

Аннотация

Maqola sog'lom avlod tarbiyasida oila va mahallaning hamkorligi masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, sog'lom avlod ma'naviyati shakllanishida oilaning o'ziga xos ta'siri, mahallaning o'rni tahlil etilgan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari orqali oila va mahallaning o'rni beqiyos ekanligi ko'rsatib berilgan, zarur tavsiya va amaliy maslahatlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Sog'lom avlod, oila, mahalla, tarbiya, ta'lim muassasasi, hamkorlik, otalar ta'siri, ma'nan yetuklik.

Статья посвящена вопросам сотрудничества семьи и махалли в воспитании здорового поколения. Также раскрыты роль и место семьи и махалли в формировании духовности здорового поколения. По результатам анкетирования показано значение семьи и махалли в формировании ребенка, приведены необходимые рекомендации и практические советы.

Ключевые слова. Здоровое поколение, семья, махалля, воспитание, учебное заведение, сотрудничество, влияние родителей, духовная зрелость.

This article focuses on the issues of cooperation of the family and the mahalla in upbringing of healthy generation. Also, the article analyzed the role and place of the family and the mahalla in the formation of a healthy generation of spirituality. As a result of the survey shows the place of the family and the mahalla in the formation of the child, given the necessary guidance and practical advice.

Key words. Healthy generation, family, mahalla, education, educational institution, partnership, parents, spiritual perfection.

Shaxs shakllanishida oila, mahalla, ta'lim maskanlarining barchasi o'z ta'siriga egadir. Barcha maskanlar orasida oila maskanining ma'naviy muhiti, unda voyaga yetayotgan farzandning jismoniy sog'lom bo'lishi, ma'nan yuksak bo'lishi, aqlan kamolga yetishi jamiyat miqyosida eng muhim masaladir.

Oilada ham jisman, ham ruhan sog'lom avlodni shakllantirish uchun davlat tomonidan turli chora-tadbirlar ko'rilmogda va yuqori darajada e'tibor berilmogda, chunki ma'naviy, axloqiy, psixologik tarbiya avvalo oiladan boshlanadi. Oila tinch, mustahkam va farovon bo'lsagina, jamiyatda rivojlanish bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy va ruhiy muhitning sog'lomligiga yetarli zamin yaratadi. Shuning uchun bizning yurtimizda oilani mustahkamlashga alohida e'tibor berilib kelinmogda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Sog'lom deganda biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni ham ko'zda

tutganmiz, chunki har tomonlama sog'lom avlodga ega bo'lgan halqni hech qachon yengib bo'lmaydi”.

Xalqimizda “bola boshidan” degan naql bejiz aytilmagan. Chunki oila muhitida bolaning tarbiyasi, o'sishi va voyaga yetishi uchun asos mavjud. Sog'lom muhit, munosabatlarida iliqlik, o'zaro tushunish mavjud bo'lgan oilada nafaqat farovon va baxtli turmush, balki, farzand o'stirish va voyaga yetkazish munosib amalga oshadi. Shuning uchun farzandning sog'lom tug'ilishi, sog'lom o'sishi, sog'lom tarbiyalanishi va nihoyat sog'lom fikrli shaxs bo'lib shakllanishi ham oilaga bog'liq.

Nikoh-oila munosabatlari muammosi, insoniyat jamiyati yuzaga kelgan ilk ibtidoiy davrlardan buyon eng dolzarb muammolardan biri hisoblangan. Odamlar qachon va qanday tizimlarda yashashlaridan qat'iy nazar, oila masalasi doim alohida e'tibor ob'ekti bo'lib kelgan.

Oila va mahallalarda sog'lom muhit mavjud bo'lgandagina, ularda har tomonlama sog'lom barkamol inson shakllanadi. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda oila institutining mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlash “Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror” degan insonparvar tamoyilning to'laqonli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Birinchidan, mustahkam oilani shakllantirishda yoshlar ongiga milliy qadriyatlarining singdirilmaganligi, ularning oilaviy hayotga tayyor emasligi, hayotdagi o'rni va vazifalarini, oila oldidagi mas'uliyatini his qilmasligi, shuningdek turmush qurishga yengil-yelpi qarash yoki ota-onaning tavsiyasiga ko'ra oila qurish sababli oilada o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqadi;

Ikkinchidan, yosh oila o'rtasida o'zaro mutanosiblik, ya'ni ma'naviyati, fikr doirasi va bilim saviyasining to'g'ri kelmasligi oqibatida oila yemirila boshlaydi;

Uchinchidan, oilada ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yish hamda oila a'zolari orasida turli salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi va bular bolaga ta'sir etishi;

To'rtinchidan, oilalarda uy-joy qurish, to'y-hashamlarni o'tkazish maqsadida qo'shni davlatlarga yoshlarning chiqib ketishi, yoshlarning mol-mulkga berilishi kabi holatlar yuzaga kelmoqda.

Bu keltirilgan jihatlar oilaning bolaga ta'siri oqibatlarining ko'rinishlaridir.

Shuningdek, mamlakatimizda o'zaro mehr-oqibat, ahillik, totuvlik hamda milliy qadriyatlar maskani hisoblangan o'ziga xos boshqarish tizimi bo'lmish mahalla instituti mavjud “Mahalla – ham ota, ham ona” deb tan olinganligi bois biz uni mustahkam qo'rg'on deb ham ataymiz.

Yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatning o'ziga xos ko'zgusi bo'lgan mahalla har bir oila, har bir shaxs bilan imkoniyat darajasida ish olib borish uchun ma'naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega bo'lgan maskan hisoblanadi. Oila kichik vatan bo'lsa, mahalla uning mustahkam tayanchidir. Shuning uchun ham sog'lom avlodni tarbiyalashda oila va mahalla hamkorligi muhim hisoblanadi.

Mahalla asrlar osha, turli tuzumlarni ko'rgan, rang-barang turmush tarzi, din, mafkura, turli g'oyalar qozonida qaynagan, xayot sinovlaridan o'tgan donishmand o'zbek xalqi o'zi uchun rahnamo, deb tanlab, mukammal shaklga solib, avaylab-asrab kelayotgan bebaho qadriyatdir. Mahalla bu o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning eng oliy shaklidir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni tashkil etishning bu shakli asrlar osha yashab kelmoqda. Chuqur tarixiy ildizga ega bo'lgan, xalqning kundalik hayotini tashkil

etib va yo'lga solib turgan mahalla demokratik poydevorga asoslangan muntazam axloq-odob tizimini keltirib chiqardi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy ham "Mahalla-shahar ichidagi shaharcha" degan ta'rifni kiritgan. Alisher Navoiy yashagan mahalla misolida ham kishilar o'rtasida birodarlik, mehr-oqibat, ustoz va shogirdlik kabi insoniy fazilatlar naqadar yuksak bo'lganligini ko'ramiz.

Dunyodagi bironta mamlakatda uchramaydigan, betakror birlamchi hududiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy o'zini o'zi boshqaruv tizimi bo'lgan mahalla keng qamrovli o'z faoliyatiga ko'ra chindan ham har qancha qo'llab-quvvatlashga, rivojlantirishga, qat'iy ishonch bilan ham shaxs, ham oila, jamoa va butun davlat, jamiyat tayanib yashasa, tang qoldirmaydigan mustahkam qo'rg'ondir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda o'n mingga yaqin fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari mavjud bo'lib, ularda yuz mingdan ortiq maslahatchilar va mahalla faollari faoliyat olib bormoqda. E'tirof etib o'tish kerakki, mahalla faollarining 90 foizdan ortig'i jamoatchilik asosida jalb etilgan mahallaning fidoiy fuqarolaridir. Ular davlatimiz qonunchilik talablari asosida o'zini o'zi boshqarishga doir faoliyatni amalga oshirib, tegishli vazifa-vakolatlarni bajarib kelishmoqda, aholining mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini, har bir fuqaroning siyosiy faolligini oshirish masalalari ham mahallalar oldiga salmoqli vazifalar qo'ymoqda.

Ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, madaniy-ma'rifiy tushuntirish ishlarini amalga oshirish orqali oila ijtimoiy institutini mustahkamlash, mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularni umuminsoniy qadriyatlari ruhida tarbiyalash va bu boradagi mavjud muammolarni hal etishga doir ko'plab dasturlar ijrosidagi mahallaning o'rni ortib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalla ahlining har bir xatti-harakati bir-birining ko'z o'ngida kechishi bois ham mahalla turmush kuzgusiga aylangan. Binobarin, ezgulikka xizmat qiluvchi xatti-harakatlar mahalla ahlining olqishlariga sazovor bo'lsa, nojo'ya, nomaqbul xatti-harakatlar ularning qoralashlariga sabab bo'ladi. Biz kim bo'lishimizdan, qaerda ishlashimizdan qat'iy nazar mahallada yashaymiz va mahallada qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilamiz.

Oilaga va uning a'zolariga ko'rsatiladigan har qanday ko'mak, g'amxo'rlik jamiyat rivoji, mamlakat taraqqiyoti va milliy manfaatlarimiz uchun xizmat qiladi. Mahallalarni boshqarish insoniylik va muruvvatlilik his-tuyg'usi yuksak namoyon bo'lgan, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni to'g'ri tushunib, ularning aniq yechimini to'g'ri topib yetkazadigan ma'rifatli, tashabbuskor, ziyoli kishilarga ishonib topshirilgan. Shuning uchun ham hozirgi paytda mahallalarimiz fuqarolarni bir g'oya, maslak va maqsad atrofida jipslashtirishga qodir bo'lgan muhim poydevoriga aylanib bormoqda.


Ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, turli nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni targ'ib etishda mahalla va uning faollarining xizmati alohida o'rin tutadi.

Mahallalarda yigit va qizlarni oila qurishga ruhiy-ma'naviy jihatdan tayyorlashga ko'maklashish, oilaviy ajralishlarning oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish, oilaning muqaddasligi va jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligini yoshlar ongiga singdirishga qaratilgan tashviqot ishlarini amalga oshirish, shuningdek, to'ylar va boshqa marosimlarni ixcham, keng aholi manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz va ibratli

an'analarimizni hisobga olgan holda o'tkazishni aholi o'rtasida targ'ib qilish va bu boradagi ijobiy tajribalarni ommalashtirishga ahamiyat qaratish lozim.

Oila mustahkamligini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli oilalarni mustahkamlashda eng avvalo oilaning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, huquqiy, ma'naviy va ma'rifiy bilimlarini oshirish tizimini yanada takomillashtirish, mahalla orqali oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muammolarini bartaraf etishda ularga zarur ko'mak va yordam berish, oilaning ma'naviy va tarbiyaviy masalalariga alohida ahamiyat qaratish va oilada sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lmog'i lozim.

“Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda insonga qaysi maskan va omil eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi?” (% da) savoli natijalari.



1-rasm.

Demak, shaxsga ta'sir etadigan maskan va omillar orasida oila va oilaviy tarbiya, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi maskanlari hamda ijtimoiy muhit ta'siri yuqori ekan, farzand tarbiyasi, farzandning barkamol bo'lishida oilaning boshqa ijtimoiy maskanlardan farq qiladigan jihatlarini doimo bilishimiz va yodda tutishimiz zarur. Bu o'z o'rnida oila va mahallaning hamkorligi ta'siri ko'proq bo'lishini va shu orqali farzandni sog'lom, ma'nan yetuk etib tarbiyalashga erishish mumkinligini isbotlaydi.

Oilada farzand tarbiyasini olib borishda o'ziga xos qoidalar mavjud bo'lib, bu qoidalarini ota-onalar bilishlari, farzandlar esa rioya etishlari kerak bo'ladi:

- oilada ota-onalar, farzandlar va boshqa a'zolari bir-birlarini sevishlari, tushunishlari, hurmat qilishlari;
- o'qishni, ishni, mehnatni asosiy ehtiyoj sifatida qarash;
- bekorchilik, dangasalikka berilmaslik;
- oilada qat'iy kun tartibi va rejimga rioya qilish;
- oilada katta kishilarni hurmat, kichiklarni izzat qilish;
- oilada psixologik xotirjamlik, sog'lom muhit yaratish;
- oilaning har bir kishisida mustaqillik, erkinlik, o'ziga ishonch kabi xislatlarni shakllantirish.

Shu keltirilgan qoidalarga amal qilish, o'zaro munosabatlarni yaxshilashga, oilada

sog'lom muhit yaratilishiga asos bo'ladi. Albatta, bunda ota-onalar va kattalarning namuna kuchi, ibratli salmoqli o'rin egallashini xar doim yodda tutish lozim, chunki oiladagi bola xamisha atrofida qilargalarga taqlid qilishni xoxlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilalarni mustahkamlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- oilalarni mustahkamlashda eng avvalo oila ma'naviy va ma'rifiy bilimlarini oshirish borasidagi tadbirlarni tashkil etish;

- mahalla orqali oilaga zarur ko'mak va yordam berish, ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalarni aniq yo'naltirilgan asosda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

- oilaning ma'naviy va tarbiyaviy masalalariga alohida ahamiyat qaratish va oilada sog'lom turmush tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish;

- mahallada ochiq muloqot kunini belgilash va har bir oilaga bevosita reja asosida kirib borish;

- joylardagi targ'ibot ishlarini birinchi navbatda farzandlari tarbiyasiga mas'uliyatsiz bo'lgan oilalarga qaratish hamda bu borada mahalla faollari jamoatchilik va huquq-tartibot organlarining mas'uliyatini oshirish;

- mahallalarda oila-turmush doirasida muntazam huquqbuzarlik sodir etuvchilarni mahalla fuqarolar yig'ini kengashida muhokama qilib, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish;

- har bir fuqarolar yig'ini xududida istiqomat qiluvchi notinch, muammoli oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganib borish, ularga kerakli ijtimoiy, ma'naviy yordam ko'rsatishni tizimli va manzilli tashkil etish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lmog'i lozim.

Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek: "Biz o'z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-kuydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur."

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Akramova F.A. *Mustahkam oila – mahalla tayanchi. Fuqarolar yig'inlarida faoliyat yuritayotgan diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar uchun qo'llanma*. – Toshkent, 2009.
3. Vatan tuyg'usi. "O'zbekiston nashriyoti", – T.: 1996.
4. *Oila psixologiyasi*. Shoumarov G.B. tahriri ostida. – Toshkent, 2000.
5. Ochil Safo. *Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari: (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari misolida)*. – 2-nashri, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: "O'qituvchi", 1997.
6. *O'zbekiston yoshlarida dunyoqarash uyg'unligining shakllanishi muammolari* (mualliflar: E.E.Karimov va boshq.). – T.: Toshkent islom universiteti. 2004.

Ozoda ABDULLAYEVA,

Namangan Muhandislik pedagogika instituti, assistenti,

Saida BEKNAZAROVA,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, katta o'qituvchisi

MEDIATA'LIMNING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada mediata'lim sohasidagi TIAV-multimedia tizimining amalga oshirish usullari ko'rib chiqilib, multimedia tizimining tashkiliy-funksional strukturasi bo'yicha izlanishlar o'tkazilgan. Shuningdek, muallif ushbu tizim orqali, test o'tkazish va multimedia sohasidagi dasturaviy kompleksning iqtisodiy samaradorligini hisoblashni ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. multimedia tizimi, axborotni qayta ishlash, diskret-uzluksiz jarayonlari, test o'tkazish.

В статье описаны методы реализации TIAV-мультимедийных систем в сфере медиаобразования, проведены исследования организационно-функциональной структуры мультимедийной системы. Авторами обоснована экономическая эффективность программного комплекса в области мультимедиа путем проведения, тестирования.


Ключевые слова: мультимедийная система, обработка информации, дискретно-непрерывные процессы, проведение тестирования.

In the article describes the methods of implementing TIAV-media systems in the field of media education, studied the organizational and functional structure of the multimedia system, described the steps of forming an information base and a conceptual model of media education system, the algorithm of media contents online system - Designer Media course Builder, developed a method for constructing media contents online system - designer Media course Builder, describes methods for implementing TIAV-multimedia systems, testing and economic efficiency calculation software package in the multimedia field.

Key words. Multimedia system, data processing, discrete-continuous processes, economic efficiency.

O'ziga xos xususiyatlarining tavsiflarini hisobga olish hamda ishlab chiqilgan modellar va multikontent sinfini shakllantirish va muam-molarni yechimini topish usullarini qo'llash imkonini beradigan multikontentlarni o'rganish individual traektoriyasini shakllantirish konsepsiyasiga asoslangan multimedia tizimning TIAV – diskretli-uzluksiz jarayonlarini muammoli-yo'naltirilgan boshqarish tizimi yordamida shakllangan dasturaviy modullarni sintez qilish algoritmi 1-rasmda keltirilgan.

Tizimdagi muqobil qarorlarning boshlang'ich ko'pligini shakllantirish imkoniyatini amalga oshirish uchun me'yoriy ma'lumotlar hamda ekspert baholari yig'iladi. Keyin esa ekspertlarning baholariga ishlov berish kichik tizimi ekspertlarning kelishilgan fikrlarini hamda ularning kompetentlik darajasini hisoblaydi va u o'z navbatida kelishilmaganlik paydo bo'lgan taqdirda ishonchsiz ma'lumotlarni ajratib olish imkonini beradi. Kichik tizimni faoliyatini natijasi – bu multikontentlar o'rtasidagi aloqalarning chambarchasligi koefitsientning matritsasi. Muqobil qarorlarning boshlang'ich ko'pligini shakllanishi o'zaro ta'sir etuvchi multikontentlar modelini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Keyin o'rganishga mo'ljallangan multikontentlar sinfini tanlovi amalga oshiriladi. Mantiqiy fikrdan foydalanish o'z navbatida joiz multikontentlar sinfini shakllantirishga imkon beradi va u multikontentlarni o'rganishning mantiqiy qarama-qarshiliksiz ketma-ketligini anglatadi. O'rganishning vaqt oralig'ini cheklanishini inobatga olgan holda olingan natijalarni optimizatsiyalashtirib multimedia tizim o'rganishning optimal individual traektoriyasini shakllantiradi va u o'z navbatida kvalifikatsion xarakteristikasining talablarini qoniqtirish imkonini beradi. Tizimning foydalanuvchilari bu: o'rganuvchilar, o'qituvchilar, ekspertlar, administratorlardir.



Kirish xuquqlarini ajratish hamda ma'lumotlarni o'zgartirish funksional vazifalar va multimedia jarayonini boshqarish darajalari asosida amalga oshiriladi.


Kirish xuquqlarini ajratish hamda ma'lumotlarni o'zgartirish funksional vazifalar va multimedia jarayonini boshqarish darajalari asosida amalga oshiriladi.

TIAV – diskret-uzluksiz multimedia tizimi jarayonini boshqarish tizimidagi avtomatlashtirgan qaror qabul qilinganda zarur bo'lgan ma'lumotni formallash va tipiklashtirish modeli quyidagi rasmda taqdim etilgan.

Ishlab chiqilgan modellarga asoslanib va ular ustida multikontentlarni o'rganish individual traektoriyasini shakllantirish kontseptsiyasini qurib multikontentlar individual sinfini shakllantirish avtomatlashtirilgan tizimi sintezi amalga oshiriladi.

Taklif etilgan multikontentlar sinfi quyidagi xususiyatlar bilan bir biridan farq qiladi: noyoblik, optimallikni mavjud emasligi, dinamiklik, tavsifni to'liq emasligi, tashkiliy tizim.

Individual o'rganish uchun mo'ljallangan multikontent sinfini shakllantirish masalalarini yechish usullari va ishlab chiqilgan modellarni amalda qo'llash hamda keltirilgan xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradigan kontseptual tizim bu qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimidir. O'qish vaqtidagi intervallarning cheklanishini hisobga olgan holda multimedia tizim o'rganishning optimal individual



traektoriyasini shakllantiradi va u kvalifikatsion xarakteristikasining talablarini qondirilishiga imkon beradi.

Adaptiv neyro-noaniq tarmoqlar ko'rinishidagi approksimatsiyalashgan modellarni qurishiga asoslangan multikontentlarning natijaviylik sinfini shakllantirish algoritmi ko'rib chiqilgan.

Regressiv modeli, multimedia tizimi hamda neyro-noaniq model xaqidagi noaniq bilimlar bazasi yordamida nohiziqli bog'liklikni identifikatsiya qilish uchta usuli bo'yicha approksimatsiyalashgan istiqbolli reja tuzish modelning ishlab chiqish bosqichlari bayon etilgan.

Multimedia ko'rsatkichlarining qiymatini qayd etish imkoniyati mavjudligi bilan farq qiluvchi multimedia jarayonlarni boshqarish tizimidagi avtomatlashtirilgan qarorlarni qabul qilishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni formallashtirish va tipizatsiyalashtirish modeli bayon etilgan.

Taklif etilgan modellarga muvofiq algoritm yordamida dasturaviy realizatsiya o'tkazilgan, multimedia tizimning dasturaviy ta'minotni yaratilishi bayon etilgan, mediata'lim jarayonini iqtisodiy samaradorligi hisoblash amalga oshiriladi.

Onlayn tizimi – Mediacourse Builder multikontentlarni loyihalash konstruktori mustaqil loyihalash va multikontentlarni yaratishga mo'ljallangan tizimdir.

Yaratilgan multikontent TIAY-obyektlarni, mediamatnni, animatsiya, video, rasmlar va x.k.larni o'z ichiga oladi.

Talabalar o'zlarini qiziqtirgan multikontentlarni tanlashlari, o'rganishlari hamda bilim zahiralarni to'ldirishlari mumkin. Tizimda tanlangan multikontentlar bo'yicha maxsus testlardan o'tish orqali olgan bilimlarni tekshirish imkoni taqdim etilgan. Buning uchun tinglovchilar o'zlarini ro'yxatdan o'tkazishlari zarur.

Multikontentlarni yaratish Onlayn tizimi-konstruktori yordamida administrator ishining algoritmini o'ziga xosligi shundaki, tizim o'zi ruxsatsiz avtorlashtirishdan

himoya qilish maqsadida avtomatik ravishda foydalanuvchi-administratorni identifikatsiyasini amalga oshiradi. Algoritm kiritilgan boshlang'ich ma'lumotlarni tekshirish prinsipiga asoslanadi, avtorizatsiya qilingan taqdirda ma'lumotlar bazasida mavjudligini tekshiradi, muvaffaqiyatli avtorizatsiyasidan so'ng tizim resurslariga kirish imkonini beradi, aks holda avtorizatsiyada hatoliklar mavjudligi haqida ogohlantiruvchi habarni chiqaradi.

O'qituvchining multikontentlarni yaratish onlayn-tizimi bilan ishlashning umumiy algoritmi o'ziga xosligi shundaki, tizim o'zi ruxsatsiz avtorlashtirishdan himoya qilish maqsadida avtomatik ravishda foydalanuvchi-administratorni identifikatsiyasini amalga oshiradi. Algoritm kiritilgan boshlang'ich ma'lumotlarni tekshirish prinsipiga asoslanadi, avtorizatsiya qilingan taqdirda ma'lumotlar bazasida mavjudligini tekshiradi, muvaffaqiyatli avtorizatsiyasidan so'ng tizim resurslariga kirish imkonini beradi, aks holda avtorizatsiyada hatoliklar mavjudligi haqida ogohlantiruvchi xabarni chiqaradi.

Onlayn tizimi – konstruktori Media course Builder multikontentlarni loyihalash strukturasi quyidagi asosiy bazasidan iborat: onlayn tizimi – konstruktori Media course Builder multikontentlarni loyihalashning ma'lumotlar bazasi hamda dasturaviy yadrosi.

Onlayn tizimi – Media course Builder multikontentlarni loyihalash konstruktoring ma'lumotlar bazasi (MB) portalning hamma ma'lumotlari saqlanadigan omborxona hisoblanib, unga dasturaviy yadro orqali kirish mumkin.

Portalning MB si ma'lumotlarning relyatsion bazasi hisoblanib, u shu kabi programmali maxsulotlarni yozishdagi hamma masalalarni qoniqtirishga qodir.

Relyatsion MB qoidalariga muvofiq ma'lumotlar bazasi jadvallarga bo'linadi, shu qatorda onlayn tizimi – konstruktori Media course Builder multikontentlarni loyihalash tizimi ham shunga kiradi.


Onlayn tizimi – konstruktori Media course Builder multikontentlarni loyihalash tizimi quyidagi jadvallardan iborat: multikurslar (courses), ma'ruzalar (lectures), darslar (lessons), yangiliklar (news), bilim darajasini tekshirish uchun testlar (tests degree), o'qituvchilar (teacher), foydalanuvchilar (users), imtiyozlar (roles), video (video). Onlayn tizimi – konstruktori Media course Builder multikontentlarni loyihalash tizimining dasturaviy yadrosi o'z navbatida 2 ta tizimga bo'linadi:

multikontentlarni yaratish onlayn-tizimi, multikontentlarni o'rganish onlayn-tizimi 4 ta moduldan tashkil topgan: ma'muriy, o'qituvchilik, talabalik va informatsion modullar. Sifat (K) ni ta'minlash darajasini baholash uchun TIAV – multimedia tizimdagi informatsion resurslarga ishlov berish diskret-uzluksiz jarayonlardan foydalanish mumkin.

$$K^* = (b_1 M_t^* + b_2 M_i^* + b_3 M_{a,v}^* + b_3 M_{an,im}^*) / \sum_{j=1}^4 b_j K^*,$$

Bu yerda K^* – K faktorning miqdoriy ifodasini belgilaydi.

$b_j - MP$ ni sifatini ta'minlash uchun j -chi faktorning ma'noli ahamiyatga egalik-koeffitsiyenti va u ekspertli yo'l bilan aniqlanadi.



Shunday qilib, MP sifatini ta'minlanganlik darajasini baholash uchun modelga kiruvchi barcha omillarni miqdor shaklida taqdim etish kerak.

Quyidagi ularga muvofiq koeffitsiyentlar yordamida ushbu omillarni miqdor sifatida baholash imkoniyatini beradigan metodikalardan birini qo'llaymiz.

K^* ko'rsatkichning TIAV – obyektlarning mavjudligiga bog'liqligi quyidagi ko'rinishda taqdim etiladi:

$$K^* = b_1 M_t^* + b_2 M_i^* + b_3 M_{a,v}^* + b_4 M_{an,im}^*$$

Yuqorida sanab o'tilgan omillarning minimal ruxsat etilgan qiymatini o'rnatilishi bu ruxsat etilgan me'yordan kam qiymatiga ega faktorligini bildiradi va u MP ning sifatini ta'minlanganlikdagi eng tor joylarini aniqlaydi hamda zudlik bilan paydo bo'lgan vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha chora ko'rishni talab etadi.

Shunda ushbu faktorlar sodir bo'lgan vaziyatlarda sifatni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydigan faktorlar sifatida ko'rib chiqiladi.

An'anaviy usullarga qaraganda ishlab chiqilgan usullar nazorat muolajasining sarmehnatligini va tannarxini 2-3 barobariga kamaytiradi.

Qo'l mehnat rejimini narxi va sarmexnatligi avtomatik va yarimavtomatik rejimining narxi va sarmexnatligiga nisbati qabul qilingan koeffitsiyent qiymatlarining 2-3 barobariga pasayishidan dalolat beradi.

P_N^* – Eksperimental qiymatlarining analitik qiymatlarga yaqinlashib borishi ehtimollik bo'yicha 0,9 gacha kafolatlangan χ^2 – Pirson kriteriyalar bo'yicha

tekshirilgan bo'lib, bu o'z navbatida eksperimental natijalarni nazariy natijalarga mosligi isbotlaydi.

Iqtisodiy rivojlangan jamiyatning TIAV – multimedia tizimi ta'limni modelga moslashuvini inobatga olib shakllantirish zarur bo'lgan sharoitdagina iqtisodiy samaradorlikni hisoblash usuli hamda metodlar, algoritmlar va dasturaviy-instrumental vositalarni tadbiq etish usullari ishlab chiqilgan. Bo'lajak informatsion jamiyatni ehtiyojlarini qoniqtirish kerak bo'lgan ta'lim tizimini rivojlanish oldinlab ketishi muammosi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекназарова С.С. Модели и программное обеспечение медиаобразовательного портала, LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH&Co. KG, Saarbrücken, Germany, 2012, С.178.

2. Бекназарова С.С. Онлайн-система конструктор проектирования мультимедийных курсов, LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co. KG, Saarbrücken, Germany, 2013, С.96.

3. Альбрехт А. В., Костылева Н. Е. Методы математического моделирования в задачах технологической подготовки испытаний. М.: МАТИ, 1996.

4. Андреев, В. И. О гарантированности качества высшего образования и саморазвития конкурентоспособной личности // Ученые записки Казанского государственного университета. Сер. «Гуманит. науки». Кн. 1. – Казань, 2007. – С.61-69.

Ravshan OMONOV,
O'zMU o'qituvchisi

MUHARRIRLIK FAOLIYATIDA MATN BILAN ISHLASH USULLARI

Аннотация

Maqolada muharrirlik faoliyatida qo'llaniladigan usullar, axborot texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif muharrirlarni tahrir uslubiyatida yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni tahlil qilib bir qator tavsiyalarni berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Matn, muharrirlik san'ati, axborot texnologiyalar, tahrir, tilshunoslik tajribasi, qiyosiy tahlil.

В статье рассматриваются особенности применения информационно-коммуникационных технологий в деятельности редактора. Также автор анализирует методику редактирования и предлагает ряд рекомендаций для улучшения работы редактора с текстом.

Ключевые слова. Текст, искусство редактора, информационно-коммуникационные технологии, редактирование, языкознание, эксперимент, сопоставительный анализ.

The article considers the peculiarities of the use of information and communication technologies in the work of the editor. The author also analyzes the methodology of editing and offers a number of recommendations for improving the work of the editor with the text.

Key words. The text, art of editor, information and communication technology, editing, linguistics, experiment, comparative analysis.

Muharrir muallifning birinchi yordamchisi, asarni birinchi o'quvchisi, taqrizchisi, tanqidchisi. Muharrir asarning nashr yo'lini belgilaydi, nashrni yo'naltiradi, ko'p jihatdan uning taqdirini hal etadi. Nashr jarayonida ishtirok etuvchi boshqa bo'linmalarning mutaxassislari – texnik muharrir, musahhih, badiiy muharrir, bugungi kundagi dizayner – qaysidir darajada muharrirning mo'ljallaganlarini amalga oshiradilar. Hashrdan chiqqan asar g'oyaviy-siyosiy, ilmiy, ma'rifiy mazmuniga ko'ra, auditoriyani to'liq qanoatlantirishida muharrirning o'rni yuksakdir, bu boradagi barcha mas'uliyat uning zimmasiga tushadi. O'z faoliyati mobaynida muharrir milliy mafkura tamoiylariga amal qilishi lozim, adabiy asar turlaridan qay birining nashri uchun mas'ul bo'lsa, shu asar umumxalq manfaatlarini aks ettirishi, milliy mustaqillik g'oyalari, kuchli qonunchilik davlatidan fuqarolik jamiyatiga o'tish tamoiylari, davlat yuritayotgan oqilona xalqparvar siyosatga muvofiq bo'lishligini ta'minlashi talab etiladi. Tajribali muharrirlar tahrir ishining eng qiyin joyi matnda o'zgartirishni amalga oshirish, deb hisobladilar. Kiritmalar begonaligi sezilmasligi, muallif matnining o'zidek bo'lib qolishi kerak. Muharrir qaidlari muallifga taqdim etilishidagina emas, balki kelgusidagi ishlarni amalga oshirish dasturi sifatida

ham muhimdir. Matnni faol idroklash, fikrlar aniqligi – muharrir faoliyati va xatti-harakatidagi zaruriy jihatlar hisoblanadi.

Odatda matnlarni tahrir qilish va tuzatish bir necha bosqich va usullar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, asar qo'lyozmasini tuzatishga kirishishdan oldin muharrir matn bilan tanishadi va sinchiklab tahlil qiladi.

Tahrir usulida asosiy e'tibor matn talqin (variant) larini qiyoslashga qaratiladi. Bunda, ya'ni qiyoslash jarayonida, tabiiyki, tuzatishlar kiritiladi, natijada matnning ikki talqini yuzaga keladi: birinchisi, muvaffaqiyatsiz chiqqani bo'lsa, ikkinchisi tuzatilgan namunasi. Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan hozirgi vaqtda matnni qiyoslash usulida yangi qadam tashlandi. Bunga muharrirning mehnati zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlanganligi sabab bo'ldi. Muharrir matn talqinlarini qiyoslash uchun, ularni bir vaqtda displey ekraniga chaqirish imkoniga ega bo'ldi. Bunday qiyoslash ham qulay. Chunki ikki qiyoslanuvchi talqin muharrir ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi va qulaylik tug'diradi.

Biror so'z yoki biror iboraning ma'nosi haqida fikr bildirishda uning turli muqobillari bilan izohlash mumkin. Tilshunoslik tajribasi shuni ko'rsatadiki, "pishib yetilmagan" so'zlarni ikkinchisi, ya'ni maqbul varianti bilan almashtirib yoki o'rnini, ifodasini o'zgartirib erkin birikmaga kirishida farqlanishni kuzatish darkor.

Mazkur usul natijasiga ko'ra "salbiy til material" degan tushuncha paydo bo'ldi. Ba'zan mutaxassislar tomonidan muvaffaqiyatsiz fikr ifodasiga nisbatan "bunday deyilmaydi" degan baho beriladi. Salbiy material deganda tushunish mumkin bo'lmagan yoki tezda tushunib bo'lmaydigan, yoki tushunish qiyin bo'lgan material nazarda tutiladi.

Bunday material bilan ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin bo'lmaydi. Demak, muharrir uchun tilshunoslik tajribasi salbiy til materialini aniqlashda qo'l keladi.

Muharrir matn bilan tanishar ekan, u haqiqiy mutaxassis, bilimdon sifatida namoyon bo'lishi kerak. Tafsilotlarga chuqur va keng qamrovli nazar tashlay olganlarga ishining haqiqiy ustasi sifatida muharrirlikni kasb qilib olgan "hunarmand" lardan farq qiladi. O'z ishining haqiqiy bilimdonigina arzasidan tuyulgan g'ayriodatiy narsada ham katta ma'no ko'radi, zero uni chuqur tushunadi va umumiyga munosabatini his etadi.

Muharrir mutolaasi ko'p jihatdan ilmiy mutolaaga o'xshab ko'rinadi. Har ikkala o'qishda ham tushunarsiz bo'lgan xech narsa qolmasligi lozim. Bunda tushunarsiz ifoda qolmasligidan tashqari, matndagi murakkab bandlarni chuqur mulohaza qilib ko'rish, mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan tanishish shart. Matnni tuzatish g'oyasi adabiy asar yaratishning tabiiy tavsifiga ham, ruhiy qonuniyatlariga ham zid bo'lmaydi. Mohirona amalga oshirilgan (bajarilgan) tuzatishlar matnning yaxlitligi va mazmuniy uyg'unligiga putur yetkazmaydi. Aksincha, uning tuzilishidagi ayrim nuqsonlarni istisno etadi, muallif fikrini, g'oyasini oydinlashtiradi.

Muharrirlik faoliyati andozaviylikni mutlaqo rad etadi. Zero, tuzatishning har qanday matnga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan qolipi yo'q. Muharrir tuzatish usulini o'zi tanlash huquqiga ega, lekin bu usul to'g'ri, asoslangan bo'lishi lozim, shuningdek, uni to'g'ri qo'llay bilishi ham kerak.

Qo'lyozmalardagi tuzatishlar, o'zgartirishlarning miqdori ishning sifat ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Ayrim muharrirlar (adabiy xodimlar) hanuz uchrab turadiki, ular muallif matnini qayta yozib chiqishni o'z burchi deb hisoblashadi va bu bilan, xatto, g'ururlanib ham qo'yishadi, chunki ular o'z ishlari foyda keltirishiga qattiq ishonadilar, mehnatim zoe ketmaydi, deb hisoblaydilar.

Bunday sidqidildan qilingan mehnat tufayli matn ancha “silliqlik” tortishi, lekin ko'p narsa yo'qotishi mumkin.

Biz yuqorida tuzatish jarayoni haqida to'xtaldik. Endi tuzatish turlarini ko'rib chiqamiz.

Tahrir uslubiya-tida tuzatishning to'rt turi farqlanadi. Bular quyidagilar.

- ✓ o'qib tuzatish;
- ✓ qisqartirib tuzatish;
- ✓ ishlov berib tuzatish;
- ✓ o'zgartirib tuzatish.

Musahhih va muharrir o'qishidagi maqsad alohida, boshqa-boshqadir. Musahhih chop etishda tayyorlangan matnni o'qish jarayonida uning tahrirdan chiqqan, muallif bilan kelishilgan va tasdiqlangan matniga to'la mos ekanligiga erishadi.

Matnni imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq xatolardan xoli qiladi. Entsiklopedik asar matnidagi qisqartmalar va havolalarni bir xildaligi va aniqligini ta'minlaydi. Izohlar matndagi ko'rsatkichlarga mosligi va hokazolarni to'g'riligini tekshiradi, shuningdek, zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Muharrirning o'qib tuzatishidan maqsadi matnni o'qishdan iborat. Muharrir bu tur o'qishni amalga oshirganda uning mazmuni, tuzilishi (kompozitsiyasi) dagi uslubiy xatolarni aniqlaydi. O'qish jarayonida muharrir geografik nomlar, shaxslar ismi va familiyalari, taxalluslari bir xil berilishi, iqtiboslar, raqamlar, sanalar aniq bo'lishiga e'tibor qaratadi, uzunlik, miqdor o'lchamlarini o'rinishligi va to'g'riligini tekshiradi. Shuningdek, sarlavhalarning matn bilan uyg'unligi, mosligini; tasvirlar osti yozuvlarining rasm, chizmaga mosligini tekshirish ham uning vazifasiga kiradi.

Ayrim hollarda bunday o'qish tahririyatning malakali va tajribali mutaxassisiga topshiriladi, lekin u materialni tayyorlagan muharrirning zinhori o'rnini bosa olmaydi. Uning vazifasi matndagi kamchiliklarni aniqlash, ko'rsatish, tuzatish emas. Ammo, tabiiyki, aniq ko'rinib turgan punktuatsion, grammatik, imloviy xatoliklar bundan istisno. Shuning uchun bunday o'quvchining malakasi juda yuqori bo'lgan taqdirda ham mazkur jarayonda yetakchi muharrir ishtirok etadi va muammolarni hal etadi.

Matnda qisqartirib tuzatishlarni amalga oshirishdan maqsad, avvalo, matn hajmini kichraytirish va shu yo'l bilan uni maqbul o'lchamga keltirish, qolaversa ortiqchaliklardan xoli qilishdir. Qisqartirib tuzatishining o'qib tuzatishdan farqi shundaki, bunda matnga bevosita qo'l uriladi. Shunga ko'ra muharrir matnning mazmuniy va sintaktik qurilishini hisobga olishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, noshirlik va tahririyat faoliyatida muharrirlik, tahrir etish ishlari murakkab bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyat zamirida qo'lyozma matnlarning o'qishli, samarali, sifatli chiqishi, ommaviy auditoriyaga “hazmi yengil”, tushunarli, ifodali tarzda yetkazib berish maqsadi yotadi. Bu jarayonda ishtirok etuvchi ijodkorlar – muharrirlar, adabiy xodimlar doimo bu ishga nisbatan jiddiy va e'tiborli munosabatda bo'lishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohirov Z.T. *Pragmatik sema*. – T.: “Zar qalam”, 2004.
2. Tohirov Z.T. *Adabiy tahrir. Darslik*. – T.: “Tafakkur bo'stoni”, 2012.

Зиёда ХОДЖАЕВА,

старший преподаватель Ташкентского областного института
переподготовки и повышения квалификации
работников народного образования

МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ УРОКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

Аннотация

Maqolada umumta'lim maktablarida turli fan kesimlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash uslubi, kompyuter texnikasini qo'llashning asosiy vazifalari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning aqliy tafakkurini faollashtirishda kompyuter vositalaridan samarali foydalanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv axboroti, multimediyali taqdimot, ko'rgazmali materiallar, multimediyali loyiha, nazorat, ijobiy rag'bat.

В данной статье изложена методика использования информационно-коммуникационных технологий на уроках по разным учебным предметам в общеобразовательной школе, определены основные задачи применения компьютерных технологий, приведены примеры различных этапов урока, где эффективно используются компьютерные средства обучения, способствующие активизации познавательной деятельности учащихся.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, учебная информация, мультимедийная презентация, демонстрационный материал, мультимедийный проект, контроль, положительная мотивация.

This article sets out the methodology for the use of ICT in lessons in different school subjects in secondary school, the main tasks of the application of computer technology, provides examples of the different stages of the lesson, where effective use of computer-based learning tools that promote activation of informative activity of pupils.

Key words. Information and communication technology, educational information, a multimedia presentation, demonstration material, multimedia project, control, positive motivation.

Концепция модернизации системы непрерывного образования акцентирует внимание на необходимости формирования информационной компетентности как одного из основных показателей качества образования. Компетентность в области информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) является одной из приоритетных целей образования. Возможность ее формирования напрямую связана с активной деятельностью школьника в информационной компьютерной среде. Использование информационных и коммуника-

ционных технологий (ИКТ) в учебном процессе является актуальной проблемой современного школьного образования.

Использование информационно-компьютерных технологий открывает для учителя новые возможности в преподавании своего предмета. Изучение любой дисциплины с использованием ИКТ дает детям возможность для размышления и участия в создании элементов урока, что способствует развитию интереса школьников к предмету. Внедрение ИКТ в образовательный процесс призвано повысить эффективность проведения уроков, освободить учителя от рутинной работы, усилить привлекательность подачи материала, осуществить дифференциацию видов заданий, а также разнообразить формы обратной связи.

Сегодня необходимо, чтобы каждый учитель по любой школьной дисциплине мог подготовить и провести урок с использованием ИКТ, так как теперь учителю представилась возможность сделать урок более ярким и увлекательным. Использование ИКТ в учебном процессе – один из способов повышения мотивации обучения. ИКТ способствуют развитию творческой личности не только обучающегося, но и учителя, помогают реализовать главные человеческие потребности – общение, образование, самореализацию.

Начальная школа – фундамент, от качества которого зависит дальнейшее обучение ребенка. И это налагает особую ответственность на учителя начальных классов. Его задача не только научить читать, писать, но и заложить основы духовности ребенка, развить его лучшие качества, обучить способам учебной деятельности.

Использование компьютерных технологий – это не влияние моды, а необходимость, диктуемая сегодняшним уровнем развития образования.

С помощью ИКТ на уроках в начальной школе можно:

- организовать более содержательную учебную деятельность;
- сделать учебный процесс более привлекательным и современным;
- представлять учебную информацию более интересной за счет привлечения зрительных образов;
- повысить качество обучения, желание учиться;
- разнообразить урок наглядными, динамичными средствами;

